

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

PROKUROR NAZORATI

DARSLIK



«YURIDIK ADABIYOTLAR PUBLISH»

67.72.10.7
P.66
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

PROKUROR NAZORATI

DARSLIK

TOSHKENT
«Yuridik adabiyotlar publish»
2023

UO'K: 347.963(075)
KBK: 67.72ya7
P 88



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT
DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI

PROKUROR NAZORATI

Darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan nashr. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2023-y. – 232 bet.

Mualliflar jamoasi:

D.Yu. Xabibullayev y.f.n., prof. – XI bob;
F.B. Ibratova y.f.d., prof. v.b. – XIV bob;
O.X. Narzullayev y.f.d., prof. – XII bob;
F.R. Samig'jonov katta o'qituvchi – I, II, III, IV, V va XV boblar;
B.X. Xamidov katta o'qituvchi – VI, VIII boblar;
D.D. Nurumov PHD, dotsent – VII bob;
A.R. Matmurotov dotsent v.b. – IX bob;
G.M. Mamaraimova katta o'qituvchi – X bob;
D.A. Egamberdiyev o'qituvchi – XIII bob.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2019-yil 9-fevraldagi 133-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

M. Aminjonova – Toshkent shahar prokuraturasi bo'lim prokurori, yuridik fanlar doktori, dotsent

G.Z. Tulaganova – Toshkent davlat yuridik universiteti «Jinoyat protsessual huquqi» kafedrası professori, yuridik fanlar doktori.

Ushbu darslikda prokuror nazoratining rivojlanish tarixi, huquqiy asoslari, tushunchasi, tizimi, prinsiplari, fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy va jinoiy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtiroki, prokuror nazorat hujjatlari, prokuratura organlarining xalqaro hamkorligi, xorijiy davlatlarda prokuratura organlarining huquqiy maqomi kabi masalalar, shuningdek har bir mavzuga oid kasuslar, nazorat uchun savollar o'rin olgan.

Darslik bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari, ilmiy tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar, sud, prokuratura va huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar xodimlari, shuningdek keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.



© Mualliflar jamoasi, 2023-y.

© Yuridik adabiyotlar publish, 2023-y.

MUNDARIJA

So'zboshi	9
I bob. O'ZBEKISTONDA PROKUROR NAZORATINING RIVOJLANISH TARIXI.....	11
1-§. O'zbekistonda prokuror nazoratining mazmuni va rivojlanish tarixi.....	11
2-§. Ikkinchi jahon urushi yillarida prokuratura organlarining faoliyati	19
3-§. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda prokuratura organlari.....	20
4-§. Mustaqillik yillarida prokuratura organlari faoliyati	21
5-§. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish davrlarida prokuraturaning rivojlanish yo'llari va organlarining ahamiyati.....	22
II bob. PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI. PROKURATURA ORGANLARINI TASHKIL ETISH, PROKURATURA XODIMLARIGA QO'YILGAN TALABLAR VA FAOLIYATINING ASOSIY PRINSIPLARI	30
1-§. Prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslari	30
2-§. Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari	32
3-§. Prokuratura organlaridagi lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar	38



III bob.	PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI	48
1-§.	Prokuratura organlari xodimlarining daraja va harbiy unvonlari.....	48
2-§.	Prokuratura organlari xodimlarining daxlsizligi, moddiy va ijtimoiy ta'minoti	51
3-§.	Xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlari faoliyati bo'yicha qiyosiy jadval.....	55
IV bob.	PROKUROR NAZORATI VA BOSHQA PROTSESSUAL HUJJATLAR	58
1-§.	Prokuror nazorati hujjatlarining turlari.....	58
2-§.	Protest prokuror nazorati hujjati sifatida	60
3-§.	Qaror prokuror nazorati hujjati sifatida.....	60
4-§.	Taqdimnoma prokuror nazorati hujjati sifatida	61
5-§.	Ariza prokuror nazorati hujjati sifatida	61
6-§.	Ogohlantiruv prokuror nazorati hujjati sifatida	61
V bob.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA ORGANLARI TIZIMI	64
1-§.	Prokuratura organlari tizimi tushunchasi	64
2-§.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi	66
3-§.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligi	67
4-§.	Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi	68
5-§.	Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar.....	69
6-§.	Tuman, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar.....	70
7-§.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari.....	71

8-§.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda uning hududiy bo'linmalari.....	72
9-§.	Prokuratura organlarining hay'atlari.....	72
VI bob.	QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI.....	75
1-§.	Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tushunchasi, uning mazmuni, predmeti va vazifalari.....	75
2-§.	Prokuratura organlarining umumiy nazorat faoliyatini tashkil etish.....	82
VII bob.	PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN JINOYATLARNI TERGOV QILISH.....	88
1-§.	Prokuratura organlari tomonidan jinoyslarni tergov qilish xususiyatlari.....	88
2-§.	Jinoyslarni tergov qilishda prokuror vakolatlari.....	92
VIII bob.	JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH.....	102
1-§.	Prokuratura organlarida ishni tashkil etish.....	102
2-§.	Prokuraturada ishlarni rejalashtirish.....	103
3-§.	Ijro ustidan nazorat va rahbarlik	105
4-§.	Jinoyslarchilikka qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish	108
5-§.	Muvofiqlashtirish prinsiplari	110
6-§.	Muvofiqlashtirish faoliyatining asosiy yo'nalishlari va shakllari.....	111

IX bob.	SUDLARDA JINOYAT ISHLARI KO'RILISHIDA PROKURORNING ISHTIROKI	115
1-§.	Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda prokuror ishiroki tushunchasi va uning huquqiy asoslari	115
2-§.	Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlashda prokuror ishtiroki.....	116
3-§.	Sud majlisining tayyorlov qismida prokurorning ishtiroki	119
4-§.	Sud tergovida prokurorning ishtiroki	121
5-§.	Taraflarning muzokarasida prokurorning nutqi	131
6-§.	Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asoslilik hamda adolatlilikini tekshirishda prokuror ishtiroki	134
X bob.	SUDLARDA MA'MURIY ISHLARNING KO'RILISHIDA PROKURORNING ISHTIROKI	138
1-§.	Ma'muriy sudlarda ish yuritishda prokuror ishtirokining huquqiy asoslari.....	138
2-§.	Ma'muriy sudlarda ish yuritishda prokuror ishtirokining shakllari	141
3-§.	Prokurorning ma'muriy sud ish yurituvdagi vazifalari	147
XI bob.	SUDLARDA FUQAROLIK ISHLARI KO'RILISHIDA PROKURORNING ISHTIROKI	154
1-§.	Prokurorning fuqarolik sud ishlarini yuritishdagi huquqiy holati va uning o'ziga xos xususiyatlari	154
2-§.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokurorning ishtirok etish asoslari	157

3-§.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokurorning ishtirok etish shakllari.....	161
4-§.	Fuqarolik sud hujjatlarini qayta tekshirishda prokuror ishtiroki	163
XII bob.	SUDLARDA IQTISODIY ISHLAR KO'RILISHIDA PROKURORNING ISHTIROKI.....	166
1-§.	Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokurorning ishtirok etish asoslari va vazifalari	166
2-§.	Iqtisodiy sudlarda ishlar ko'rilishida prokurorning ishtirok etish majburiyligi	168
XIII bob.	PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARINI KO'RIB CHIQISH VA HAL QILISH	177
1-§.	Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining umumiy tushunchasi va uning nazariy asoslari	177
2-§.	Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining turlari va shakllari.....	182
3-§.	O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda fuqarolarni shaxsan qabul qilishning tartibi va muddatlari	187
4-§.	O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini hal qilish va xabar berish tartibi	193
XIV bob.	HUQUQ IJODKORLIGIDA VA JAMIYATDA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA PROKURATURA ORGANLARINING ISHTIROKI.....	197

1-§.	Prokuratura organlarining huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etishi	197
2-§.	Prokuratura organlarining huquqiy targ'ibotda ishtirok etishi	201
3-§.	Prokuratura organlarining qonunlarni mujassamlashtirish va qonun ijodkorligi faoliyatida ishtiroki	203
XV bob.	PROKURATURA ORGANLARINING XALQARO HAMKORLIGI. XORIJIY DAVLATLARDA PROKURATURA ORGANLARINING HUQUQIY MAQOMI	207
1-§.	MDH va xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlarining faoliyati va xalqaro hamkorlik	207
2-§.	Xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlari	215
3-§.	Prokuratura organlarining xalqaro hamkorligi	220
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	225

SO'ZBOSHI

Mamlakatimizda sud-huquq sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-apreldagi «Toshkent davlat yuridik universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2932-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5987-sonli Farmonining qabul qilinishi yuqori malakali, raqobatbardosh, zamonaviy, xalqaro standartlarga javob bera oladigan yuridik kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur qaror va farmonda huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish dolzarb ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Shu ma'noda «Prokuror nazorati» moduli asosida tayyorlangan «Prokuror nazorati» nomli darslik bakalavriat talabalarida prokuror nazorati tushunchasi, vazifalari, funksiyalari, prokuror nazorati hujjatlari, prokurorning fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy va jinoiy sud ishlarini yuritishda ishtiroki haqida asosiy tushuncha, ko'nikma va bilimlar hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mazkur darslik hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib talabalar tomonidan sohaga oid nazariya va amaliyot materiallarining tizimli ravishda va o'z vaqtida o'zlashtirilishini tashkil va tahlil etish, talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur darslik ayni paytda talabalar uchun ushbu modul bo'yicha tushuncha, bilim va amaliy ko'nikma hosil qilishda muhim o'rin egallaydi.

I bob. O'ZBEKISTONDA PROKUROR NAZORATINING RIVOJLANISH TARIXI

1-§. O'zbekistonda prokuror nazoratining mazmuni va rivojlanish tarixi

Adolatni hamisha odil vaqtning o'zi tiklar ekan. Mustaqillik sharofati bilan madaniy-ma'naviy qadriyatlarimiz qayta tiklandi, endilikda xalqimiz shon-sharafga to'la tarixi va xushxulqlik, adolat, haqiqat hamda komillikdan saboq beruvchi otabobolarimiz yashagan ijtimoiy muhitni yangidan idrok qilmoqda. Ma'lumki, VIII asrda bizning ajdodlarimiz ham Islom dinini qabul qilib, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar asosan shariat qoidalari va mahalliy urf-odatlar asosida tartibga solingan.

Shariat qoidalariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlashda qozi va biy sudlari muhim o'rin egallagan. Qozi sudlari shariat normalari asosida jinoiy va fuqarolik ishlarini, shuningdek merosni taqsimlashdan kelib chiqadigan nizolarni, oila va nikoh masalalarini hal qilish bilan birga, ularga og'ishmay amal qilib borilishini ham nazorat qilganlar. Biy sudlari esa asosan mahalliy urf-odat va an'analardan kelib chiqib, nizo va muammolar bo'yicha qaror qabul qilishgan.

Qozilarning jinoiy ishlar bo'yicha chiqargan hukmlari ustidan faqatgina davlat boshlig'iga shikoyat qilingan. Agarda u qanoatlantiriladigan bo'lsa, hukm bekor qilinib, ishlar qaytadan ko'rib chiqish uchun boshqa qoziga yuborilgan. Fuqarolik va mulkiy ishlar bo'yicha qozi hukmi qat'iy bo'lib, shikoyat qilinmagan.

Qozilar ishlarni oshkora, yakka o'zi va og'zaki tarzda ko'rib, jinoiy harakatning og'irlik darajasiga qarab jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan (darra bilan urish, qo'l yoki oyog'ini kesish, o'limga hukm qilish kabi) jazo tayinlagan.

Musulmon sudlarida «qozilar» tomonidan ishlarni ko'rib chiqish tartibi va qozi qarorlarini ijro etishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud edi.

Mamlakatda oliy sud bosqichi – Shayxulislom (Buxoroda) barcha huquqiy masalalar bo'yicha oxirgi xulosani berib,

davlatning bosh qozisi hisoblangan. Qozikalon esa fuqarolik yoki jinoiy ishlar yuzasidan sud qarorlaridan norozilik berilganida, ularni ko'rib chiqib oxirgi to'xtamni qabul qilar edi. Huquqiy masalalar bo'yicha fatvo berish huquqi muftiylarga berilgan edi.

Hududlarga qozilar davlat rahbari tomonidan bir umrga tayinlanib, faqat bila turib shariat qoidalarini noto'g'ri tatbiq etganligi uchun lavozimidan ozod qilingan. Shuning uchun ham qozilar hokimlardan mustaqil bo'lib, shariat qoidalariga rioya etilishining umumiy ahvoli va hokimlarning qonuniy faoliyat ko'rsatayotganligi haqida davlat rahbariga axborot berib turish vakolatiga ham ega bo'lgan.

O'zbekistonning hozirgi hududida ushbu huquq-tartibot tizimi deyarli keskin o'zgarishlarsiz XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar faoliyat ko'rsatgan.

Prokuratura deganda nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari yoki bunga vakolat berilgan mansabdor shaxs tushuniladi¹. Lotin tilida «procuratio (procuro)» so'zi g'amxo'rlik qilish, boshqarish, «procurator (procuro)» so'zi boshqaruvchi, idora qiluvchi, rais, ishonchli vakil, vakolatli, prokurator, imperator daromadlarini boshqaruvchi va, nihoyat «Procuro» so'zi esa g'amxo'rlik qilmoq, parvarishlamoq, asrab-avaylamoq, ta'minlamoq, sodir etmoq, boshqarmoq, boshlab bormoq degan ma'noni anglatadi¹. Shunga o'xshash ma'nolar fransuz so'zlarida ham bor: «procuratenr», «procutie», «procuration», «procurer»².

Keltirilgan atamalarga qarab, «Prokuratura» so'zining ikki xil ma'nosi haqida fikr yuritish mumkin, ya'ni bu so'zning keng ma'noda nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari yoki mansabdor shaxs yoxud davlat organlarining alohida turi sifatida tushunish mumkin. Tor ma'noda esa boshqa hokimiyat tarmoqlariga kirmaydigan, nazorat faoliyatini amalga oshirishga mo'ljallangan maxsus davlat organlari tizimi tushuniladi.

Prokuratura huquqni muhofaza qilish funksiyasini amalga oshirishga mo'ljallangan davlat organlaridan biridir. Biroq bu

¹ Қаранг: Современный словарь иностранных слов. – М., 1993. – С. 493. Большой юридический словарь. – М., 1999. – С. 821, 822.

² Qarang: Гашина К.А. Французско-русский словарь. – М., 1980. – С. 439.

funksiya uning butun faoliyatini qamrab olmaydi¹. Prokuraturaga davlat hokimiyatidagi uch tarmoqning hech biriga kirmaydigan mustaqil davlat organlari sifatida qarash, prokuratura organlarining samarali ishlashining asosiy sharti hisoblanadi.

Hatto qadimgi Gretsiya va Sharq davlatlarida prokurorning eng asosiy ijtimoiy funksiyasi qonuniylikni ta'minlashdan iborat bo'lgan. Davlatning vakili sifatida sudda u ayblovni amalga oshirgan. Keyinchalik, bu qadimgi Rimga ham o'tgan. Yevropada birinchi bo'lib prokuratura organlari XIV asrda Fransiyada tuzilgan. Bu davrda prokuratura birinchi navbatda jazolash, ayblash choralari amalga oshirishga mo'ljallangan edi.

1506-yilda Fransiyada qabul qilingan prokuraturaning faoliyati va uni tashkil etish to'g'risidagi qonun uning boshqa davlat organlari tizimidagi o'rnini belgilab berdi. Bu qonunga ko'ra, prokuror nazoratining vakolat doirasiga quyidagilar kirardi: prokurorning ma'muriy-siyosiy xarakterdagi faoliyati, tergov ustidan nazorat, sud-huquq faoliyati. Keyingi davrlarda Fransiyada prokuratura muhim qayta tashkil etilishlarni o'z boshidan kechirdi, biroq uning davlatdagi jazolovchi funksiyasi, oliy hokimiyat boshqaruvchisining barqarorligini ta'minlashi o'zgarmasdan qoldi.

Fransiyadagi prokuratura faoliyati Chor Rossiyasidagi prokuraturaning tashkil topishiga asos bo'ldi va 1917-yil oktabr revolyutsiyasidan keyin hamda sobiq Ittifoq davrida prokuratura organlarining ishlashi va shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. Rossiyada prokuratura qonunga amal qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ sifatida, yagona, markazlashgan davlat tuzumi sifatida davlat boshqaruvini isloh qilish davrida Pyotr I tomonidan tuzilgan edi.

Pyotr I «Prokuratura davlatning va barcha fuqarolar manfaatlarini qo'riqlashi kerak, general-prokuror esa, uning iborasi bilan aytganda, davlat ishlarida bizning ko'zimiz va ish boshimizdir»² degan edi.

¹ Галузо В.Н. Система правоохранительных органов России. Учебник для вузов. – М., 2000. – С. 10–14; Рахлин В.И., Сидарук М.М. Правоохранительная функция прокуратуры. – С. Петербург, 2000. – С. 20–24.

² Прокуратура Санкт Петербурга. – Санкт Петербург, 1987. – С. 6.

Prokuror nazorati instituti birinchi bor 1867-yildagi Turkiston o'lkasini boshqarishga oid vaqtinchalik Nizomning loyihasi da ko'zda tutilgan edi. Biroq o'sha davrda maxsus organ sifatida prokuratura tuzilmagan edi. Prokuror funksiyasi ma'muriy boshqaruv apparatini boshqarib kelgan general-gubernator tomonidan bajarilgan (Turkiston o'lkasi uchta mustaqil ma'muriy hududlar: Sirdaryo viloyati, Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limidan tashkil topgan edi).

1887-yil Rossiya adliya vazirining buyrug'i bilan Sirdaryo, Marg'ilon, Samarqand viloyat sudlari qoshida viloyat prokuraturalari tashkil qilingan. Bu prokurorlar viloyat sudlari tarkibida tuzilgan bo'lsalar-da, ular ma'muriy tartibda Rossiya adliya vaziriga bo'ysungan. Prokuror lavozimiga faqat rus millatiga mansub, xristian diniga e'tiqod qiluvchi tayinlanishi mumkin edi.

O'sha davrda amalga oshirilgan islohotlar natijasida 1899-yilga kelib Turkiston o'lkasida ikki bosqichdagi prokuratura faoliyat ko'rsatgan: Sud palatasidagi prokuratura; Okrug sudidagi prokuratura. Okrug sudidagi prokuratura Sud palatasidagi prokuraturaga bo'ysungan. Sud palatasi prokurori, o'z navbatida bevosita adliya vaziriga bo'ysungan va hisobdor bo'lgan. Hamma prokurorlar podsho tomonidan vazifaga tayinlangan va vazifadan ozod etilgan.

Prokurorlarning vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

jinoiy ta'qibni qo'zg'atish, politsiya surishtiruviga rahbarlik qilish, dastlabki tergovni kuzatish, ishlarni sudga yuborish, sudlanuvchilarning aybini sudda isbotlash, sud hukmlariga protest keltirish, sud qarorlari ijrosi yuzasidan farmoyish berish va jinoyat ishini qayti tiklashda ishtirok etish;

sud idorasi ishlari bo'yicha qonunlar bajarilishini nazorat qilish, Sud palatasi departamenti majlislarida hozir bo'lish, Sud palatasi va okrug sudi majlislarida ishtirok etish va qonunni qo'llash yuzasidan xulosa berish, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan farmoyish berish, intizomiy ish yurituvchi qo'zg'atish;

jazoni ijro etuvchi muassalarda, qamoqxonalarda mahbuslar saqlanishining qonuniyligi ustidan kuzatuvni olib borish.

Prokuratura 1917-yilgacha reaksion davlat tuzumini himoya qiluvchi, qattiq jazolovchi organ hisoblangan va Chor Rossiyasi bilan birga bu organga ham barham berilgan.

1991-yilga qadar sobiq Ittifoq davrida prokuratura faoliyatini tashkil etishning tarixiy bosqichlari:

1917-yildagi Rossiyadagi Oktabr inqilobidan so'ng sud reformalari o'tkazilguniga qadar Turkistonda sobiq Chor Rossiyasida faoliyat ko'rsatgan sud va prokuratura Sovetlar va Adliya Xalq komissarlari komissiyasining bevosita nazorati ostida faoliyat ko'rsatishni davom ettirgan.

Muassasalar va fuqarolar harakatining qonuniylik ustidan nazorat (umumiy nazorat), jinoyatlarning tergov qilinish qonuniyligi ustidan nazorat (surishtiruv va tergov ustidan nazorat), sud organlari harakati qonuniyligi ustidan nazorat (sud nazorati), jazoni ijro etish muassasalari ustidan nazorat yoki boshqa shakldagi nazorat davlat hokimiyati va boshqaruvning turli xil organlari tomonidan amalga oshirilgan.

1922-yil 28-mayda VSIK qarori bilan «Prokuror nazorati to'g'risida»gi nizam tasdiqlangan bo'lib, unda prokuratura organlarining tashkil etilishi va faoliyatining asosiy prinsiplari o'z ifodasini topdi. Unda prokuratura organlarining yagona va markazlashganligi, quyi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlarga qat'iy bo'ysunishi, mahalliy ta'sirdan mustaqilligi, keng jamoatchilik uchun yordamga prokuratura organlari tayanch bo'lib xizmat qilishi kabi prinsiplar o'z ifodasini topdi.

«Prokuror nazorati to'g'risida»gi nizam qonunlarga qat'iy rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshirishda prokurorlarning vakolati va nazorat predmetini aniqlab bergan. Jumladan, ular:

– davlat nomidan hokimiyat organlarining, xo'jalik tashkilotlari, muassasalar, jamoat birlashmalari va jismoniy shaxslarning, aybdor shaxslarga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish orqali butun faoliyatining qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

– surishtiruv va OGPU organlari faoliyati ustidan bevosita kuzatishi;

– sudda ayblovni qo'llab-quvvatlashi;

– mahkumlarni qamoqda saqlash qoidalariga rioya qilinishini kuzatishi lozim.

Ma'lumki, ilgari O'zbekiston ittifoqdosh respublika sifatida sobiq SSRI dan qonunchilik tizimini, shu jumladan prokuratura organlari faoliyati va tashkil etilishining asosiy prinsiplarini ham qabul qilib olgan edi.

«Prokuratura to'g'risida»gi qonun hujjatlari tahlili shundan dalolat beradiki, 1923-yildan 1938-yilgacha SSRI va ittifoqdosh respublikalar sud tuzilishi to'g'risidagi qonun qabul qilinishidan oldin prokuratura organlari tizimi, vazifasi va prokurorlarning vakolati sud tuzilishi to'g'risidagi qonun bilan tartibga solingan bo'lib, prokuraturaning tashkiliy organlari markazda ham, joylarda ham mustaqil davlat organlari emas edi. Prokuratura bo'lim sifatida Adliya xalq komissariati tizimiga kirar edi. Adliya komissari bir vaqtning o'zida respublika prokurori ham edi.

1923-yil 23-noyabrdagi «SSRI Oliy sudi to'g'risida»gi nizomga muvofiq prokuratura Oliy Sud tarkibiga kiritildi. Prokuratura vakolatlari «SSRI Oliy sudi to'g'risida»gi nizom va 1926-yil 24-iyuldagi «SSRI Oliy sudi va SSRI Oliy sudi prokuraturasi to'g'risida»gi Nizomi bilan ancha kengaytirildi.

O'sha davrda prokuratura organlarining yagona markazlashgan tizimi shakllanmagan edi.

Chunki 1917-yildagi oktabr inqilobidan so'ng Turkiston o'lkasida yagona markazlashgan davlat tuzilmalari shakllanmagan edi, ya'ni davlat tuzilishi Turkiston ASSR, BXSRS va XXSR shaklida shakllangan edi.

1922-yil 28-mayda VSIK qarori bilan «Prokuror nazorati to'g'risida»gi nizom tasdiqlangach, qayd qilingan nizom andozasi asosida Turkiston Kengashi MIKning 1922-yil 29-oktabrdagi qarori bilan «Turkistonda davlat prokuraturasi to'g'risida»gi nizom tasdiqlangan.

1920-yil mart oyida Xorazmda va shu yilning sentabr oyida Buxoroda ham inqilobiy, ya'ni «Xalq Sovet revolyutsiyasi» deb nom olgan to'ntarish amalga oshirilgan.


Shu munosabat bilan 1921-yil 18-sentabrda Buxoro Sovetlar syezida BXSRS Konstitutsiyasi qabul qilingan. Bu Konstitutsiyaga muvofiq, respublikada qonuniylik ustidan nazoratni

amalga oshirish BMK va uning prezidiumi, HKS, xalq nozirlari va BMKning Oliy nazoratiga yuklatilgan edi. 1922-yil 21-noyabrda BMK qarori bilan BMKning Oliy nazoratining bo'limi sifatida prokuratura tashkil qilingan, uning asosiy vazifasi sifatida inqilobiy qonuniylikning qat'iy amalga oshirilishi, Respublika Oliy ijro hokimiyatiga bo'ysunuvchi organlar, muassasalar va ayrim mansabdor shaxslarning harakati va farmoyishlarining qonuniyligini kuzatish va nazorat qilish, amaldagi qonunlarning buzilishi yuzasidan sud javobgarligiga tortish belgilangan. 1923-yil 12-aprelda BMKning Oliy kontrolining bo'limi sifatida prokuratura BXSning BHKSning adliya komissariati qaramog'iga bo'lim sifatida o'tkazilgan.

XXSR iqtisodiy jihatdan qo'liq, davlat apparatining kuchsizligi, aholi savodi darajasi pastligi, yurist kadrlarning yo'qligi sababli bu respublikada prokuraturaning shakllanish jarayoni birmuncha sekinlik bilan rivojlangan. Faqat 1924-yil 24-sentabrda XXSR MIQ kengashining qarori bilan «Xalq yustitsiya nozirligi to'g'risida»gi nizom tasdiqlangan.

Nizomga muvofiq, Yustitsiya nozirligiga nozir rahbarlik qilgan, uning o'zi bir vaqtning o'zida XXSR davlat prokurori hisoblangan va unga respublikada qonuniylik ustidan umumiy kuzatuvni olib borish vazifasi yuklatilgan. Prokurorlik nazorati bevosita Yustitsiya nozirligining prokuratura bo'limi tomonidan amalga oshirilgan. Bo'limning vazifasi sifatida hamma hokimiyat va jamoat organlari, xo'jalik muassasalari va xususiy shaxslarning harakatlarining qonuniyligi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, qonunsiz qarorlarga protest keltirish, qonun buzilishiga yo'l qo'ygan aybdorlarga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish, surishtiruv va tergov, davlat siyosiy boshqarmasi, jazoni ijro etish muassasalari va Oliy sud faoliyati ustidan kuzatuvni olib borish belgilangan.

O'zbekistonda prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyatini tartibga soluvchi birinchi qonunchilik akti 1924-yil 29-oktabrda SSRI HKSning MIK tomonidan qabul qilingan «SSRI va ittifoqdosh respublikalarda sud tuzilishi asoslari» hisoblanadi.



Mazkur huquqiy hujjat asosida 1925-yil 6-mayda O'zbekiston SSR MIQ va HKS «O'zSSR Adliya xalq komissariati to'g'risida»gi nizomni tasdiqladi, unga muvofiq adliya xalq komissari bir vaqtning o'zida respublika prokurori ham edi. Mazkur huquqiy akt bilan 1922-yildagi TASSR davlat prokuraturasi to'g'risidagi nizomda mustahkamlangan prokuratura funksiyalari yanada takomillashtirildi.

Respublika prokurori bir vaqtning o'zida adliya xalq komissari sifatida respublika hukumati tarkibiga kirar edi. Respublika prokurori O'zbekiston Markaziy ijroiya qo'mitasi tomonidan tayinlansa ham, respublika sovnarkomi oldida hisob berardi. Respublika prokurori qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish bilan bir qatorda boshqaruv funksiyasini ham amalga oshirgan, bu esa nazorat funksiyasini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatardi.

1933-yil 20-iyundagi SSRI MIQ va HKS qarori bilan SSRI prokuraturasi tuzildi. 1933-yil dekabrda «SSRI prokuraturasi to'g'risida»gi nizomda SSRI prokuraturasi funksiyalari konkretlashtirildi, respublika prokurorlari bilan o'zaro munosabatlar aniqlab berildi.

1936-yil 20-iyundagi SSRI MIQ va HKSning SSRI Adliya xalq komissariatini shakllantirish to'g'risidagi qarori prokuratura va tergov organlarini ittifoq va avtonom respublikalar Adliya xalq komissariati tizimidan chiqarib, SSRI prokuroriga bevosita tobe qilib qo'ydi.

Shunday qilib, 1936-yili prokuraturani markazlashtirish va yagona tizimga aylantirish jarayoni nihoyasiga yetdi.

1936-yilgi SSRI Konstitutsiyasi va 1937-yilgi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi prokurorlik nazoratining ahamiyati va o'rnini davlat faoliyatining mustaqil turi sifatida yuqoriga ko'tardi. Unda SSRI Oliy Soveti tomonidan tayinlanadigan SSRI prokurori boshchiligidagi yagona va markazlashgan tizim ko'rinishida SSRI prokuraturasi mustahkamlandi.

Ittifoqdosh va avtonom respublikalar, viloyatlar prokurorlari 5 yil muddatga, shu respublika davlat hokimiyati organlari bilan kelishmasdan SSRI prokurori tomonidan tayinlanardi. Tuman

va shahar prokurorlari esa ittifoqdosh respublikalar prokurorlari tomonidan 5 yilga tayinlanar, ularning tayinlash to'g'risidagi buyruqlari keyinchalik SSRI prokurori tomonidan tasdiqlanar edi. Shu tarzda prokuratura organlarining markazlashuvi mustaqil ittifoqdosh respublikalarning kuchsizlanishi hisobiga kuchaygan edi.

Asosiy qonunlar prokuratura organlariga qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi va rioya etilishi ustidan davlatning asosiy huquqiy oliy nazorat funksiyasini amalga oshirishni yukladi, ularning mahalliy organlardan mustaqilligi va faqat SSRI prokuroriga bo'ysunish tamoyili mustahkamlab qo'yildi.

2-§. Ikkinchi jahon urishi yillarida prokuratura organlarining faoliyati

Ikkinchi jahon urushi yillarida prokuratura organlari faoliyati fashizm ustidan g'alaba qozonish maqsadiga yo'naltirilgan edi. Mamlakatda harbiy holat e'lon qilingan, 1941-yil 22-iyundagi SSRI Oliy Soveti Farmoniga ko'ra prokuratura organlari faoliyati harbiylashtirilgan edi. Ularning asosiy faoliyati harbiy vaqtdagi qonunlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek jamoat tartibini, mehnat va davlat intizomini himoya qilish, harbiy xizmatchilar va ularning oilalari qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlat mulkini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishdan iborat edi.

Ikkinchi jahon urushining og'ir yillarida O'zbekiston Prokuratura organlarining vazifalari nihoyatda ko'payib ketdi. O'zbekistonga yuzga yaqin sanoat korxonalari, 10 ga yaqin harbiy o'quv yurtlari, gospitallar, ilmiy muassasalar ko'chirib keltirilgan edi. Respublikamiz bir milliondan ortiq evakuatsiya qilingan odamlarni qabul qildi, ulardan 200 mingtasi bolalar edi. Urush yillarida O'zbekistonda ko'plab sovet armiyasi qo'shimalari, shu bilan bir qatorda milliy o'zbek qismlari ham tuzildi. Respublika mamlakatning muhim oziq-ovqat bazasi bo'lib qoldi. O'sha davrlarda respublikamiz prokuraturasining faoliyati harbiy vaqtdagi qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilishga yo'naltirildi¹.

¹ Mustafayev B.M. 70 yil qonun himoyasida. – T.:, 1992.

SSRI Oliy Soveti Prezidiumining 1943-yil 16-sentabrdagi Farmoni bilan prokuratura organlarining prokuror-tergov xodimlariga mansab darajasi unvoni berilishi oʻrnatildi va SSRI prokuraturasi organlari prokuror-tergov xodimlarining fuqaroviy mansab darajasi bilan harbiy unvonlari qiyosiy jadvali tasdiqlandi. Mansab darajalari unvoni oʻrnatilishi va yangi maxsus kasbiy libosning kiritilishi prokurorlarga rasmiy, jiddiy koʻrinish berdi, mehnat va ijro intizomi mustahkamlanishiga yordam koʻrsatdi.

Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan prokurorlar gitlerchi bosqinchilarning jinoyatlarini fosh etishda katta ishlarni amalga oshirdilar. 1945-yil 20-noyabrdan 1946-yil 1-oktabrgacha Nyurnbergda boʻlgan sudda tarixda birinchi marta dahshatli qilmishlar sodir etgan va koʻplab davlatlarni egallab olgan jinoyatchilar sud oldida hozir boʻldilar. Bu ochiq protsess boʻlgan edi. Harbiy jinoyatchilarning aybini isbotlovchi dalillarni toʻplashda prokuraturaning tajribali tergovchilari katta ishlarni amalga oshirishdi.

3-§. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda prokuratura organlari

Urushdan keyingi davrlarda prokuratura organlari iqtisodiyotni tiklashga qaratilgan qonunlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirdi. Qaytadan shahar va qishloqlar qurila boshlandi, zavod va fabrikalar, kolxoz va sovxozlar tiklana boshlandi. Bu esa xalq boyligining butligi, davlat va mehnat intizomini mustahkamlash toʻgʻrisidagi qonunlarning ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishni talab qilardi.

1946-yil 19-martda SSRI Oliy Soveti davlat va xoʻjalik qurilishidagi vazifalarni hal qilishda prokuratura organlarining obroʻsini oshirish maqsadida SSRI prokuroriga Bosh prokuror maqomini berish toʻgʻrisidagi qonunni qabul qildi.

1955-yil 24-mayda SSRI Oliy Soveti Prezidiumi Farmoni bilan «SSRIda prokuror nazorati toʻgʻrisida»gi nizom tasdiqlandi. U prokuratura organlari vakolatini bir muncha kengaytirdi va aniqlashtirdi hamda prokuror nazorati vazifalari va uni amalga oshirish uslublarini qonun bilan mustahkamlab qoʻydi.

Nizomda SSRI Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar, SSRI, ittifoqdosh va avtonom respublikalarning qonunlarini mahalliy farqlikka, mahalliy ta'sirlarning bo'lishidan qat'i nazar, aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat qilishi shartligi ko'rsatildi. Bu bilan prokurorlik nazoratini kuchaytirish uchun zarur sharoit yaratilgan edi.

1977-yildagi SSRI Konstitutsiyasi asosida 1979-yil 30-noyabrda «SSRI Prokuraturasi to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan bo'lib, bu Qonun Ittifoq prokuraturasi tarqalib ketguniga qadar amalda bo'ldi.

SSRI tarqalib ketgandan keyin SSRI prokuraturasi mustaqil davlat organlari sifatida faoliyatini tugatdi. Har bir suveren davlat Bosh prokuror boshchilik qiladigan mustaqil prokuratura organlarini tuzdi.

4-§. Mustaqillik yillarida prokuratura organlari faoliyati

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonuniga va 1992-yil 8-yanvarda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi organlari to'g'risida»gi Prezident Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, davlat suverenitetini himoyalashni ta'minlash maqsadida O'zSSR Prokuraturasi mustaqil O'zbekiston Respublikasi prokuraturasiga aylantirildi. Ushbu Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi prokuraturasiga Mudofaa vazirligida, uning joylardagi idora va bo'limlarida, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlarda qonunlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish ham yuklandi.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining markaziy apparati strukturasi, joylardagi prokuratura organlari bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 24-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi Qarori bilan belgilandi¹.

¹ Hujjat 2021-yil 22-fevralda kuchini yo'qotgan.

1992-yil 4-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qaroriga asosan bundan buyon O'zbekiston Respublikasida tegishli qonunlar qabul qilingunga qadar uning hududida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlarga zid bo'lmagan SSRI qonunlari qisman amalda bo'lib turishi belgilandi. 1979-yil 30-noyabrda qabul qilingan «SSRI prokuraturasi to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston Respublikasida Oliy Kengashning 1992-yil 9-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinguniga qadar amalda bo'ldi.

Respublikamiz qonunshunoslarining bunday qadami shoshmasdan, xalqaro tajriba va rivojlangan demokratik davlatlarning amaliyotini, milliy xususiyatlarni, xalqning mentalitetini hisobga olgan holda faol qonun ijodkorligi ishiga kirishishga imkoniyat yaratdi.

5-§. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish davrlarida prokuraturaning rivojlanish yo'llari va organlarining ahamiyati

O'zbekiston taraqqiyotini hal etuvchi konsepsiyani shakllantirishda mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov davlat qurilishining butun boshli dasturining o'zagini tashkil etuvchi beshta asosiy tamoyillari qatorida qonun ustuvorligini, qonunga itoatkorlikni e'tirof etdi. Ushbu talab to'liqligicha yosh respublikamizda huquqiy demokratik davlat qurilishi maqsadida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar mazmuni va yo'nalishini belgilab berdi.

Sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan va hozirda yangi mustaqil davlatlar doirasiga kirgan mamlakatlar ichida davlatchilik va qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qilishda respublikadagi fuqarolar kelishuvi va qonuniylikni ta'minlashga oid davlat faoliyati tizimida O'zbekiston Respublikasining prokuratura organlari muhim o'rin tutishi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning 2001-yil 29-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq VI sessiyasidagi «Adolat – qonun

ustuvorligida» deb nomlangan ma'ruzasida, «Prokuratura – qonun himoyasida turgan organ. U huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurilishida, huquqiy islohotlarni amalga oshirishda hal qiluvchi rolni o'ynaydi» deb ta'kidlab o'tgan edi.

Prokuror nazorati tarmog'ining alohida dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq VI sessiyasidagi «Adolat – qonun ustuvorligida» ma'ruzasi bo'yicha qabul qilingan Oliy Majlisning 2001-yil 29-avgustdagi qarorida ifodalangan. Bu qarorda ma'ruzadan kelib chiquvchi konseptual qoida va xulosalar ma'qullandi va prokuratura, huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar, sudlar faoliyati, jinoiy jazolarni liberallashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish kabi ma'ruzadan kelib chiquvchi vazifalarni hayotda amalga oshirish bo'yicha talablar qo'yildi¹.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardanoq milliy prokuraturaning paydo bo'lishi va shakllanishiga alohida e'tibor berildi. Ushbu yo'nalishdagi birinchi ildam qadam davlatimiz rahbarining prokuratura organlarini ittifoq markazidan haqiqiy mustaqilligiga erishish yuzasidan qilgan sa'y-harakatlari bo'ldi.

Shunday xavf bo'lishiga qaramasdan, mamlakat rahbariyati tomonidan 1990-yil 1-noyabrda O'zbekiston SSRning «O'zbekiston SSRda ijro va boshqaruv hokimiyati tizimini takomillashtirish va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi(Asosiy Qonun)-ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunini qabul qilish to'g'risidagi dadil va jasoratli siyosiy qaror qabul qilindi.

Ushbu hujjatda birinchi marta ittifoq doirasida O'zbekiston SSR prokurori hamda uning o'rinbosarlari ilgari gidek SSRI Bosh prokurori tomonidan emas, Respublika Prezidentining taqdimnomasiga binoan mamlakat parlamenti tomonidan tayinlanishi mustahkamlandi va O'zbekiston Respublikasi

¹ «Xalq so'zi» 2001-yil 30-avgust.

prokurorining faqat O'zbekiston Respublikasi parlamenti va Prezidenti oldidagi hisobdorligi va javobgarligi belgilandi.

Prokuratura organlarining haqiqiy mustaqilligi va ozod bo'lganligini ta'minlash uchun qabul qilingan ikkita hujjatni e'tirof etish lozim. Birinchisi, 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Murojaati mazmuni; ikkinchisi, O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari haqida»gi Qonunidir.

Aynan shu qonunga muvofiq, 1992-yilning 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 33-sonli qarori qabul qilingan. Hukumatning ushbu qarori nafaqat prokuraturaning mavqeyini mustahkamlagan, balki prokuratura xodimlariga qator imtiyoz va ustunliklar berish bilan birga, moddiy-texnik bazasini ham sezilarli darajada mustahkamlagan. Aynan shu holatlar prokurorlarning o'zlariga yuklatilgan nazorat vakolatlarini erkin ravishda amalga oshirishda, haqiqiy mustaqilligini ta'minlashda ijobiy rol o'ynadi.

Ammo davr O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslarini zudlik bilan ishlab chiqish va qabul qilishni talab etar edi. Chunki O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi va davlatchiligi asoslarini vujudga keltirish uchun milliy huquqiy tizim shakllantirilishi va davlatimizning qonunchilik bazasi ishlab chiqilishi, mamlakatda bozor munosabatlarini shakllantirishda huquq-tartibot va qonuniylik muvofiqlashtirilishi talab etilar edi.

Bu boradagi dastlabki dadil qadam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi O'zbekiston SSR prokuraturasini mustaqil O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga o'tkazilishini belgilovchi Farmonini misol qilsak bo'ladi. Bundan tashqari, yosh va mustaqil O'zbekiston Respublikasining dastlabki qabul qilgan qonunlaridan biri, mamlakatning Asosiy Qonuni – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilingan kuni ertasiga, ya'ni 1992-yil

9-dekabrda parlament tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining qabul qilinishini ham alohida muhim holat deb e'tirof etish lozim.

Mamlakatdagi ijtimoiy holat, avvalambor davlatchilikning dastlabki shakllanish davri, milliy qonunchilikning mavjud emasligi yosh mustaqil respublikada barqarorlikni saqlab qolish, jamoat tartibi va jinoyatchilikning oldini olish va shunga o'xshash jamiyatga qarshi va millatlararo kelishmovchilik holatlarini keltirib chiqarmaslik zaruriyati – zudlik bilan ushbu qadamlarni qo'yishni talab etar edi.

Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda prokuratura hal qiluvchi rolni o'ynar edi. Aynan shu holat prokuratura organlarini zudlik bilan shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqargandi. Prokuratura organlari normal faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy baza shakllantirilishi kerak edi, chunki prokuratura organlarining asosiy faoliyati qonunlarni aniq va bir xil bajarilishini hamda qonunlar ustuvorligini ta'minlashga, huquq-tartibotni mustahkamlashga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan fuqaro va insonning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarini hamda mamlakat mustaqilligi, jamiyat va davlat qurilishi, siyosiy va iqtisodiy tizimni har qanday g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilishga qaratilgandir.

Prokuratura organlarining huquqiy maqomini, asosiy vazifalarini va ishlash prinsiplarini hamda uning faoliyati yo'nalishlarini belgilab beruvchi asosiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. Mamlakatimiz Asosiy Qonunida prokuratura uchun o'zida to'rt moddani mustahkamlagan alohida XXIV bob ajratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasida ta'kidlanishicha, «O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi». Konstitutsiyaning 119-moddasi prokuratura organlari tizimini mustahkamlab, «Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O'zbekiston Respublikasining Bosh

prokurori boshchilik qiladi» deb ko'rsatilgan. Undan keyinroq esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shahar prokurorlarini tayinlash tartibi hamda ularning vakolat muddatlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 120-moddasi prokurorlik nazoratini samarali amalga oshirishning yanada ahamiyatli tomonini o'zida mujassam etgan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshirishlari mustahkamlab qo'yilgan. Prokurorlar nazoratni davlat nomidan amalga oshiradilar. Ular qonun buzilishining kim tomonidan sodir qilinishidan qat'i nazar, har qanday ko'rinishiga qarshi kurashishlari, o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlar belgilashlari lozim.

1992-yil 9-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni o'zining tarixiy vazifasini bajardi. Ya'ni «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun qabul qilinishi munosabati bilan mamlakatda talab darajasidagi qonuniylik va huquq-tartibot o'rnatilishiga bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi prokuratura organlari uchun juda zarur bo'lgan dastlabki qadam sifatida baholash mumkin bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining (yangi tahriri) esa prokuratura organlarining davlat organlari tizimidagi tutgan o'rni va roli, prokuror nazorati xususiyati, prokuratura organlari funksiyalarining aniq belgilanishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'z ichiga qamrab oldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev boshchiligida mamlakatimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish hamda demokratlashtirish aholining turmush darajasi va sifatini oshirish, hududlarni kompleks rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizni rivojlantirishning 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar

strategiyasining qabul qilinishi mamlakatimizda qonuniylik va huquq tartibotni ta'minlash, demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlarini so'zsiz ijro etish uchun prokuratura organlarining faoliyatida yangi ustuvor yo'nalishlar va vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PF-5019-sonli «Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilinishi aynan ushbu maqsadda olib borilayotgan ishlarni takomillashtirishni nazarda tutadi. Mazkur Farmon asosida prokuratura organlariga yangi vazifalar belgilab berildi.

Jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash hamda demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarishga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonunlarning so'zsiz ijro etilishi ustidan samarali nazoratni amalga oshirish orqali xalq manfaatlariga xizmat qilish prokuratura organlarining ustuvor vazifasi etib belgilandi. Birinchidan, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini so'zsiz bajarishni, amalga oshirilayotgan islohotlarga to'siq bo'luvchi omillar va tizimli kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etishni; tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni; aholi bilan to'g'ridan to'g'ri ochiq muloqot o'rnatishni, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida hal qilishni, aholining huquqiy madaniyatini oshirishni, jamiyatda qonun buzilishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishni; profilaktika tadbirlarining, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi tadbirlarning ta'sirchanligini, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etishni; kam ta'minlangan oilalarni manzilli ijtimoiy himoya qilishni, yangi ish o'rinlari yaratish dasturlarini amalga oshirishni, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni o'z vaqtida to'lashni; malakali tibbiy

yordam ko'rsatishni, aholiga arzon dori vositalari yetkazishni, ta'lim jarayonining sifati va ta'lim muassasalarida o'quvchilar davomatini hamda ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishni; fuqarolarga arzon uy-joy ajratishni, uy-joy sotib olish uchun birinchi navbatda yosh oilalar, yetim bolalarga kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratishni, sifatli kommunal xizmat ko'rsatish va hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirishni; tabiiy resurslar, yer maydonlaridan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlashga asosiy e'tibor qaratilishi lozimligi mustahkamlab qo'yildi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlarini tushuntirib bering.

2. O'zbekiston Respublikasining birinchi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinguniga qadar qaysi qonun bo'yicha faoliyat ko'rsatilganligini asoslab bering.

3. Mustaqillik yillarida prokuratura organlarining faoliyatini yoritib bering.

4. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish davrlarida prokuraturaning rivojlanish yo'llari va organlarining ahamiyatini yoritib bering.

1-kazus

«Prokuror nazorati» moduli asosidagi seminar mashg'ulotida talaba B. «Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 28-modda birinchi qismining sakkizinchi xatboshisidagi (*dastlabki tergov muddatini uzaytiradi, ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlash yoki uy qamog'i va ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lish muddatini uzaytirish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi*) prokuror degan atama zamirida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va quyi turuvchi barcha prokurorlarni tushunish kerak degan fikrni bildirdi. Biroq guruh talabasi A. bu fikrga qo'shilmasdan, bu atama zamirida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini, viloyatlar, Toshkent shahri prokurorlarini

va ularga tenglashtirilgan prokurorlar vakolatlari tushunishini aytdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-kazus

Tuman prokuraturasi tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni ijrosi ahvoli yuzasidan tumandagi maktabgacha ta'lim muassasalarida tekshiruv o'tkazildi.

Tekshiruv davomida tarbiyachi sifatida pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar faoliyat yuritayotganligi, shuningdek xodimlarga ish haqini vaqtida to'lamaslik kabi holatlar aniqlangan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

II bob. PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI. PROKURATURA ORGANLARINI TASHKIL ETISH, PROKURATURA XODIMLARIGA QO'YILGAN TALABLAR VA FAOLIYATINING ASOSIY PRINSIPLARI

1-§. Prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining (yangi tahriri) esa prokuratura organlarining davlat organlari tizimidagi tutgan o'rni va roli, prokuror nazorati xususiyati, prokuratura organlari funksiyalarining aniq belgilanishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'z ichiga qamrab oldi.

Islom tarixi guvohlik berishicha, VII asrdayoq inson huquqlarini himoyalashga asoslangan tizim vujudga kelgan. Xalifa Umar (r.a.) tomonidan shikoyatlarni ko'rib chiqish va nizolarni hal qilish uchun muhtasib mansabining tashkil etilishi fikrimiz dalilidir¹.

«Muhtasib» so'zi arab tilidagi asli «hasaba» fe'li o'zagi-dan yasalgan. Uning ism shakli «hisba» – hisob-kitob, ajr, evaz, mukofot, o'lchov va og'irlik o'lchovlarini nazorat qiluvchi mansab ma'nosini anglatadi. Muhtasibning harakat nomi shakli «ihtisob» so'zi hisob, hisoblash, mamnunlik, itoatkorlik ma'nolarini bildirsa, Muhtasib o'lcham va og'irlik o'lchovlarini nazorat qiluvchi mansabdor, inspektor ma'nosida foydalaniladi².

G'azzoliy o'zining «Ihyo ulum ad-din» asarida hisba tizimining to'rtta asosiy elementlarini keltirgan.

- I. Muhtasib tavsifi.
- II. Hisba jarayoni tartibi.
- III. Muhtasib vakolatlari.
- IV. Hisba jazo chorasi bosqichlari.

¹ Din Gotter. Ombudsman hamda demokratlashtirish va inson huquqlari, 1999, № 1. – B. 27–28-b.

² Lison al-Arab, 3-kitob. – Bayrut, 1997. – B. 164.

Bizning fikrimizcha, muhtasib, shuningdek to'rt mazhab bo'yicha taqiqlangan ishlarni, narsalarni bilishi va o'z mustaqil fikrini shariatga zid bo'lmagan holda bayon eta olishi kerak bo'lgan.

Ibn Taymiya fikricha, muhtasib bajaradigan vazifalar uchun shariatda muayyan cheklashlar belgilangan emas, balki hayot sharoiti bir shahardan boshqa bir shaharga nisbatan farqli bo'lganligi uchun u bajaradigan vazifalar urf-odat asosida belgilangan¹.

Muhtasib o'z vazifasini bajarmasa gunohkor bo'ladi. Takrorlangan holatda shikoyatga e'tibor bermasa, o'z vakolatini qo'ldan berib muruvvat va odilligi yo'qoladi va e'tiborsiz bo'lib qolgani uchun qonunan muhtasib hisoblanmaydi². Bizning fikrimizcha, ushbu qoida O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni talablariga mosdir.

Movardiyning kitobida keltirilishicha, muhtasibning ishdan bo'shatilishiga, shuningdek, xizmat vazifasiga xiyonat qilishi, ishni adolatsizlik bilan bajarganligi, insonlar o'rtasida muhtasiblik mavqeyini yo'qotishi, hisba vazifasini bajarishga ma'nan va jismonan ojiz bo'lib qolishi yoki boshqa qobiliyatliroq muhtasibning paydo bo'lishi sabab bo'lishi mumkin³. Bizning fikrimizcha, ushbu asoslar O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari xodimlarini ishdan bo'shatishning qonuniy asoslariga to'g'ri keladi.

Bu borada olimlar o'rtasida turli xil qarashlar mavjud bo'lib, ular prokuratura organlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari, ular faoliyatining samaradorligini ta'minlash maqsadida hamda ular faoliyatining u yoki bu sohadagi qonunlarini aniq va bir xilda ijro etilishi yuzasidan kelib chiqqan deb ta'kidlashadi. Bu yuzasidan Chuvelev, Suxareva, Baskovlar fikr bildirib o'tgan. Bizning fikrimizcha, ularning fikrlari majmuasi prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyatining prinsiplari tushunchasini kengroq yoritib beradi.

¹ Ibn Taymiya. Al-Xisbatu fil islam. – Qohira, 1935. – B. 18.

² O'sha manba. – B. 50.

³ Al-Movardiy. Al-ahkom as-sultoniya. – B. 120–129.

2-§. Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari

Prinsip – lotincha «principium» soʻzidan olingan boʻlib, yaʼni qoida, asos, asosiy, rahbariy qoidalar, yoʻl-yoʻriqlar degan maʼnoni bildiradi.

Prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyatini tizimlashtirish elementi boʻlib, ularning maqomi hisoblanadi.

Prinsiplar sifatida prokuratura mohiyati va maqsadini belgilovchi boshlangʻich asos nazarda tutiladi.

Bu asosiy tamoyillar Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Prokuratura toʻgʻrisida»gi qonunlarda aks ettirilgan (Konstitutsiyaning 118, 121-moddalari, «Prokuratura toʻgʻrisida»gi Qonunning 5-moddasi).

“Prokuratura toʻgʻrisida”gi Qonunning 5-moddasida Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari koʻrsatib oʻtilgan boʻlib, bular quyidagilardan iboratdir:

Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir.

Prokuratura organlari Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etadi hamda quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga boʻysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat koʻrsatadi.

Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga koʻrsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan protsessual qarorini oʻzgartirish yoki bekor qilishga haqlidir, shuningdek u oʻz boʻysunuvidagi barcha prokurorlarning ishlari toʻgʻri tashkil etilishi uchun toʻliq javobgardir.

Prokuratura organlarining xodimlari oʻz faoliyatlarida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonunlarning talablariga aniq rioya etishlari va ularni bajarishlari shart. Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chekinish, qanday asoslarga koʻra qilinishidan qatʼi nazar, qonuniylikni buz-

ish deb hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshiradilar. Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish taqiqlanadi.

Prokurorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin, biron-bir ta'sir ko'rsatish yoki faoliyatini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish, uning daxlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek prokuror yoki tergovchining ruxsatisiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor etish, prokurorning talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Prokuratura organlarining xodimlari o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari:

har yili tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari kengashlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi;

zarur bo'lgan hollarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qonuniylikning va jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida xabardor qiladi.

Prokuratura organlari qonunlarning ijro etilishini nazorat qilishga va jinoyatchilikka qarshi kurashga doir faoliyati to'g'risida jamoatchilikni muntazam xabardor qilish, o'z faoliyati to'g'risidagi axborotdan jismoniy va yuridik shaxslarning foydalanishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ta'minlash yo'li bilan o'z faoliyatini oshkora amalga oshiradi.

Bulardan tashqari, prokuratura organlarining ichki tashkiliy prinsiplari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

– **hududiylik;**

– **predmetlilik.**

Prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyati prinsiplari bu Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan asosiy talablar bo'lib, ular prokuraturaning va xodimlarining siyosiy va

ijtimoiy vazifasini, vakolatlarini hamda davlatda qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish usul va vositalarini, ularning hajmi va xarakterini hamda prokuratura organlarining boshqa davlat organlari, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlardan farq qiluvchi belgi va xususiyatlarini aniqlaydi.

Shu prinsiplarga amal qilish prokuratura organlariga o'zining vazifasini aniq bajarishga imkon beradi.

Prinsiplarni prokurorlik funksiyalari va yo'nalishlarini amalga oshirishning tartibi va holati bilan almashtirmaslik kerak, chunki tamoyillar o'zaro bog'liq va ajralmas hisoblanadi. Bundan tashqari, prokuror muayyan huquq sohasida nazoratni amalga oshirar ekan, shu sohadagi prinsiplarga amal qilishi lozim. Bunga misol: sudlarda davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaganda adolatlilik, sudyalarning mustaqilligi, tenglik, sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqi, aybsizlik prezumpsiyasi, oshkoralik, erkin fikr, protsessning bevositaligi kabi prinsiplarga amal qilinishi lozim.

Birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralik prinsiplari.

Prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- birlik;
- markazlashganlik;
- qonuniylik;
- mustaqillik;
- oshkoralik¹.

Bundan tashqari, Chuvilev va Baskovlar quyidagi asosiy prinsiplarni qo'shadilar:

- siyosiy mustaqillik
- qonunlarning buzilishini aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish;
- prokuratura organlarining jamoat birlashmalari va mehnat jamoalari bilan o'zaro faoliyat olib borishi;

¹ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi 257-II-sonli Qonuni, 5-modda // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9–10-son, 168-modda.

Birlik prinsipi – prokuratura tizimiga kiruvchi barcha organlar faoliyati yagona shakl, maqsad va umumiy vazifalardan kelib chiqqan holda aks ettirilishi hamda aniqlangan qonunbuzilish holatlariga nisbatan bir xilda prokuror ta'sir choralarini, prokuror nazorati hujjatlarini qo'llashda ifodalanishi bilan ajralib turadi.

Markazlashganlik prinsipi birinchi o'rinda prokuratura organlari tizimi faoliyatini tashkil etish, prokuratura organlarining nazorat funksiyasini amalga oshirishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Markazlashganlik bu quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlarga bo'ysunishi hamda Bosh prokurorga bo'ysunishidir. Shaharlar, tumanlar va ixtisoslashtirilgan prokuraturaning prokurorlari Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi. Lavozimga belgilash tartibiga qaramasdan barcha prokurorlar Bosh prokuror tomonidan lavozimidan chetlashtiriladi, ular unga bo'ysunadilar va hisobot beradilar. Yuqori turuvchi prokurorlar quyi turuvchi prokurorlar faoliyatini boshqaradilar va nazorat qiladilar.

Mustaqillik prinsipi bu prokurorlar tomonidan o'zlarining barcha funksional qaror va harakatlarini qonunga asosan olib borishlaridir (nazoratni amalga oshirish, tergov olib borish va b.). Bunda ular tekshiruv va tergov materiallari hamda ularni olib borishning to'liqligi, obyektivligi va har tomonlamaligini ta'minlovchi sifatida namoyon bo'ladi.

Mustaqillik prinsipi siyosiy mustaqillikni ham nazarda tutadi. Prokuratura xodimlari siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi jamoat birlashmalari a'zosi bo'la olmaydilar va faoliyat yurita olmaydilar. Bundan tashqari, prokuratura organlarida siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi jamoat birlashmalarini tuzish ham taqiqlanadi.

Oshkoralik prinsipi bu prokuratura organlari faoliyatining oshkoraligi, uning fuqarolar, ommaviy axborot vositalari uchun o'z faoliyatini ochiq amalga oshirishidir.

Bu prinsiplarning amalga oshirilishi jarayonida jamiyat prokuratura organlari faoliyatini nazorat qiladi.

Qonuniylik prinsipi bu huquq subyektlari faoliyati uchun umumhuquqiy boshlang'ich asos hisoblanadi. Bu prinsipga amal qilish huquqiy davlat qurilishining asosiy sharti hisoblanadi. Prokuratura organlarining xodimlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonunlarning talablariga aniq rioya etishlari va ularni bajarishlari shart. Prokuratura organlarida bu asosiy tamoyil hisoblanadi, chunki uning faoliyati qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan. Bu uning asosiy maqsadi, ya'ni qonuniylikning ustuvorligi, bir xil va aniq ijro qilinishini anglatadi.

Qonuniylik prinsipi o'zining ichiga quyidagi qator imkoniyatlarni oladi:

- mamlakatda rivojlangan qonunchilik tizimining bosh-qariladigan huquqiy munosabatlarga mos bo'lishini;
- tegishli qonunlarga rioya etishni ta'minlovchi davlat-huquqiy infratuzilmalar;
- fuqarolar va mansabdor shaxslarning amaldagi qonunlardan xabardor bo'lishi;
- huquqbuzarlik, ularning vujudga kelish sabab va sharoitlarini o'z vaqtida bartaraf etish.

Ichki tashkiliy prinsiplar sifatida prokuratura organlarida hududiylik va predmetlilik prinsiplari qo'llaniladi.

Prokuratura organlarida mujburiyatlarning taqsimlanishi **hududiylik va predmetlilik prinsipiga** asosan amalga oshiriladi.

Hududiylik prinsipi – bu shunday tashkiliy tartibni bildiradiki, bunda barcha ishlar hajmi, hududiy birliklar o'rtasida tezkor xodimlarga bo'lib beriladi.

Ishning hajmi bo'yicha bir yoki bir nechta shahar va tumanlar prokuraturasiga taqsimlanadi.

Hududiylik prinsipiga oid hududga birlashtirilgan bo'lim prokurori, viloyat prokurorining kompetensiyasi doirasida hamda belgilangan nazorat doirasiga muvofiq qoidalarning, bosh prokuror buyruq va yo'riqnomalarining ijrosini nazorat qiladi. Bu maqsadda u hudud qonunchiligini, hudud statistikasi, ish rejaları,

hisobotlar, umumlashmalar va boshqalar bilan tanishib chiqadi. Tahlil asosida u tegishli shahar va tuman prokuraturalariga kamchiliklarni va ishlarni yaxshilash yuzasidan topshiriqlar yuboradi. Prokurorlar faoliyatida ishtirok etadi, amaliy yordam ko'rsatadi, uning topshiriqlarini bajarishni nazorat qiladi, prokurorlar malakasini oshirish ishlarida qatnashadi, ularga individual topshiriqlar beradi. Bu prokuratura boshqa hududiy prokuraturalar bilan doimiy aloqa qilib boradi.

Predmetlilik prinsipi bu prokurorlik nazorati predmeti tushunchasidan kelib chiqib bunda prokurorlar o'rtasidagi majburiyatlarni bo'lishda: huquqiy tartibga solish doirasi, ya'ni prokuror tomonidan ma'lum bir toifadagi qoidalar va normativ aktlarning nazorat qilishiga qarab ixtisoslar bo'yicha taqsimlanishi tushuniladi.

Bu prinsipning maqsadi barcha tuzilmalarni prokuratura oldida turgan muhim vazifalarni amalga oshirishga qaratishdir. Belgilangan majburiyatlar taqsimotiga muvofiq bo'lim prokurori uning predmetiga tegishli statistik va boshqa ma'lumotlarni umumlashtiradi; tegishli materiallarni tahlil qiladi (dokladlar, taqdimnoma, protestlar, umumlashmalar, uslubiy holatlar, hay'at qarorlari va boshqalar); normativ aktlarning kamchiligi bo'yicha topshiriqlar tayyorlashda ishtirok etadi; hay'atda va koordinatsion kengashga takliflar kiritadi. Bo'lim prokurorlari prokurorlik nazoratini tashkil etish va faoliyatining samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar kiritadi.

Bundan tashqari, **hududiy-predmetlilik** prinsipi mavjud. Bunda hududiy prokurorlarga ularga qonun bilan belgilangan vakolatlarini amalga oshirilishi lozim predmet ham qo'shiladi. Bu hozirda muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni asoslashga qaratilgan qonunlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan ixtisoslashgan prokuraturalar vujudga kelishiga olib keladi. Qoida bo'yicha, amalga oshirish predmeti belgilaydigan qator masalalar vujudga keldi: bu qonunchilikning ahvoli to'g'risida kompleks analiz o'tkazish, jinoyatlarni tergov qilishni umumlashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ishni rejalashtirish, quyi turuvchi organlarga

topshiriqlar yuborish, ularning ijrosi ustidan nazorat. Muayyan davr mobaynida ishni umumlashtirish tegishli hududda ixtisos bo'yicha ishning kelgusida samarali olib borilishini ta'minlaydi. Bunday holat bo'lim boshlig'ining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Buyruqda belgilangan hudud va predmetlardan tashqari, belgilangan doiradagi obyektlar (viloyat, tuman, shahar), ya'ni konkret organlar ko'rsatilishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, ham ushbu prinsiplar prokuratura organlari faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashhur fransuz huquqshunosi *Rene David* prokuratura roman-german huquq tizimida paydo bo'lganligiga urg'u bergan. Shuning uchun ham milliy prokuratura Yevropada birinchi bo'lib Fransiyada vujudga kelgan. Fransiyadagi prokuratura tizimidan dunyodagi aksariyat davlatlar andoza olishgan. Shu tariqa boshqa davlatlarda prokuratura asta-sekin shakllandi¹.

Professor B.X. Po'latovning ta'kidlashicha, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshira turib, respublikadagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyatlarga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarning ro'yxatga olinishi, qonunda belgilangan dastlabki tekshirish muddatlari va tartib qoidalariga rioya qilinishi, jinoyatlarga oid ma'lumotlarni ko'rib chiqish natijasida qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi ustidan nazorat qiladi².

3-§. Prokuratura organlaridagi lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar

Prokuratura organlari xodimlarining kasbiy madaniyatini yuksaltirish borasida, avvalambor, xodim yuksak ma'anaviyat sohibi bo'lishi, uning yuqori darajada tarbiyalanganligi, aytgan

¹ Матушевский Р.Г., Пятаков В.А. Прокуратура и прокурорский надзор. – М.: Приор-издат, 2005. – С. 2.

² Po'latov B.X. Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan prokuror nazorati (O'quv qo'llanma). – Toshkent: Huquq va burch, 2007. – B. 22.

so'zining ustidan chiqishi, fidoyiligi, qo'l urgan ishini o'z vaqtida, puxta va tezkorlik bilan bajarish qobiliyatlariga, sodir etilgan voqeani aniq tahlil etish va to'g'ri qaror qabul qilish, vazminlik, mardonavorlik, turli xavf-xatarlardan, haqoratlardan esankirab qolmaslik sifatlariga, shaxsiy xulq-atvori, obro'-e'tiborlari bilan qarindosh-urug'lari, farzandlari hamda mahalladoshlariga o'rnak bo'lishiga intilish kabi fazilatlariga ega ekanligi bilan belgilanadi¹.

Prokuratura organlari, shu jumladan iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning to'liq bajarilishini ta'minlash uchun, avvalo, kadrlarni to'g'ri tanlash, tayinlash, tarbiyalash, ularning kasb mahorati va malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy e'tibor xodimlarning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini tubdan o'zgartirish, shaxsiy javobgarlikni oshirish, o'z ishining ustasi bo'lib shakllanishiga erishishga qaratilmog'i lozim².

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan birinchi o'rinbosariga, o'rinbosarlariga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorini lavozimiga tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining katta yordamchilari va yordamchilari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar, bo'limlarning boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, katta prokurorlar, prokurorlar, alohida muhim ishlar bo'yicha katta

¹ Nabiyev O. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari kasbiy madaniyatini yuksaltirish masalalari // O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi, 2012-yil, 12-son. – T.: Мир полиграфии, 2012. – B. 6.

² Po'latov B.X. Prokuror nazorati. – T: O'zbekiston, 2009. – B. 81.

tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanadilar va lavozimidan ozod etiladi.

Prokuratura organlarining tizimida Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasining o'rni ham katta. "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasi Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasiga bag'ishlangan. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori rahbarlik qiladi. U O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimiga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori oldida hisobdordir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori tegishincha tuman, shahar prokuraturalarining va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi.

Boshqarmalar va bo'limlarning boshliqlari hamda ularning o'rinbosarlari, prokurorning katta yordamchilari, prokurorning ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yordamchisi, katta prokuror-kriminalist O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanadilar va lavozimidan ozod etiladilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining yordamchilari, boshqarmalar va bo'limlarning katta prokurorlari va prokurorlari, prokuror-kriminalistlar, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar,

katta tergovchilar va tergovchilar Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

«Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 16-moddasiga muvofiq viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladilar, ular O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar hamda lavozimdan ozod etiladilar. Bu prokurorlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadilar va uning oldida hisobdordirlar.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tegishincha tuman, shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasiga lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori rahbarlik qiladi¹. Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi.

Boshqarmalar va bo'limlarning boshliqlari, prokurorlarning katta yordamchilari, prokurorlarning ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yordamchilari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Boshqarmalar va bo'limlar boshliqlarining o'rinbosarlari, katta prokuror-kriminalistlar va prokuror-kriminalistlar O'zbekiston

¹ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi 257-II-sonli Qonuni, 16-modda // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 168-modda.

Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlarining va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning yordamchilari, boshqarmalar va bo'limlarning katta prokurorlari va prokurorlari, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar, katta tergovchilar va tergovchilar viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar¹.

Prokuratura tizimining eng quyi bo'g'inini tumanlar, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar tashkil etadi. Mazkur prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladi, ular O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar. Bu prokurorlar yuqori turuvchi tegishli prokurorga hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadilar va ularning oldida hisobdordirlar.

Tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan o'rinbosarlari bo'lishi mumkin.

Tumanlar, shaharlar prokurorlarining va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning katta yordamchilari, yordamchilari, prokuratura katta tergovchilari va tergovchilari, ish o'rganuvchilari tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

¹ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi 257-II-sonli Qonuni, 16-modda // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9–10-son, 168-modda.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari kotibiyatlari bilan birgalikda 30 ta tarkibiy tarmoqlar va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tarkibidagi Prokuratura organlari, shu jumladan Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi faoliyat ko'rsatadi. Barcha prokurorlarning konstitutsiyaviy vakolat muddati – 5 yil. Prokuratura organlarining xodimlari o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Prokuratura organlarida xizmatni o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan **«Prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o'tash to'g'risida»gi nizam** hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining sohaviy buyruqlari, ko'rsatmalari, nizomlar hamda boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan prokuraturalardagi boshqarma va bo'limlar faoliyati O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, viloyat va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan tasdiqlangan nizomlar asosida olib boriladi. Har bir tezkor xodimning majburiyati O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosarlari va tegishli prokurorlar tomonidan tasdiqlangan mehnat taqsimoti haqidagi maxsus hujjatlarda belgilangan. Tuman (shahar) prokuraturalarida esa xodimlar majburiyati prokurorlar tomonidan tasdiqlangan. Prokuratura faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha funksional vazifalar shu prokuraturada ishlovchi tuman prokurori va uning yordamchisi yoki xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Prokuratura organlari xodimlarini lavozimga tayinlashda qo'yiladigan talablar 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 43-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra prokuratura organlaridagi lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- oliy yuridik ma'lumotga ega;
- zarur kasbiy fazilatlar bo'lgan;

– zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog'lig'i imkon beradigan darajada salomat bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tayinlanadilar.

2016-yil 23-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq **alohida hollarda, prokuratura organlariga xizmatga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar qabul qilinishi belgilab qo'yildi.**

«Prokuratura to'g'risida»gi Qonun rahbar lavozimlarga tayinlanayotgan prokurorlar uchun yuqorida qayd etilgan talablar bilan birgalikda yosh senzini ham nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga kamida 5 yillik ish stajiga ega bo'lgan, yigirma besh yoshdan kichik bo'lmagan shaxslar tayinlanadi¹.

Prokuratura organlari xodimlari o'zlarining yuksak fuqarolik burchi bilan qorishib ketadigan yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari, qonun buzilish hollariga murosasiz, sotilmas, adolatli, vijdonli bo'lishlari lozim. Prokuratura organlari xodimlari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin emas. Aks holda ular kelgusida o'zlari tomonidan tekshirilishi mumkin bo'lgan korxonalar, muassasa, tashkilot bilan mehnat munosabatlariga kirishib qo'yib, o'zlarining mustaqilliklarini qo'ldan berib qo'yishadi. Ular ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyat bilan faqat asosiy ishdan bo'sh vaqtda shug'ullanishi mumkin xolos.

Prokuratura organlari xodimlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori belgilaydigan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladilar. Prokuror yoki tergovchi lavozimiga birinchi marta

¹ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi 257-II-sonli Qonuni, 43-modda // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9–10-son, 168-modda.

tayinlanayotgan shaxs «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunda belgilangan tartibda qasamyod qabul qiladilar (44-modda). Unda jinoyatchilikka qarshi mardonavor va murosasiz kurashni hamda o'z mazmuniga ko'ra yengil bo'lmagan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarga nisbatan talablar qo'yilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, shuningdek viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlarining hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarning faoliyati tegishli yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan ularning vakolat muddati davomida kamida ikki marta kompleks o'rganib chiqiladi. Prokurorlar faoliyatini baholashning asosiy mezonlari qonuniylikning holati va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ta'minlanishi hisoblanadi.

O'z faoliyati davrida tegishli hududda qonunlar ijrosi ustidan lozim darajada nazorat o'rnatilishini ta'minlab bera olmagan shaxslar prokuror lavozimiga takroran ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi tarkibida prokuratura organlari ichki xavfsizligini ta'minlovchi inspeksiya tuziladi (O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 46-moddasi).

Prokuratura organlari ichki xavfsizligini ta'minlovchi inspeksiya prokuratura organlari xodimlari tomonidan sodir etilgan xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish, korrupsiya va egallab turgan lavozimiga noloyiq boshqa nojo'ya xatti-harakatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha xizmat tekshiruvini o'tkazadi.

Prokuratura organlari ichki xavfsizligini ta'minlovchi inspeksiya o'z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Prokuratura xodimlariga nisbatan bunday yuqori talablarning qo'yilishi tasodifiy emas, chunki qonun prokurorlar va tergovchilarga juda ham keng hokimiyat-boshqaruv vakolatini berib qo'ygan. Bu vakolatlardan noto'g'ri foydalanish yoxud xizmat vakolatlarining suiiste'mol qilinishi juda ham og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida prokuratura organlarining huquqiy maqomini bayon eting.
2. Prokuratura organlarining asosiy vazifalari va prinsiplari hamda faoliyatning asosiy yo'nalishlarini yoritib bering.
3. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining (yangi tahriri) ga muvofiq prokuratura organlarining davlat organlari tizimida tutgan o'rni va roli, prokuror nazorati xususiyati, prokuratura organlari funksiyalarini bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yoritib bering.
4. Prokuratura organlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy manbalarni bayon eting.

1-kazus

Transport prokurorining o'rinbosari tomonidan Temiryo'l transporti yo'lovchilariga xizmat ko'rsatish bo'limida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan tekshiruv o'tkazildi.

Tekshirish davomida aniqlanishicha, oxirgi 3 oy davomida bo'limga fuqarolar tomonidan 30 ta shikoyat kelib tushgan, ularga ko'ra vagon kuzatuvchilari tomonidan yo'lovchilarga kir yotoq anjomlari beriladi, vagonlarda tozalash ishlari olib borilmaydi, vagonlar isitilmaydi, yo'lovchilarga ko'p holatlarda qo'pol muomalada bo'linadi. Shuningdek, fuqarolarning shikoyatlarini ko'rib chiqish yuzasidan bo'lim tomonidan hech qanday choralar ko'rilmagan.

Mazkur holat bo'yicha transport prokurori o'rinbosari tomonidan qanday huquqiy ta'sir choralari ko'rilishi lozim?

2-kazus

Fuqaro J. viloyat prokuraturasiga Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman bo'limi tomonidan qabul qilingan qarordan hamda xodimlarning xatti-harakatlari ustidan shikoyat

bilan murojaat qildi. Shikoyatga ko'ra, Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman bo'limi xodimlari uning nafaqasi miqdorini qayta ko'rib chiqish to'g'risida qaror qabul qilib, fuqaro J. nafaqaning miqdori qayta ko'rib chiqilishi sabablarini tushuntirishni so'rab bir necha bor murojaat qilganida, qo'pol muomalada bo'lib rad javobini berishgan.

Shikoyatni ko'rib chiqishda aniqlanishicha, J.ning nafaqasi miqdorini o'zgartirish to'g'risida qaror qonun hujjatlari talablariga muvofiq qabul qilingan. Biroq Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman bo'limi rahbari va mas'ul xodimlar fuqaroga qabul qilingan qaror mohiyati hamda uning ustidan shikoyat qilish tartibi haqida aniq tushuntirish bermagan.

Prokuror mazkur holatda qanday harakatlar va huquqiy ta'sir choralari ko'rishini lozim?

III bob. PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI

1-§. Prokuratura organlari xodimlarining daraja va harbiy unvonlari

Prokuratura organlari xodimlariga, O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasining o'quv muassasalari va ilmiy tashkilotlarining xodimlariga ularning egallab turgan lavozimlari va mehnat stajiga muvofiq darajali unvonlar yoki harbiy unvonlar beriladi¹.

Prokuratura organlarining xodimlari uchun Haqiqiy Davlat adliya maslahatchisi (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga beriladigan darajali unvon)dan tortib, 3-darajali yuristgacha darajali unvonlar belgilab qo'yilgan. Haqiqiy Davlat adliya maslahatchisi hamda 1, 2, 3-darajali davlat adliya maslahatchisi darajali unvonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan beriladi. Boshqa darajali unvonlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan beriladi. Kichik yurist darajali unvoni attestatsiyadan o'tgan va lavozimiga tasdiqlangan yosh mutaxassislariga beriladi; ish o'rganish mobaynida o'zini alohida yaxshi tomonlardan ko'rsatgan yosh mutaxassislar 3-darajali yurist unvonini olish uchun taqdim qilinishi mumkin.

Prokuratura organlarining attestatsiyadan o'tkazilmaydigan moddiy-texnika ta'minoti, moliya, ishlar boshqarmasi xodimlari va boshqalar mehnatda o'zini alohida yaxshi tomonidan ko'rsatganliklari uchun darajali unvon olish uchun taqdim qilinishlari mumkin. Prokuratura organlariga boshqa huquqni muhofaza qilish organlaridan va boshqa tashkilotlardan ishga kelganlarga ularning tayinlangan lavozimlarini, bilimlari va ish tajribalarini hisobga olgan holda darajali unvonlar beriladi.

Darajali unvonlar berilgan prokuratura xodimlari shu unvonlarida umrbod qoladilar. Darajali unvondan mahrum qilish prokuratura organlaridan nomiga dog' tushiruvchi nojo'ya

¹ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi 257-II-sonli Qonuni, 47-modda // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 168-modda.

xatti-harakatlar sodir etgan xodimlarga nisbatan qo'llanishi mumkin. Prokuratura organlari xodimi tomonidan o'z xizmat burchini qo'pol ravishda buzganligi yoxud o'zini noloyiq darajada tutganligi uchun darajali unvoni pasaytirilishi mumkin.

Prokuratura organlari va muassasalaridan xizmatdan bo'shatilayotgan xodim darajali unvonidan yoki harbiy unvonidan mahrum qilinishi mumkin. Prokuratura organlari xodimi tomonidan o'z xizmat burchini qo'pol ravishda buzganligi yoxud o'zini noloyiq darajada tutganligi uchun darajali unvoni pasaytirilishi mumkin.

Prokuratura organlari va muassasalari xodimlarini oliy darajali unvonidan yoki oliy darajali harbiy unvonidan mahrum qilish, shuningdek oliy darajali unvoni va oliy darajali harbiy unvonidan pastga tushirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan boshqa darajali unvonlar yoki harbiy unvonlardan mahrum qilish va pastga tushirish muvofiq ravishda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri tomonidan amalga oshiriladi.

Prokuratura organlari va muassasalarining darajali unvonlarga ega bo'lgan xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarayotgan vaqtlarida o'rnatilgan tartibdagi farqlantiruvchi belgili forma kiyim boshini kiyib yuradilar. Nafaqaga chiqqan oliy darajadagi unvon yoki oliy darajadagi harbiy unvonga, shuningdek adliya katta maslahatchisi yoki yustitsiya polkovnigi darajali unvoniga ega bo'lgan prokuratura organlari va muassasalarining xodimlariga o'rnatilgan tartibdagi farqlantiruvchi belgili forma kiyim boshini kiyib yurish huquqi qoldiriladi.

Prokuratura organlari xodimlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'qotar qurol hamda boshqa shaxsiy himoya vositalari olib yurish huquqiga ega.

Prokuratura organlari xodimlari:

– prokuratura organlari xodimlarining qasamyodiga so'diqligi va xizmat vazifalarini vijdonan bajarganligi;

– jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash borasidagi vazifalarini bajarishda tashabbuskorligi va qat'iyiligi;

- xizmat faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarga erishganligi va kasb mahorati darajasini samarali tarzda oshirganligi;
- xizmat vazifalarini bajarishda alohida o‘rnak ko‘rsatganligi;
- malakali kadrlarni tarbiyalash va tayyorlashga katta hissa qo‘shganligi;
- ijobiy ish tajribasi keng ommalashtirilganligi va prokuratura organlari faoliyatiga joriy qilinganligi;
- prokuratura va departament organlarining faoliyatini, shuningdek qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga hissa qo‘shganligi uchun mukofotlanadilar.

Ko‘krak nishoni uchta darajaga ega:

I darajali «A‘lo xizmatlari uchun»;

II darajali «A‘lo xizmatlari uchun»;

III darajali «A‘lo xizmatlari uchun».

Ko‘krak nishonining oliy darajasi I-daraja hisoblanadi. Mukofotlash III daraja, II daraja va I daraja bilan qoida tariqasida kamida uch yil oralig‘ida amalga oshiriladi. Ko‘krak nishoni bilan mukofotlash vafotidan keyin ham amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

I, II yoki III darajali «A‘lo xizmatlari uchun» ko‘krak nishoni O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning nomidan o‘rinbosarlari, departament boshlig‘i, viloyat prokurorlari, departamentning hududiy boshqarma boshliqlari, shuningdek bunga vakil qilingan boshqa rahbarlar tomonidan tantanali ravishda topshiriladi. I, II yoki III darajali «A‘lo xizmatlari uchun» ko‘krak nishoniga sazovor bo‘lgan shaxsga ko‘krak nishoni guvohnomasi ham birga beriladi. «A‘lo xizmatlari uchun» ko‘krak nishoni ko‘krakning o‘ng tomoniga taqiladi. Xodim vafotidan keyin mukofotlangan taqdirda ko‘krak nishoni va guvohnoma uning oila a‘zolariga topshiriladi. Ko‘krak nishonidan mahrum qilish Bosh prokurorning o‘rinbosarlari, Bosh prokuraturaning boshqarma va bo‘lim boshliqlari, prokuratura organlarining ilmiy muassasalari va o‘quv yurti rahbarlari, departament boshlig‘i va viloyat prokurorlarining taqdimnomasiga asosan Bosh prokurorning buyrug‘i bilan prokuratura va departament organlarining xodimi degan nomga dog‘ tushiruvchi nojo‘ya

xatti-harakat sodir etilgan taqdirda amalga oshiriladi. Bunday holatda ko'krak nishoni va guvohnoma olib qo'yiladi.

Ushbu Bosh prokurorning buyrug'ida ko'krak nishonlari bilan taqdirlash tartibi ham belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra I, II yoki III darajali «A'lo xizmatlari uchun» ko'krak nishoni bilan mukofotlashga taqdim etilgan xodimga xizmatdagi yutuqlari va faoliyat ko'rsatkichlari yoritilgan mukofot varaqasi tuziladi. Bosh prokurorning o'rinbosarlari, Bosh prokuraturaning boshqarma va bo'lim boshliqlari, prokuratura organlarining ilmiy muassasalari va o'quv yurtlari rahbarlari, departament boshlig'i va viloyat prokurorlari tomonidan imzolangan mukofot varaqalari Bosh prokuraturaning kadrlar boshqarmasiga yuboriladi. Taqdim qilingan mukofot varaqalariga asosan kadrlar boshqarmasi I, II yoki III darajali «A'lo xizmatlari uchun» ko'krak nishoni bilan mukofotlash to'g'risida buyruq loyihasini tayyorlaydi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosarlari, departament boshlig'i, viloyat prokurorlari, departamentning hududiy boshqarmalari boshliqlari tomonidan ko'krak nishonlari va guvohnomalarni topshirish haqidagi bayonnomalar imzolanib, ko'krak nishonlari topshirilgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida kadrlar boshqarmasiga yuboriladi. Ko'krak nishoni va guvohnoma favqulodda yoki boshqa obyektiv holatlar oqibatida yo'qotilgan taqdirda mukofotlangan xodimga Bosh prokurorning buyrug'i bilan uning dublikati berilishi mumkin. Agar ko'krak nishoni va guvohnomasi boshqa holatlarda yo'qotilganda xodimga mukofotlanganligi haqida ma'lumotnoma beriladi. Guvohnoma dublikati amaldagi blankalar namunasida «dublikat» so'zi yozilgan holda beriladi.

2-§. Prokuratura organlari xodimlarining daxlsizligi, moddiy va ijtimoiy ta'minoti

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlarining huquqiy maqomi mamlakatimiz prokuratura organlari tizimi rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Prokuratura barcha davlat organlari, korxonalar, tashkilot, muassasa va fuqarolarning qonunlarga aniq va bir xilda amal qilishini nazorat qiluvchi

davlat organlari hisoblanadi. O'zbekistonda prokuratura mustaqil tuzilma sifatida faoliyat yuritadi va konstitutsiyaviy maqomga ega. Konstitutsiyada prokuratura organlarining maqomi ularning vazifa va funksiyalari umumiy tartibda aniq belgilangan. Konstitutsiyamizning 118-moddasida prokuratura respublikamiz hududida qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi deb belgilab qo'yilgan. Ya'ni prokuraturaning bosh vazifasi butun mamlakat hududida davlat tomonidan qabul qilinadigan barcha qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining oliy yuridik ma'lumoti bor va zarur kasb-malakasiga ega hamda axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan fuqarolari prokuror bo'lishi mumkin. Prokuratura organlarida lavozimga birinchi marta tayinlangan shaxslar qasamyod qiladilar, qasamyod matni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga yoshi 25 dan kam bo'lmagan shaxslar tayinlanadi. Prokuror O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori belgilaydigan tartibda attestatsiyadan o'tadilar. Prokuror va tergovchilarga egallab turgan lavozimi va ish stajiga muvofiq darajali unvonlar beriladi. Prokurorlar va tergovchilar pullik yuridik xizmat ko'rsatishga, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga yoki daromad beradigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas, ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyat bundan mustasnodir. Faoliyatining qonuniyligi prokuror nazorati ostida bo'lgan saylov yo'li bilan tashkil etiladigan idoralarga prokurorning o'zi saylanishi mumkin emas. Prokurorlar va tergovchilar davlatning alohida himoyasida bo'lib, xizmat daxlsizligiga egadirlar. Prokuror va tergovchiga nisbatan jinoyat ishini qo'zg'atish va tergov qilish yuqori turuvchi prokuror bilan kelishilgan holda, faqat prokuratura organlarining mutlaq vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Yuqori turuvchi prokuror prokuratura xodimlariga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik va nojo'ya xatti-harakat uchun intizomiy javobgarlik choralarini qo'llashga doir masalani hal qiladi. Prokuror-tergov xodimlari

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan ro'yxati belgilanadigan o'qotar qurolini olib yurish huquqiga egadirlar. Qonunda, shuningdek prokuratura organlari xodimlarining moddiy va ijtimoiy ta'minoti ham belgilab berilgan.

Prokuratura organlari xodimlarining daxlsizligi Prokurorlarning va tergovchilarning mustaqilligini ta'minlashning muhim sharti bo'lib, ushbu xodimlar faoliyatining daxlsizligi hisoblanadi. Prokuror va tergovchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish va dastlabki tergov o'tkazish prokuratura organlarining mutlaq vakolati hisoblanadi¹.

2001-yil 29-avgustda qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 49-moddasida prokuratura organlari xodimlarining daxlsizligi belgilab qo'yilgan. Ushbu moddaga muvofiq «Prokuror va tergovchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish va dastlabki tergov o'tkazish prokuratura organlarining mutlaq vakolati hisoblanadi.

Prokuratura organlari xodimlarining ma'muriy huquqbu-zarlik va intizomiy nojo'ya xatti-harakati uchun javobgarligi masalasi yuqori turuvchi prokuror tomonidan hal etiladi» deb ko'rstaligan.

Prokuratura organlari xodimlarining moddiy va ijtimoiy ta'minoti.

«Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 50-moddasida prokuratura organlari xodimlarining moddiy va ijtimoiy ta'minoti belgilangan. Unga ko'ra, «prokuratura organlari xodimlarining ish haqi mansab maoshidan, darajali unvonlar (harbiy unvonlar), ko'p yillik xizmat uchun to'lanadigan haqlardan iborat bo'ladi. Darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan prokuratura organlarining xodimlari belgilangan me'yorlar bo'yicha bepul xizmat kiyimi bilan ta'minlanadi.

Prokuratura organlari xodimlariga **muddati o'ttiz kalendar** kunidan iborat haq to'lanadigan yillik ta'til beriladi. O'n besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan prokuratura organlari xodimlariga **besh kalendar kun**, yigirma besh yildan ortiq ish

¹ Madaliyev O., Ergashev A. «Prokuror nazorati» fanidan o'quv uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). – T.: TDYuI nashriyoti, 2010-y. – B. 241.

stajiga ega bo'lganlarga esa **o'n kalendar kun** qo'shimcha ta'til beriladi¹».

Prokuratura organlari xodimlarini hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalash bo'yicha qonun bilan tegishli choralar belgilangan. Prokuratura organlari xodimlarining hayoti va sog'lig'i davlat himoyasida bo'ladi hamda respublika byudjeti mablag'lari hisobidan davlat tomonidan majburiy tartibda sug'urtalanadi. Prokuratura organlari xodimi ishlayotgan davrida yoki prokuratura organlaridan bo'shatilganidan keyin halok bo'lsa («vafot etsa»), agar bu hol u o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan tan jarohatlari va sog'lig'ining boshqacha shikastlanishi oqibatida ro'y bergan bo'lsa, uning merosxo'rlariga O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 194-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan miqdorda to'lab boriladi.

Prokuratura organlari xodimi o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kelgusida kasbiga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mayib bo'lib qolganida yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganida uning oylik ish haki yigirma besh karrasi miqdorida to'lanadi. Prokuratura organlari xodimiga u o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kasbiga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etmaydigan va mehnat qobiliyatini doimiy yo'qotishga olib kelmaydigan tan jarohatlari yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganida uning oylik ish haqi besh karrasi miqdorida to'lanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi 257-II-sonli Qonuni, 50-modda // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9–10-son, 168-modda.

3-§. Xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlari faoliyati bo'yicha qiyosiy jadval

Xorijiy davlatlar	O'zbekiston Respublikasi	Buyuk Britaniya	Amerika Qo'shma Shtatlari	Germaniya Federativ Respublikasi
Organlarning nomlanishi.	O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari	Attorney xizmati	Amerika qo'shma shtatlari attorneylik xizmati	Germaniya prokuratura organlari (Generalbundesanwalt beim Bundesgerichtshof)
Prokuratura organlarining vazifasi.	Qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.	Buyuk Britaniya va Uelsda Bosh prokuror qirolning maslahatchisi hisoblanadi. Hamda sudda jabrlanuvchi va da'vogarning huquqlarini himoya qiladi. Jinoyat ishlarini qo'zg'atadi. Ikki huquq muassasi Generallikdan iborat.	AQSh hududida qonun ustuvorligi rioya etilishi ustidan nazorat vazifalarini bajaradi, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini nazorat qiladi.	Huquqiy maslahatlar berish, federal qonunlar ijro etilishi va boshqa ijro etuvchi idoralar tomonidan federal qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish, qonunlar talqini va federal qonunlar buzilishini himoya qilishdan iborat.
Vakolat muddati.	5 yil	doimiy	doimiy	5 yil
Prokuror nazorati hujjatlari turlari	Protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv	Protest, order va ariza	Protest, qaror, taqdimnoma, order, ariza va ogohlantiruv	Protest, qaror va ariza

Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari.	birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir.	Ishonch, Huquqiy tiniqligi, Murakkablik, Barqarorlik, Maqbullik.	Qonuniylik, adolatlilik, oshkoralik, odillik, javobgarlik muqarrarligi.	Qonuniylik javobgarlik, muqarrarligi adolatlilik.
Prokuratura organlaridagi lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar.	Prokuratura organlarida prokurorlar, tergovchilar va ish o'rganuvchilar lavozimiga oliy yuridik ma'lumotga ega, zarur kasbiy fazilatlari bo'lgan, zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog'lig'i imkon beradigan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tayinlanadi.	Universitetni tamomlagandan so'ng maxsus imtihondan o'tgan shaxslardan.	Universitetni tugatgandan so'ng 1 yil maxsus amaliyot va 2 yil amaliy shug'ullanish lozim.	To'liq muddat davomida yuridik universitetni tamomlash, 2 yil davomida o'qitish va 3 yil yuridik amaliyotga ega bo'lgan xodimlardan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyatini tizimlashtirishning asosiy elementlarini yoritib bering.
2. Qonuniylik prinsipi mazmuni va mohiyatini yoritib bering.
3. Ichki tashkiliy prinsiplar sifatida prokuratura organlarida hududiylik va predmetlilik prinsiplarini tushuntirib bering.
4. Prokuratura organlari xodimlariga qo'yilgan talablar nimalardan iborat?

1-kazus

Kasb-hunar kolleji o'quvchilari Q. va N. uch oy davomida darslarga qatnashmagan. Prokuror tekshiruvi davomida aniqlanishicha, kollejning bir nechta o'qituvchilari direktorning

ko'rsatmasiga asosan, ushbu o'quvchilarga baho qo'ygan. Shuningdek, qayd etilgan o'quvchilar uch oy davomida O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgani ma'lum bo'ldi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-kazus

Tuman prokuraturasi tergovchisi J. fuqaro A.ning sog'ligiga o'rtacha og'irlikdagi shikast yetkazganlik holati bo'yicha fuqaro B.ga nisbatan jinoyat ishini qo'zg'atdi. Jinoyat ishi bo'yicha zarur tergov harakatlarini o'tkazganidan so'ng tergovchi fuqaro B.ning harakatlarini qayta malakaladi va o'rtacha og'irlikda shikast zaruriy mudofaa holatida yetkazilgan deb topib, jinoyat ishini tugatdi. Prokuror jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishib chiqib, B.ga nisbatan jinoyat ishini tugatishda tergovchi tegishli protsessual talablarga rioya etmaganligi sababli qarorni bekor qildi.

Tergovchi va prokuror harakatlariga baho bering. Tergovchi mazkur qaroridan norozi bo'lsa, qanday harakatlar qilishi zarur?

IV bob. PROKUROR NAZORATI VA BOSHQA PROTSESSUAL HUJJATLAR

1-§. Prokuror nazorati hujjatlarining turlari

«Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-bo'limi 37-moddalarida Prokuror nazorati hujjatlarining turlari ko'rsatib o'tilgan. Bularga quyidagilar kiradi:

Protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv prokuror nazorati hujjatlaridir.

Prokuror nazorati hujjatlariga huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish, shuningdek qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish vositasi sifatida qaralmog'i lozim.

Prokuror nazorati hujjatlarini tayyorlash mobaynida ulardan har birining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini farqlab olish zarur.

Xususan, protest keltiriladi, qaror qabul qilinadi, taqdimnoma va ariza kiritiladi, ogohlantiruv e'lon qilinadi.

Tayyorlangan har bir prokuror nazoratining hujjati xususiyatiga ko'ra nomlanishi (protest, taqdimnoma va hakazo), prokuratura organlarida ish yuritish tartibiga amal qilingan holda sana qo'yilishi va raqamlanishi lozim.

Barcha prokuror nazorati hujjatlari bitta maqsadga, ya'ni:

– qonun buzilishining haqiqatan bartaraf etilishiga erishish, buzilgan huquqlarni tiklash va qonunga zid bo'lgan hujjatni bekor qilish;

– aniqlangan qonun buzilishining mazmunini tushuntirish;

– ularni bartaraf etish uslublari bo'yicha yangi tavsiflar berish;

– aybdor shaxslar doirasini aniqlash va sodir etilgan qonunbuzarlikning xavflilik darajasidan kelib chiqqan holda ularning javobgarlik (shu jumladan, moddiy) masalasini belgilash;

– profilaktik ta’sir o’tkazish va jamoatchilik fikrini shakllantirishga yo’naltirilgan bo’lishi zarur.

Har bir prokuror nazorati hujjatida buzilgan normativ-huquqiy hujjatning nomi va talablari, qonun buzilishining kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlar, shunga yo’l qo’ygan shaxslar va ularning javobgarlik masalasi aniq aks ettirilishi ushbu hujjatlarning huquqiy va mantiqiy asosini tashkil etadi.

Prokuror nazorati hujjatlari sifatli rasmiylashtirilishi hamda uning matni O‘zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonunining talablariga mos holda tayyorlangan bo’lishi talab etiladi.

Prokuror nazorati hujjatining matnida yuridik terminlar va boshqa jummlalar oddiy va tushunarli so‘zlar bilan izohlanishi kerak.

Prokuror nazorati hujjatida tilga olinishi lozim bo‘lgan obyektning qisqartirilgan nomi bo‘lgan taqdirda (masalan TIFMB – Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki) hujjatning boshida obyektning to‘liq nomi ko‘rsatilishi zarur, keyingi o‘rinlarida uning qisqartirilgan nomi yozilishi mumkin.

Prokuror nazorati hujjatida ushbu hujjat yuborilayotgan obyektning manzili aniq ko‘rsatilishi shart.

Prokuror nazorati hujjati unda ko‘rsatilgan qonun buzilishini bartaraf etish, shu jumladan qonunga zid bo‘lgan hujjatni bekor qilish, qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ygan shaxsni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalasini hal etish vakolatiga ega bo‘lgan organ yoki mansabdor shaxs muhokamasiga yuborilishi lozim.

Aniqlangan qonun buzilishini bartaraf etish, qonunga zid bo‘lgan hujjatni bekor qilish yoki huquqbuzarni javobgarlikka tortish masalasini hal qilish yuqori turuvchi prokuror nazorati ostidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar, boshqa organ yoki mansabdor shaxslar vakolatida bo‘lsa, bunday tekshirish hujjatlarining loyihasi bilan yuqori turuvchi prokurorga taalluqlilik bo‘yicha tegishli qaror qabul qilish uchun kechiktirilmay yuborilishi kerak.

2-§. Protest prokuror nazorati hujjati sifatida

Qonunga zid bo'lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi. Mansabdor shaxsning noqonuniy qaroriga nisbatan ham xuddi shunday tartibda protest keltiriladi.

Protest kelib tushgan vaqtdan boshlab o'n kunlik muddatdan kechiktirmay ko'rib chiqilishi shart. Qonunbuzarlikni darhol bartaraf etish talab qilingan alohida hollarda prokuror protestni ko'rib chiqishning qisqartirilgan muddatini belgilashga haqli. Protestni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida uch kunlik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Protest kollegial organ tomonidan ko'rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida prokurorga ma'lum qilinadi va u majlisda ishtirok etishga haqlidir.

Protest shu hujjatni qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) yoki yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan rad etilganda, shuningdek protest qonunda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqilmagan taqdirda prokuror ana shu hujjatni g'ayriqonuniy deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli. Sudga ariza protest rad etilganligi to'g'risidagi xabar olingan paytdan boshlab yoki protestni ko'rib chiqish uchun qonunda belgilangan muddat o'tganidan keyin bir oylik muddat ichida berilishi mumkin.

Prokuror tomonidan sudga ariza berilishi protest keltirilgan hujjatning amal qilishini ariza sudga ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib qo'yadi.

3-§. Qaror prokuror nazorati hujjati sifatida

Prokuror mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan sodir etilgan qonun buzilishining xususiyatiga qarab jinoyat ishi, ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi. Prokuror qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qaror chiqaradi.

Ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish haqidagi prokurorning qarori kelib tushgan kundan

boshlab o'n besh kun ichida organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi shart. Uni ko'rib chiqish natijalari haqida uch kunlik muddatda prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

4-§. Taqdimnoma prokuror nazorati hujjati sifatida

Prokuror qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnomani qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga kiritadi.

Taqdimnoma darhol ko'rib chiqilishi va ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinishi lozim.

Taqdimnoma kollegial organ tomonidan ko'rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida prokurorga ma'lum qilinadi va u majlisda ishtirok etishga haqlidir.

5-§. Ariza prokuror nazorati hujjati sifatida

Prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Prokurorning arizasi sud tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

Prokuror arizasidan davlat boji olinmaydi.

6-§. Ogohlantiruv prokuror nazorati hujjati sifatida

Prokuror fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga, huquq va erkinliklariga, jamiyat hamda davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar tayyorlanayotganligi xususida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lganda huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida mansabdor shaxslar va fuqarolarni qonunning

buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida yozma ravishda ogohlantiradi hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni tushuntiradi.

Ogohlantiruv to'g'risida prokuror yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga), shuningdek ogohlantiruv e'lon qilingan shaxsning ish, o'qish joyi bo'yicha ish beruvchiga (ma'muriyatga) yoki yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga ma'lum qilishga haqli.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Protest shaklidagi prokuror nazorati hujjatining huquqiy tabiatini ochib bering.

2. Qaror va taqdimnoma shaklidagi prokuror nazorati hujjatlarini tahlil qiling.

3. Ariza va ogohlantiruv prokuror nazorati hujjatlarining mazmuni va ahamiyatini tushuntirib bering.

4. Prokuror nazorati hujjatlariga qo'yilgan talablarni tahlil qiling.

1-kazus

Tuman prokurori qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida 2016-yilning 10-oktabr kuni maktab direktoriga taqdimnomada kiritadi hamda ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida unga yozma ravishda ma'lum qilinishini so'raydi.

Maktab direktori yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rila-yotganligi sababli, prokurorning taqdimnomasini 2016-yilning 15-oktabr kuni ko'rib chiqadi va o'sha kuni 2016-yilning 10-noyabr kuniga qadar maktabda qonun buzilishiga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini tuzadi hamda 2016-yilning 15-noyabr kuni ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida prokurorga yozma ma'lum qiladi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-kazus

Fuqaro M. tuman prokuraturasiga shikoyat bilan murojaat qilib, o'zi ishlayotgan korxonada shtatlar qisqarishi munosabati bilan noqonuniy ravishda ishdan bo'shatilganligi haqidagi buyruqni bekor qilishni so'ragan. Biroq, prokuror fuqaro bilan shaxsiy suhbat jarayonida mazkur holat bo'yicha fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilishga ko'ndirib, prokuratura jinoyatlarni tergov qilish bilan shug'ullanishini ko'rsatib o'tgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

V bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA ORGANLARI TIZIMI

1-§. Prokuratura organlari tizimi tushunchasi.

O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 2-bo'limi 10–18-moddalarida prokuratura organlari tizimi mustahkamlab qo'yilgan.

Prokuratura organlari tizimi orqali prokuratura organlaridagi boshqaruv faoliyatini olib boradi.

Prokuratura organlarida boshqaruv deyilganida yuqori turuvchi prokuror va prokuratura organlarining o'zlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni bilan berilgan vakolat va belgilangan majburiyatlaridan kelib chiqqan holda, vazifa hamda funksiyani amalga oshirishda qo'l ostidagi xodimlar faoliyatini bir tizim, tartib va qoida asosida bir maqsadga yo'naltirilgan, ko'p qirrali faoliyat jarayoni tushuniladi.

Boshqaruvning prokuratura organlari faoliyatida ahamiyati ikki tomonlamadir. Bir tomondan qonunlar ijrosi ustidan nazorat tartibida prokuror nazorati faoliyatini tashkil etish, boshqarish uchun yetarli sharoitni yaratish, dastlabki tergov va prokuratura faoliyatining asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha nazorat obyektlari tomonidan nazorat predmetini tartibga solish va boshqarish kirsas, ikkinchi tomondan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni bilan berilgan vakolat va belgilangan majburiyatlaridan kelib chiqqan holda, vazifa hamda funksiyani amalga oshirish bo'yicha tegishli uslub va usullarni ishlab chiqish, Bosh prokuror tomonidan sohaviy umummajburiy xarakterga ega bo'lgan buyruq, ko'rsatma, yo'riqnoma va nizomlarni qabul qilish kiradi.

Shuningdek, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish, tavsiya va uslubiy xarakterga ega bo'lgan qonuniylik va jinoyatchilik ahvolini yaxshilashga qaratilgan ichki sohaviy axborot xatlarini, umumlashmalarni, ijobiy amaliyot hamda

faoliyatda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va ularning oldini olish, bartaraf etish yuzasidan o'zaro aloqa xatlarini shakllantiradi va ulardan foydalanadi.

Boshqaruvning asosiy vazifasi-prokuratura organlari xodimlari faoliyatiga baho beruvchi alohida belgilarni ishlab chiqish va tahrirlash, tartibga solish, shuningdek jinoyatchilikka hamda boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash faoliyatini muvofiqlashtirgan holda olib borish hisoblanadi. Prokuror o'z vakolati doirasidagi hududda qonuniylik va jinoyatchilikning ahvoli yuzasidan javobgar hisoblanadi. Qonuniylik va jinoyatchilikning ahvoli, albatta, keng tarmoqli ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy va boshqa xarakterdagi omillarning o'zaro bog'liqligi natijasidir. Har qanday qonunbuzilishi holatiga nisbatan prokuror tomonidan tegishli prokurorlik ta'sir chorasini qo'llash, huquqbuzarlikning oldini olish yuzasidan zarur bo'lgan prokuror nazorati hujjatlarining samarali tarzda qo'llashni tashkillashtirish ham boshqaruvning asosiy vazifalaridandir.

Prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi;
viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;
tumanlar va shaharlar prokuraturalari;

viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi;

tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Majburiy ijro byurosi hamda Agrosanoat majmuyi va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, shuningdek ularning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi.

Prokurorlarning vakolat muddati

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, shuningdek viloyatlar,

Toshkent shahar, tumanlar va shahar prokurorlarining hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarning vakolat muddati besh yil.

2-§. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan birinchi o'rinbosariga, o'rinbosarlariga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorini lavozimiga tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining katta yordamchilari va yordamchilari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar, bo'limlarning boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, katta prokurorlar, prokurorlar, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori prokuratura organlariga rahbarlik qiladi va ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkin;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining majlislarida ishtirok etishi, uning ko'rib chiqishi uchun masalalar kiritishi va ko'rilayotgan masala yuzasidan fikr bildirishi mumkin;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi majlislarida ishtirok etadi, muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi, qonun hujjatlarini qo'llash bilan bog'liq masalalar bo'yicha Plenum tushuntirishlar berishi xususida takliflar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hay'atining tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritadi;

prokuratura organlari xodimlariga darajali unvonlar beradi va oliy darajali unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnoma bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etadi;

prokuratura organlari xodimlarini O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga taqdim etadi;

prokuratura organlari xodimlarini «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi» ko'krak nishoni bilan taqdirlaydi;

buyruqlar chiqaradi hamda prokuratura organlarining tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

chet el davlatlarining tegishli organlari bilan hamkorlik to'g'risida bitimlar tuzadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari (individual xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinadi.

3-§. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligi

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oldida hisobdordir.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga:

qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida – muntazam ravishda;

o'ta og'ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to'g'risida – zudlik bilan;

prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to'g'risida – har olti oyda axborot taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarini ijro etish maqsadida o'tkazilgan tekshiruvlar davomida davlat boshqaruvi organlari va hokimlarning qonun hujjatlari normalariga nomuvofiq bo'lgan hujjatlari aniqlangan taqdirda, Bosh prokuror bu hujjatlarni to'xtatib turish yoki bekor qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritadi.

Davlat boshqaruvi organlari va hokimlarning hujjatlari fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini jiddiy ravishda kamsitayotgan bo'lsa, Bosh prokuror bu hujjatlarni to'xtatib turish yoxud bekor qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga o'z faoliyati haqida muntazam ravishda hisobot beradi.

4-§. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori rahbarlik qiladi, u O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimiga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori oldida hisobdordir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori tegishincha tuman, shahar prokuraturalarining va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi.

Boshqarmalar va bo'limlarning boshliqlari hamda ularning o'rinbosarlari, prokurorning katta yordamchilari, prokurorning ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yordamchisi, katta prokuror-kriminalist O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining yordamchilari, boshqarmalar va bo'limlarning katta prokurorlari va prokurorlari, prokuror-kriminalistlar, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar, katta tergovchilar va tergovchilar Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

5-§. Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar

Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladilar, ular O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar hamda lavozimdan ozod etiladilar. Bu prokurorlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadilar va uning oldida hisobdordirlar.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tegishincha tuman, shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O'zbekiston Respublikasi Bosh

prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori rahbarlik qiladi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi.

Boshqarmalar va bo'limlarning boshliqlari, prokurorlarning katta yordamchilari, prokurorlarning ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yordamchilari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Boshqarmalar va bo'limlar boshliqlarining o'rinbosarlari, katta prokuror-kriminalistlar va prokuror-kriminalistlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlarining va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning yordamchilari, boshqarmalar va bo'limlarning katta prokurorlari va prokurorlari, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar, katta tergovchilar va tergovchilar viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

6-§. Tuman, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar

Tumanlar, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladi, ular O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar. Bu prokurorlar yuqori turuvchi tegishli prokurorga hamda O'zbekiston

Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadilar va ularning oldida hisobdordirlar.

Tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan o'rinbosarlari bo'lishi mumkin.

Tumanlar, shaharlar prokurorlarining va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning katta yordamchilari, yordamchilari, prokuratura katta tergovchilari va tergovchilari, ish o'rganuvchilari tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

7-§. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tuziladi. Departamentga maqomi, mehnatga haq to'lash shartlari, tibbiy va transport xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosariga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Departament boshlig'i rahbarlik qiladi.

Departament boshlig'ining o'rinbosarlari Departament boshlig'ining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Departamentning markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari va hududiy boshqarmalari boshliqlari Departament boshlig'ining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh

prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Departament va uning joylardagi bo'linmalarini tashkil etish hamda ularning faoliyati tartibi qonun hujjatlarida belgilangan.

8-§. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda uning hududiy bo'linmalari

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Majburiy ijro byurosi tashkil etiladi. Byuroning maqomi, mehnatga haq to'lash, tibbiy va transport ta'minoti shart-sharoitlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosariga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan hamda lavozimidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ozod etiladigan direktor boshqaradi.

Byuro direktori lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat ijrochisi hisoblanadi.

Byuro direktorining o'rinbosarlari Byuro direktorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Byuro hududiy boshqarmalarining boshliqlari Byuro direktorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Byuroning tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari Byuro direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Byuro va uning hududiy bo'linmalarining tashkil etilishi va faoliyati tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

9-§. Prokuratura organlarining hay'atlari

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori (rais), uning birinchi o'rinbosari,

o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda prokuror (rais), uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari va prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning tarkibi tegishli prokurorning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda tuziladigan hay'atlar maslahat organlari bo'lib, ular qonuniylik va jinoyatchilikning holatiga, prokuratura organlarining faoliyatiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyruqlari va ko'rsatmalarining ijrosiga, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishga doir va boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, prokurorlarning, prokuratura organlari tuzilmaviy bo'linmalari rahbarlarining va boshqa xodimlarining hisobotlarini eshitadi.

Hay'at qarorlari asosida tegishli prokurorlar buyruqlar chiqarishi mumkin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Prokuratura organlarining tizimini yoritib bering.
2. Prokurorlarning vakolat muddatlarini tushuntirib bering.
3. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining vakolatlarini yoritib bering.
4. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligini yoritib bering.

1-kazus

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan fuqaro A., uning mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi bo'lgani sababli tuman

hokimiyatiga fuqaroni uy-joy bilan ta'minlash majburiyati yuzasidan qaror chiqarildi. Hokim bo'sh uy-joy yo'qligi sababli sud qarorini bajarishdan bosh tortdi,

K.ning tuman prokuraturasiga murojaati bo'yicha hokimning harakatida jinoyat tarkibi mavjud emasligi haqida javob berildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-kazus

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 41-moddasiga ko'ra «Prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega». O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 26-moddasiga ko'ra «Fuqaroning sud tartibida himoya qilinadigan huquq va erkinliklari buzilsa, lekin fuqaro sog'lig'iga, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquq va erkinliklarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, da'voni prokuror taqdim etadi va sudda quvvatlaydi» deb ko'rsatilgan.

Savol: Ushbu moddalar o'rtasidagi qarama-qarshilikni hamda prokurorning sudga ariza va da'vo taqdim etish huquqini tahlil eting.

VI bob. QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI

1-§. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tushunchasi, uning mazmuni, predmeti va vazifalari

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati soha nazoratining mustaqil tarmog'i, shuningdek o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, boshqa davlat idoralarida uchramaydi.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati mazmunan qabul qilingan qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash bilan bir qatorda, amaldagi me'yorlarni xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga muvofiqligi masalasini ham qamrab oladi. Bunda mazkur normalarni O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinganligi muhim ahamiyatga ega.

Prokuror nazoratini amalga oshirishda ish yuritishning amaldagi tartibini ijtimoy munosabatni tartibga soluvchi qonun hujjatlariga muvofiqligi ham e'tiborga olinishi zarur. Zero, so'nggi yillarda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari barcha ijtimoiy sohalarda faoliyatni tashkil etish tartibiga muayyan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini nazarda tutmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining, harbiy qismlar, harbiy tuzilmalar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi prokuratura organlarining nazorat predmeti hisoblanadi¹.

Umumiy nazoratning mohiyati va maqsadi, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari va sohasida qonunlarning aniq va

¹ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi 257-II-sonli Qonuni, 4-modda // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9–10-son, 168-modda.

bir xilda ijro etilishining ustidan prokuratura organlarining nazorati tashkil etadi. Bu sohada ko'pincha mahalliychilik, qonun buzilishlarini bartaraf etishda prokuratura organlariga qarshilik ko'rsatish, ularning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yiladi. Davlat boshqaruvining aynan shu sohasida qonunlarni haqiqatdan aniq va bir xilda tushunish bilan birga ijro etilishini ham ta'minlash kerak. Qonun chiqaruvchining ko'rsatmalari hayotga qat'iylik bilan tatbiq qilinishi kerak va bunda hech qanday mahalliy va idoraviy ta'sirlarga yo'l qo'yilmasligi zarur.

Prokuratura organlari davlat boshqaruvi sohasida qonunlar ijrosi ustidan nazoratini amalga oshira borib, jamiyat va davlat oldida turgan fuqarolar ehtiyojlarini qondirish, ularning moddiy ta'minotini yaxshilash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash kabi vazifalarning bajarilishiga sharoit yaratadilar. Boshqacha qilib aytganda, prokuror umumiy nazorat sohasida o'z vakolatlarini amalga oshira borib, boshqa organ va tashkilotlar bilan birgalikda siyosiy, davlat, iqtisodiy, ijtimoiy, milliy va madaniy qurilish masalalarini hal qiladilar.

Umumiy nazorat butun davlat hududida qonunlarning bir xil va aniq bajarilishini ta'minlash, qonuniylikning bir xil tushunilishini ta'minlash bilan birga jinoiy hodisalar va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish vazifalarini ham bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 20-moddasiga binoan, «vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi.

Qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek qonuniylik prokuror tomonidan choralar ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Ma'lumki, prokurorlik nazorati predmetiga Prezident farmonlari va hukumat qarorlari kirmaydi. Ammo prokuror ular Konstitutsiya va qonunlarga zid deb hisoblasa, o'z fikrini ifodalagan ma'lumotni konstitutsiyaviy sudga yuborishi mumkin.

Prokurorlar umumiy nazoratni amalga oshirishda o'z vakolatlaridan foydalanish bo'yicha chegarani to'g'ri belgilashlari kerak Chunki bunda, bir tomondan aniqlangan qonunbuzarlik hollari ta'sir choralarini ko'rmasdan qolmasligi kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan korxonalarining operativ xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashmaslik, idoraviy boshqaruv va tekshiruv organlarining vazifalarini bajarmaslik lozim. Umumiy nazoratning chegarasini belgilashda quyidagi qoida mezon bo'lishi mumkin: qayerda qonun harakat qilsa, o'sha yerda umumiy nazorat ishga tushadi.

Prokurorlar o'zlariga yuklatilgan umumiy nazorat funksiyalarini muvaffaqiyatli ado etishlari uchun ularga zarur vakolatlar berilgan.

Prokurorga u noqonuniy yoki asossiz deb hisoblagan qarorlarni bekor qilish yoki o'zgartirish huquqi berilmagan.

Prokurorga berilgan vakolatlar unga qonun buzilishini yoki qonundan chetga chiqishni o'z vaqtida aniqlash, huquqbuzarliklarni qonun bilan belgilangan javobgarlikka tortish va ushbu qonunbuzarlik hollariga imkon yaratgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish uchun choralar ko'rishga imkon beradi.

Ushbu mavzuni yoritish uchun qonunlar ijrosi yuzasidan tekshirishlar o'tkazish tartibi, tekshirish natijalarini rasmiylashtirish va prokuror nazorati hujjatlarini tayyorlash masalalariga ham oydinlik kiritilib ketilishi zarur deb hisoblaymiz.

Prokuratura organlari tomonidan qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek qonuniylik ahvoli prokuror tomonidan choralar ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Shuningdek, qonunlar ijrosi yuzasidan tekshirishlar o'tkazishga ish rejaları, Hay'at majlisi, muvofiqlashtiruvchi va idoralararo kengashlar qarorlari, Bosh prokuratura rahbariyati

tomonidan ijrosi talab qilingan hujjatlar va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlar asos bo'ladi.

Qonunlar ijrosi yuzasidan tekshirishlar asosan tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda o'tkaziladi. Tekshirishning yo'nalishidan qat'i nazar, bu obyektida qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslar murojaatlarining hal qilinishi hamda huquqiy xizmat ishining samaradorligini o'rganishga kompleks yondashish talab qilinadi.

Tekshirishlar nazorat qiluvchi rahbar tomonidan tasdiqlangan reja asosida o'tkazilib, belgilangan muddatda yakunlanishi, tekshirishga mas'ul bo'lgan xodim shu vaqt mobaynida mutasaddi mansabdor shaxslardan qonun buzilishiga sabab bo'lgan holatlar bo'yicha batafsil tushuntirishlar olib, barcha hujjatlarni jamlab, natijasi haqida nazorat qiluvchi rahbarga ma'lum qilishi va prokuror nazorati hujjatlari loyihalarini tayyorlashi lozim.

Tekshirishga bir nechta xodim ijrochi sifatida jalb etilganda ro'yxatda birinchi ko'rsatilgan shaxs ijro uchun asosiy mas'ul hisoblanadi.

Tekshirishda ishtirok etgan xodimlar tekshirilgan obyekt muqaddam nazorat idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshirish natijalariga huquqiy baho berishlari va natijasi bo'yicha tavsiya kiritishlari zarur.

Tekshirish natijalari bo'yicha hajmi 15 varaqdan kam bo'lmagan umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotnoma tuziladi va tekshirishga mas'ul bo'lgan prokuratura xodimi, jalb qilingan tegishli mutaxassislar tekshirilgan obyektning mansabdor yoki molga javobgar shaxslari tomonidan imzolanadi.

Ma'lumotnomaga ilova qilinayotgan boshqa hujjatlar tuzgan, shuningdek tekshirilgan obyektning mansabdor yoki molga javobgar shaxslari tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantirish prokuror nazorati hujjatlari hisoblanadi, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish, shuningdek qonun

buzilishi, ushlab kelib chiqish sabablarini bartaraf qilish vositasi sifatida qaralmogʻi lozim.

Tekshirishda aniqlangan holatlarning mehnat jamoasida natijasini ommaviy axborot vositalarida yoritilishiga ustuvor ahamiyat beriladi.

Har bir tayyorlangan prokuror nazorati hujjati xususiyatiga koʻra nomlanishi, prokuratura organlarida ish yuritish tartibiga asos qilingan holda sana qoʻyilishi va raqamlanishi lozim.

Prokuror nazorati hujjatlari «Prokuratura toʻgʻrisida»gi Qonun talablariga binoan tegishli prokuror yoki uning oʻrinbosari tomonidan imzolanadi.

Umumiy nazorat sohasida prokurorning vakolatlari asosan Oʻzbekiston Respublikasi «Prokuratura toʻgʻrisida»gi Qonuni-nig 22-moddasida oʻz aksini topgan.

Biroq aytish joizki, «Prokuratura toʻgʻrisida»gi Qonunda prokurorning vakolatlari roʻyxati faqat uning qonun buzilishiga yoʻl qoʻyilganligi haqidagi kelib tushgan maʼlumotlar va prokurorda qonun buzilishi hollari toʻgʻrisida boʻlgan maʼlumotlar asosida amalga oshiriladigan umumiy nazorat tartibidagi tekshirishlarni oʻtkazishi boʻyicha faoliyatiga nisbatan ishlab chiqilgan. Prokuror bu borada ham tekshirish oʻtkazguniga qadar ham undan keyin foydalaniladigan bir qator boshqa vakolatlarga ega. Ushbu vakolatlar huquqning boshqa manbalari, xususan, jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual, mehnat, jinoyat-ijroiya, maʼmuriy-huquqiy, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va koʻrsatmalariga asoslangan.

Prokuror qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida oʻz vakolatlari doirasida:

Vazirliklar, davlat qoʻmitalari, idoralarning, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning harbiy qismlarining hududida va xonalariga moneliksiz kirishga, tekshirishlar oʻtkazishga, tekshirish uchun qarorlar, farmoyishlar, buyruqlar va boshqa hujjatlarni, qonuniylikning holati toʻgʻrisidagi va uni taʼminlashga doir chora-tadbirlar haqidagi maʼlumotlarni talab qilishga;

Davlat organlari, harbiy qismlar, vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralarning harbiy tuzilma rahbarlari va boshqa mansabdor

shaxslaridan ular tasarrufidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatini tekshirish, taftish o'tkazishni, idoraviy va idoraviy tekshirishlar o'tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilishga;

Mansabdor shaxslar va fuqarolarning qonun buzilishi xususida og'zaki yoki yozma tushuntirishlar talab qilishga haqlidir.

Qonun buzilishi aniqlangan taqdirda prokuror qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko'rishga majbur.

Tekshirishlar o'tkazganda prokuror xo'jalik faoliyatining u yoki bu sohasi bo'yicha mutaxassislar jalb qilishga haqli.

Tekshirishlar o'tkazilishi to'g'risidagi ma'lumotlar, huquqiy hujjatlar va boshqa kerakli hujjatlar hamda axborotlarni taqdim etish, mutaxassislar jalb qilish, prokuraturaga kelish va qonun buzilishi sohasidan tushuntirishlar berish barcha organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun prokuror talab qilgan taqdirda majburiydir. Tekshirish, taftish, idoraviy va idoraviy ekspertiza prokuror belgilagan muddatda o'tkazilib, natijalar haqida majburiy tartibda prokurorga ma'lumot berilishi kerak

Mansabdor shaxslar va fuqarolar prokurorning talablarini bajarmaganliklari uchun qonun bilan belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Qonunlar ijrosini tekshirish. Prokurorlar davlatdagi qonuniylik holatida bevosita aks etayotgan ustuvor yo'nalishlarni tanlab olishlari lozim deb baholaydilar.

Xususan, I. Baskovning fikri bo'yicha bu yo'nalishlar 9 tani, A. Davletovning fikri bo'yicha 11 tani, amaliyotchi mutaxassis A. Melnikovning fikri bo'yicha 5 tani tashkil etadi.

Bizningcha, prokurorlarning bu boradagi faoliyatlari bevosita o'z hududlaridagi bo'lgan qonuniylik ahvolidan kelib chiqqan holda tashkil etilishi lozim. Bunda asosiy ish hajmi bevosita shaharlar va tumanlar prokuraturalari hissasiga to'g'ri kelishi unutilmasligi darkor.

Albatta, jamiyat va davlat rivojlanishi uchun umum ahamiyatli bo'lgan sohalar bundan mustasno.

Yuqorida ko'rsatilganlardan kelib chiqqan holda, quyidagilarni ta'minlash maqsadga muvofiq deb hisoblanishi lozim:

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'z-o'zlarini boshqarish organlari, jamoa uyushmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlar, vazirliklarning, davlat qo'mitalarining, idoralarning harbiy qismlari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishini va ular tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy aktlarning Konstitutsiya va qonunlarga mosligini nazorat qilish va ta'minlash prokuratura idoralari alohida e'tibordagi va ustuvor yo'nalishi deb baholanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining mazkur yo'nalish bo'yicha mas'ul xodimlari, viloyat, unga tenglashtirilgan shaharlar, tumanlar, tumanlararo va ixtisoslashtirilgan boshqa prokuraturalar prokurorlari o'z hududlaridagi qonunchilik ahvoli yuzasidan batafsil ma'lumotga ega bo'lishlari, qonunchilikni ta'minlash borasidagi faoliyatlarini aynan shu ma'lumotlar asosida olib borishlari kerak.

Bu faoliyatni amalga oshirish borasida, birinchidan, tegishli nazorat idoralari va boshqa davlat idoralardan joylardagi qonunchilik ahvoli, iqtisod sohasida o'tkazilayotgan islohotlarning jarayoni, ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar, ularning borish dinamikasi va to'sqinlik qilayotgan faktorlar yuzasidan tegishli ma'lumotlarni talab qilib olinishi:

Ikkinchidan, to'plangan ma'lumotlarni to'liq va chuqur tahlil qilish, ular orasidan prokuror ta'sir choralari qo'llanishi talab qilinayotgan konkret yo'nalishlar va tarmoqlarni aniqlash zarur.

Qonunlarning ijrosini tekshirishning asosiy omili sifatida tekshiruvlarning aniq va yuqori saviyada rejalashtirishini olish mumkin.

Boshqaruv idoralari, mahalliy hokimiyatlar, nazorat idoralari, mansabdor shaxslarning fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini poymol etuvchi noqonuniy huquqiy aktlarini aniqlash va ularga protest keltirish masalasini hal etish umumiy nazorat faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Prokurorlarning bu faoliyatiga sistemali va doimiy xarakter berish uchun chiqarilayotgan huquqiy aktlarning Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlariga

mosligini bir kvartalda kamida bir marotaba tekshirilishini tashkil etish zarur.

Bu borada alohida e'tiborni:

Hokimlar, Respublika vazirliklari rahbarlari, idoralar, konsernlar, korporatsiyalar, assotsiatsiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish viloyat, shahar va tuman organlarining normativ hujjatlarining qonuniyligiga;

Davlat idoralarining rahbarlari va mansabdor shaxslarining fuqarolarga ma'muriy jazo qo'llash haqidagi qarorlarining qonuniyliga qaratilishi shart.

Noqonuniy aktlar protest keltirish yo'li bilan bekor qilinishi yoki qonunga muvofiqlashtirilishi lozim. Protest tegishli mansabdor shaxs yoki idora tomonidan rad etilgan holda belgilangan 1 oylik muddat ichida sudga protestni rad etish haqidagi qaror noqonuniy ekanligi tan olinishini talab qilib ariza kiritilishi lozim.

Xuddi shuningdek, hududiy prokurorlar, respublika boshqaruv idoralarining qonunga zid huquqiy aktlari aniqlangani holda Respublika prokuraturasiga tegishli taqdimnoma bilan chiqishlari lozim.

2-§. Prokuratura organlarining umumiy nazorat faoliyatini tashkil etish

Umumiy nazorat faoliyatining ikkinchi muhim sharti bu butun prokurorlik tizimi iyerarxiyalarini aniq-ravshan belgilash. Bu turli bo'g'indagi prokurorlar ishida parallelizmning oldini oladi, shu bilan birga qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini ko'zdan qochirmaslikka imkon beradi.

Ya'ni umumrespublika vazirliklari, qo'mita va idoralari hamda jamoat tashkilotlari tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazoratni Respublika Bosh prokuraturasi;

Viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri ijroiya hokimiyati va boshqaruvi, jamoat tashkilotlarining qonunlarni ijrosi ustidan nazoratni tegishlicha viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahar prokuraturalari;

Shahar va tuman vakillik organlari, ijro hokimiyati va boshqaruv organlari, yuridik shaxslar, jamoat tashkilotlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni tuman, shahar va ularga tenglashtirilgan ixtisoslashtirilgan prokuraturalar amalga oshiradi.

Harbiy boshqaruv organlari, harbiy qismlar va muassasalar tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazoratni harbiy prokuratura amalga oshiradi va shu kabilar.

Umumiy nazorat faoliyatini amalga oshirishda kamdan kam holatlarda yuqori turuvchi prokuror quyi prokurorning vakolatlarini o'ziga oladi. Ammo uning bunday vakolati qonunda mustahkamlangan.

Umumiy nazorat faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan prokurorning axborot bilan ta'minlanganligi, qonuniylik holati va aniq nazoratga kiruvchi obyektlardagi huquqbuzarliklarning mavjud bo'lishidir.

Umumiy nazoratning samarasi, shuningdek ushbu faoliyatni ham markazda, ham joylarda aniq rejalashtirishga bog'liq. Umumiy nazoratning «qamrab bo'lmasligi»ga qaramasdan, prokurorlar o'tkir yo'nalishda ish olib borishlari kerak.

Umumiy nazorat prokuror faoliyatining bir yo'nalishi sifatida o'ziga xos xususiyati bor. Ya'ni umumiy nazoratda muvaffaqiyat ko'p jihatdan prokurorning shaxsiy tashabbusiga bog'liq.

Shuningdek, tekshiruv o'tkazish obyektini aniqlash muhimdir. Bunda «anchadan beri borilmagan joy» emas, balki qonun buzilayotgan davlat va mehnat intizomi noxush holatda bo'lgan obyektlar tanlanishi kerak.

Tekshiruvlar o'tkazishda ishni shunday tashkil qilish kerakki, bunda nafaqat qonun buzilishlari, balki ularga sharoit yaratgan sabablarni ham aniqlash lozim. Bunda prokurorga jalb qilingan mutaxassislar yordam beradi.

Umumiy nazorat sohasidagi yangi qonunchilik bilan, ayniqsa, tuman va shahar bo'g'ini prokurorlarini o'z vaqtida hamda to'liq tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bu asosan yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda yangi qabul qilingan qonun

va qonunosti hujjatlarining nisbati murakkab me'yorlariga tushuntirish (sharh) beriladi. Bu ish faolroq o'tkazilishi kerak. Negaki hozirgi vaqtda amal qiluvchi qonunchilik, jumladan xo'jalik, tijorat, tadbirkorlik huquqi sohalaridagi qonun va qonunosti hujjatlariga faol o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Jadal islohotlar davrida prokuratura idoralarining umumiy nazorat faoliyatini zamon talablariga javob bera oladigan darajaga ko'tarish lozim. Prokurorlar faoliyatida tashabbuskorlik, fuqarolar va mulkdorlar, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishda huquqlilik, adolatparvarlik, qonunbuzarlikka qarshi murosasizlik talab qilinadi. Respublikamiz iqtisodiyotini, mulkchilikning barcha shakllari va tabiiy boyliklari, aholi iste'mol huquqlarini himoya qilishga, davlat va mehnat intizomini mustahkamlashga, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarning bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish zarur. Umuman, prokuratura idoralarining umumiy nazorat faoliyatidagi muhim vazifalari belgilab olinishi kerak. Umumiy nazorat tartibida o'tkazilgan tekshirishlarda yuzakichilikka, sifatsiz va natijasiz tekshirishlar sonini kuchaytirish, rasmiyatchilik kabi holatlarga barham berish, qonunbuzarlarga nisbatan tegishli ta'sir choralari ko'rish, jazoning muqarrarligini ta'minlashda qat'iyatchilik talab etilishi, masalalarni hal etishda mahalliy hokimiyat idoralari ta'siriga berilib qolish, mahalliychilik, oshna-og'aynigarchilik illatlariga barham berish lozimligi ko'rsatilgan. Shuningdek, umumiy nazorat bo'limlari va bu soha bilan shug'ullanuvchi xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishga e'tibor berishi, xodimlar qo'nimsizligi, ularni boshqa sohalarga jalb etilishiga chek qo'yish zarurligi prokurorlarning e'tiboridan chetda qolmasligi lozim.

Qonunlarni aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratning barcha subyektlarga nisbatan kuchaytirilishi belgilandi. Buyruqda prokurorlar o'z vakolatlarini amalga oshirganlarida mustaqil bo'lishlari va faqat qonunga bo'ysunishlari, qonun buzilishlarini o'z vaqtida aniqlashi va oldini olishi, ularga nisbatan tegishli ta'sir choralarini qo'llash, buzilgan huquqlarning tiklanishiga erishishlari lozim.

Iqtisodiyot sohasidagi idora va tashkilotlar tomonidan qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish ko'rsatildi. Ayniqsa, respublika agrosanoat kompleksini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazoratni olib borishda e'tibor bilan yondashish belgilandi.

Buyruq, shuningdek umumiy nazorat tartibidagi tekshiruvlar uslubini takomillashtirish, prokuror huquqiy ta'sir hujjatlari sifatligini, qonun buzilishlari sabab va shart-sharoitlarini aniqlash; ularning bartaraf etilishi va oldi olinishi, qonunni buzgan shaxslarga chora ko'rilishiga erishish, umumiy nazoratda oshkoralik, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari ishtirokidan foydalanish belgilandi.

Bundan tashqari, qonun buzilishlari va ularga ko'maklashayotgan shart-sharoitlarni tamomila bartaraf etish maqsadida nazorat tartibida takroriy tekshirishlarni o'tkazish amaliyotidan keng foydalanish lozimligi uqtirilgan. Umumiy nazorat faoliyatini amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi va tekshiruv-nazorati idoralari bilan hamkorlikni kengaytirish zarur degan ko'rsatma ham buyruqdan o'rin olgan. Tegishli idoralardan qonuniylik haqidagi ma'lumotlarni olib, ulardan umumiy nazorat faoliyatini rejalashtirishda foydalanish lozimligi belgilangan.

Umumiy nazorat faoliyatini tashkil etishda quyi, ayniqsa, tuman va shahar prokuraturalariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish, prokuratura idoralarining o'zaro hamkorligi, xodimlar malakasini oshirib borish masalalariga e'tibor berish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining tegishli buyruq, ko'rsatma va nizomlarida ko'rsatib o'tilgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining obyekt va predmeti nimadan iborat?
2. Qonunlar ijrosini ta'minlashda prokuror nazoratining umumiy shartlari nimalardan iborat?
3. Tergov va tezkor-qidiruv orgalari tomonidan qonunlar ijro etilishi ustidan prokuror nazoratini tushuntirib bering.

4. Qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishda prokuror ahamiyat qaratishi lozim bo'lgan holatlarni ta'riflang.

1-kazus

Fuqaro Alimova A. fuqaro Alimova K. (qizi – undiruvchi)-ning qonuniy manfaatlarini ko'zlab O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining hududiy bo'limi va viloyat prokuraturasiga aliment undirish haqidagi ijro hujjatini ijrosini ta'minlab berishni so'rab murojaat (keyingi o'rinda ariza) qilgan.

Aniqlanishicha, fuqaro Tursunov T. fuqaro Alimova K. bilan 2006-yilda turmush qurgan va 2008-yilda oilaviy kelishmovchilik sabab ajrashishgan. Birgalikdagi nikohidan 2007-yil tug'ilgan Tursunova N.T. ismli bir nafar farzandi bor.

O'tgan davr mobaynida fuqaro Tursunov T. farzandining moddiy ta'minoti va alimenti uchun hech qanday pul mablag'larini ajratmagan, biror marta qizining holidan xabar olmagan, uning tarbiyasida ishtirok etmagan va ta'lim olishi uchun g'amxo'rlik ko'rsatmagan. Boshqa ayolga uylanish maqsadida fuqaro Alimova K. va qizi Tursunova N.ni chaqaloqlik vaqtida uy-joyga kiritmay, ona-bolaning ko'chada qolishiga sabab bo'lgan.

Voyaga yetmagan bir nafar farzandning moddiy ta'minoti uchun aliment undirib berishni so'rab berilgan bir necha murojaatlar natija bermagach, Alimova K. moddiy ahvolini yaxshilash maqsadida Turkiya Respublikasiga ishlash uchun ketishga majbur bo'ladi. Shu tariqa voyaga yetmagan farzandini onasi Alimova A. vasiyligida qoldiradi (2015).

Ariza ijrosini ta'minlash maqsadida davlat ijrochisi qarzdor Tursunov T.ni hududiy majburiy ijro bo'limiga chaqirtiradi va undan aliment to'lashini talab qiladi. Dastlab qarzdor aliment to'lash uchun pul olib kelishini aytib u yerdan chiqib ketadi, ammo advokat maslahatidan keyin fikridan qaytadi.

Endi qarzdor javobgarlik va jazodan qochish maqsadida hamda undiruvchini mamlakat hududida emasligidan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 73-moddasiga asosan qizini o'z tarbiyasiga olish bo'yicha sudga da'vo arizasini kiritadi.

Shu tariqa qonunni aylanib o'tib davlat ijrochisining talabini bajarishdan «bosh tortadi».

Vaziyatni huquqiy tahlil qiling.

2-kazus

Fuqaro A. tomonidan Toshkent shahar prokuroraturasiga XXX kasb-hunar ta'limi muassasasida yuz berayotgan qonunbuzilishlari haqida xabar berildi. Unga ko'ra, ta'lim muassasasi rahbar xodimlari tomonidan o'qituvchilarga ustama haqlarni belgilashda amaldagi qonunchilik talablariga rioya etilmagani hamda muassasaga o'quvchilarga ta'lim berish huquqiga ega bo'lmagan kadrlar olinayotganligi ta'kidlangan.

Vaziyatni huquqiy tahlil qiling.

VII bob. PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN JINOYATLARNI TERGOV QILISH

1-§. Prokuratura organlari tomonidan jinoyatlarni tergov qilish xususiyatlari

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida prokuratura organlari tomonidan jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish nazarda tutilgan. Unga ko'ra, prokuratura organlari nafaqat surishtiruv va dastlabki tergov olib borish ustidan prokuror nazoratini tashkil etadi, balki o'zi ham jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergovni olib boradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi 3 ta organda dastlabki tergovni amalga oshirishni belgilagan. Ular Prokuratura, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati organlari tizimida faoliyat yuritadi. «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 29-moddasida prokuratura organlari jinoyat-protsessual qonuniga binoan o'z vakolatlariga berilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar yuzasidan tergov o'tkazadilar. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 345-moddasi jinoyat ishlarining tergovga tegishliligi masalasini hal etgan. Unga ko'ra, ushbu moddaning ikkinchi – yettinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov o'tkazishi shartligi belgilangan.

Tergovga tegishlilikni aniqlash – bu jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni yuritish majburiyati va uni qaysi tergovchi olib borishini belgilashdir. Protsessual qonunchiligiga rioya qilgan holda prokuratura organlari bugungi kunda ko'plab jinoyat ishlari yuzasidan dastlabki tergovni amalga oshirib, yetkazilgan zararlarni undirish choralarini ko'rib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 345-moddasiga ko'ra, Jinoyat kodeksining 97–103¹, 108, 116, 132, 137, 141–149, 175-moddalarida, 177-moddasi uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 180–181¹-moddalarida, 184-moddasi uchinchi qismida, 184¹-moddasida, 186-moddasi ikkinchi –

to'rtinchi qismlarida, 192¹–192¹¹, 197¹, 205–215, 218–222, 229⁴, 230–230², 231-moddalarida, 232-moddasi ikkinchi qismida, 232¹–236, 241¹–242, 265-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha, shuningdek qonunda ko'rsatilgan ayrim toifadagi mansabdor shaxslarning jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha dastlabki tergov prokuratura organlarining tergovchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Jinoyat kodeksining 279–302-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha, shuningdek harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha dastlabki tergov harbiy prokuratura tergovchilari tomonidan olib boriladi.

Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining 345-moddasida yana quyidagi holatlar qayd etilgan:

Jinoyat kodeksining 130-moddasi uchinchi qismida, 167-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida, 178, 186³, 188, 188¹, 244¹, 244²-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha dastlabki tergov ish qo'zg'atgan dastlabki tergov organi tomonidan amalga oshiriladi.

Jinoyat kodeksi 237–241-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha dastlabki tergov ushbu ish qo'zg'atilishiga sabab bo'lgan jinoyat qaysi organning tergoviga tegishli bo'lsa, o'sha organ tomonidan olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, uning o'rinbosarlari yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari, shuningdek ularga tenglashtirilgan prokurorlar tergovning har tomonlama, to'liq va xolisona olib borilishini ta'minlash maqsadida jinoyat ishini, tergovga tegishlilik qoidalaridan qat'i nazar, quyidagi hollarda asoslantirilgan qarorga binoan bir dastlabki tergov organidan boshqasiga o'tkazishga haqli:

1) agar jinoyat ishining tergovi tegishli bo'lgan organ jinoyatni hisobga olishdan ilgari yashirgan bo'lsa;

2) agar jinoyat ishining tergovi tegishli bo'lgan organning rahbari yoki rahbarning yaqin qarindoshi ish yuzasidan jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgar deb topilgan bo'lsa;

3) aybsizligi ayon bo'lgan shaxs ayblanuvchi tariqasida jalb etilganda yoki qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida oldindan bila turib qonunga xilof ravishda iltimosnoma qo'zg'atilganda;

4) dastlabki tergovni olib borishda qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlari qo'llanilganda;

5) tergovning natijalariga va ish bo'yicha qonuniy qaror qabul qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tarzda ushbu Kodeks talablari buzilganda.

Bugungi kunda prokuratura tergovchilari o'z faoliyatlarida prokuratura organlarining va boshqa organlarning imkoniyatlaridan foydalanib o'ta og'ir va murakkab jinoyatlarni ochmoqdalar. So'roq qilish, yuzlashtirish, ko'zdan kechirish, guvohlantirish, murdani eksqumatsiya qilish, eksperiment o'tkazish, olib qo'yish va tintuv, telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, eksperiment, ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olish, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish va boshqa tergov harakatlarida ilmiy-texnika vositalaridan keng foydalaniladi. Tergovchi ilmiy-texnika vositalaridan foydalanishda mutaxassislarni jalb qilishi mumkin. Ilmiy-texnika vositalaridan foydalanish, dalillarni topish, tekshirish va ishga qo'shish uchun zarur. Ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan tergovchi rad qilib bo'lmaydigan dalillarga ega bo'ladi.

Dastlabki tergovning sifati va samaradorligi, alohida jinoyat ishlari tergovining muvaffaqiyati, eng avvalo, sodir qilingan jinoyatning tergovchilar tomonidan o'ziga xos tomonlari, jinoyatchi va jabrlanuvchilarning shaxsi va boshqa omillarni e'tiborga olgan holda eng to'g'ri va maqbul bo'lgan tergov usullarining tanlanishi, tergov harakatlarining sifatli va puxta tuzilgan reja asosida yuqori malakada va faol tashkil etilishiga bog'liqdir.

Prokuratura organlari tizimida tergov apparati alohida o'rin tutadi, tergovchilar esa jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim ahamiyatga egadirlar. Ularning butun faoliyati jinoyatlarni

ochish, tergov qilish va jinoyatning oldini olishga qaratilgan. Aytish lozimki, tergov ishining yuksak darajada bo'lishi jinoyatlarning oldini olishda eng samarali vositadir.

Boshqa tergov organlari kabi prokuraturaning tergov organlarining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- jinoyatlarni tez va to'la ochish;
- aybdorlarni javobgarlikka tortish va jinoyat ishini sudga ko'rib chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash yoki hukm chiqarilgandan keyin haqiqatda qoplash uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- jinoyatlar sodir etilishining sabablarini aniqlash va bunga yordam beruvchi sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan choralarni ko'rish;
- fuqarolarni qonun-qoidalarga qat'iy rioya etish hamda huquqiy jihatdan madaniyatli va fuqarolik jamiyatiga sadoqatli qilib tarbiyalash.

Dastlabki tergovning muhim vazifasi bu jinoyatni sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish va uni sudga berish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir. Bu yerda biz jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish haqida emas, balki aybsiz shaxsni javobgarlikka tortmaslik haqida fikr bildiramiz. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida aybsiz shaxsni jinoyat javobgarlikka tortilmasligi kafolatlangan.

Dastlabki tergovning yana bir vazifasi – bu jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararni qoplash yoki sud hukmidan keyin uni qoplash uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratishdir. O'tmishda tergov idoralarining ishida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilib, jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararlarining aksariyat qismi amalda qoplanmagan. Hozirgi kunda tergovchining jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararni qoplashga qaratilgan harakatlari asosiy faoliyat yo'nalishidan biri hisoblanadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda jiddiy yutuqlarga erishish uchun muntazam ravishda jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini o'rganish va uni bartaraf qilish choralari ko'rish lozim.

Dastlabki tergovning alohida vazifasi bu fuqarolarning qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalashdir. Tergovchining tarbiyaviy faoliyati ikki turdagi xususiyatga ega. Bir tomondan ayblanuvchining ruhiy holatini va odatlarini ijobiy tarafga o'zgartirish uchun ta'sir qilish, qonunga xilof harakatlarini o'zi anglashiga hamda tuzalish va ijtimoiy foydali mehnat qilishga, qonunlar, ahloq va odobga rioya etish lozimligini tushunib yetishiga yordam berish kerak. Ikkinchi tomondan tergovning yuritilishi qolgan fuqarolarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, qonunga bo'lgan hurmat, e'tiqod, huquq tartibot ishlarining mustahkamligi, jinoyat ishi ochilmay qolmasligi va ularning huquqlari daxlsizligiga ishonch uyg'otish lozim.

Tergovchining mustaqilligi sudyalarning mustaqilligidan farq qiladi. Tergovchiga esa prokuror jinoyat ishidagi har qanday masala bo'yicha ko'rsatmalar beradi va bu tergovchi uchun majburiydir. Lekin, bu ko'rsatmalar ikki shart asosida majburiy hisoblanadi. Birinchidan, prokurorning ko'rsatmalari faqat yozma ravishda berilgan bo'lsa, tergovchi uchun majburiy (JPKning 37-moddasi 3-qismi, 382-moddasi 3, 4-qismlari). Ikkinchidan, JPKning 36-moddasi 3-qismiga asosan tergovchi prokurorning: 1) shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi, 2) jinoyatni tavsif qilish, 3) ayblov hajmini belgilash, 4) ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish, 5) ishni sudga yuborish yoki, 6) ishni tugatish haqidagi ko'rsatmalariga rozi bo'lmasa, o'z e'tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqlidir.

Qonunning bu talabiga og'ishmay rioya etish tergovchining haqiqatan ham erkin va mustaqil bo'lishini kafolatlaydi. Tergovchi prokuror ko'rsatmalarining texnik ijrochisi emas, u mustaqil protsessual shaxs, u qonun bilan huquq va majburiyatlar yuklatilgan jinoyat protsessual faoliyatining mustaqil subyektidir.

2-§. Jinoyatlarni tergov qilishda prokuror vakolatlari

Prokurorning vakolatlari JPKning 382-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, prokuror surishtiruv va dastlabki tergov

vaqtida qonunlar bajarilishini nazorat qiladi. Jinoyat sodir etilgani to'g'risidagi ariza va xabarlarini ko'rish hamda hal qilish, tekshirish o'tkazishning JPKda belgilangan tartibi, chiqarilgan qarorlarning qonuniyligi, surishtiruv va dastlabki tergov organlarining qonunlarni ijro etilishi bo'yicha olib boradigan nazorat predmeti hisoblanadi.

Surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirib, prokuror o'z vakolati doirasida:

✓ surishtiruv va dastlabki tergov organlaridan hamda tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlardan ishlarni tekshirish uchun, sodir etilgan jinoyatlarga oid tezkor-qidiruv, surishtiruv, dastlabki tergov ishlarining borishiga doir hujjatlarni, materiallarni va boshqa ma'lumotlarni talab qilib oladi; sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal etish to'g'risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligini har oy kamida bir marta tekshiradi;

✓ surishtiruvchilar va tergovchilarning shuningdek tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining qonunga xilof hamda asossiz qarorlarini bekor qiladi;

✓ jinoyatlarni tergov qilish, ehtiyot chorasini tanlash, o'zgartirish yoki bekor qilish, uy qamog'i bo'yicha qo'shimcha taqiq (cheklov) belgilash haqida iltimosnoma qo'zg'atish jinoyat tavsifini belgilash, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, ayrim tergov harakatlarini bajarish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirish to'g'risida yozma ko'rsatmalar beradi;

✓ qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoxud uy qamog'i bo'yicha qo'shimcha taqiq (cheklov) belgilash to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi yoxud qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi;

✓ ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqida sudga iltimosnoma

kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi yoxud ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi;

✓ amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqida yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi;

✓ murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi;

✓ pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi;

✓ guvohlarning va jabrlanuvchilarning (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo'yish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi;

✓ gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bilan aybga iqrorlik to'g'risida ushbu Kodeksda belgilangan tartibda kelishuv tuzadi;

✓ tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga shaxslarni ushlab, majburiy keltirish, qidirish haqidagi qarorlar, sudning qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi ajrimini ijro etishni, shuningdek prokuror yoki prokuratura tergovchisi yurituvidagi ishlar yuzasidan jinoyatlarni ochish va jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash uchun zarur choralarni ko'rish to'g'risida ko'rsatmalar beradi;

✓ surishtiruvda, dastlabki tergovda ishtirok etadi hamda zarur hollarda, ushbu Kodeksga muvofiq har qanday ish bo'yicha ayrim tergov harakatlarini shaxsan bajaradi yoki tergovni to'liq amalga oshiradi;

✓ tintuv o'tkazishga, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turishga hamda ular orqali uzatiladigan axborotni olishga, uy-joy daxlsizligi, yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar hamda boshqa so'zlashuvlar, aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan pochta, kuryerlik jo'natmalari va telegraf xabarlari sir saqlanishi huquqlarini cheklovchi hamda abonentlar yoki abonent qurilmalari

o'rtasidagi bog'lanishlar haqida axborot olishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishga, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining hamda tergovchining boshqa harakatlariga ruxsat beradi;

✓ dastlabki tergov va surishtiruv muddatlarini ushbu Kodeksda belgilangan hollarda va tartibda uzaytiradi;

✓ ishlarni surishtiruv va dastlabki tergov organlariga qo'shimcha tergov o'tkazish to'g'risidagi o'z ko'rsatmalari bilan qaytaradi;

✓ jinoyat ishini prokuraturaning bir tergovchisidan boshqasiga, ushbu Kodeksda belgilangan hollarda va tartibda esa, bir dastlabki tergov va surishtiruv organidan boshqa dastlabki tergov va surishtiruv organiga o'tkazadi;

✓ surishtiruvchini yoki tergovchini, basharti ular ishning tergovni chog'ida qonun buzilishiga yo'l qo'ygan bo'lsalar, surishtiruv yoxud dastlabki tergov ishlarini davom ettirishdan chetlatadi;

✓ jinoyat ishlari qo'zg'atadi yoki ularni qo'zg'atishni rad etadi, ishlarni tugatadi yoxud yuritilishini to'xtatadi; qonunda nazarda tutilgan hollarda tergovchi yoki surishtiruvchining ishni tugatishiga rozilik beradi; ayblov xulosasi, ayblov dalolatnomasi yoki qarorini tasdiqlaydi, ishlarni sudga yuboradi.

Prokurorning JPKda nazarda tutilgan tartibga muvofiq surishtiruv va dastlabki tergov organlariga hamda tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga tergovga qadar tekshirish o'tkazish, ishlarni qo'zg'atish va tergov qilish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalari ana shu organlar uchun majburiydir¹.

Jinoyatga jazo belgilaganda prokuratura tergovchilari surishtiruv ishlarini amalga oshiradi. Surishtiruv ishlarining to'liq ro'yxati Jinoyat protsessual kodeksida ko'rsatilgan va quyidagilardan iborat bo'ladi: ko'rib chiqish, shubha qilinayotgan

¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 382-modda // (2022-yil 15-noyabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.

shaxsni ushlab, so'roq, yuzma-yuz qilish, tintuv, olish, guvohlik berish, shaxsini aniqlash uchun ko'rsatish, tergov eksperimenti, taqqoslash uchun namuna olish, murdani eksqumatsiya qilish, ekspertiza tayinlash, suhbatni nazorat qilish va yozib borish, pochta-telegraf jo'natmalarini to'xtatib qo'yish va xatlash, mulkni xatlash¹. Yuqorida aytilgan o'n beshta tergov harakatining o'ntasi jinoiy-protsessual majburlash choralari bo'ladi. Bularga, xususan, shubha qilinayotgan shaxsni ushlab, tintish, olish, taqqoslash uchun namuna olish, guvohlik berish, murdani eksqumatsiya qilish, ekspertiza o'tkazish, suhbatni nazorat qilish va yozib olish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash, mulkni xatlash kiradi. Fuqaro va boshqa shaxslarning huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarini (shaxsiy daxlsizligi, uyining daxlsizligi va hk.) cheklash tergov harakatining majburiylik xususiyatini ko'rsatadi².

Prokuror tergov va boshqa protsessual harakatlar tartib bilan o'tkazilganini tekshiradi. Inson va fuqaroning konstitutsiyadagi huquqlarini cheklaydigan harakatlarga alohida e'tibor berish kerak (uyini ko'rib chiqish, uyni tintish, undag buyumlarni olish, shaxsning o'zini tintib ko'rish, hujjatlarini olish, fuqaroning bankdagi, boshqa kredit tashkilotlaridagi hisobi haqida ma'lumot olish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash, mulkini xatlash, telefondagi va boshqa suhbatlarini kuzatib, yozib borish va h.k.)³.

Amalga oshirilgan, lekin ro'yxatga olinmagan jinoyatlar haqidagi ma'lumotni prokuror quyidagi organlardan olishi mumkin: tibbiy muassasalardan, statistika va nazorat-taftish organlaridan, harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmalaridan, xususiy qidiruv va sudlarni qo'riqlash bilan shug'ullanadigan tashkilotlardan. Hisobga olinmagan, yashirilgan jinoyatlarni topish uchun prokuror olingan ma'lumotni taqqoslab chiqadi.

¹ Yakubov R.X. Jinoyat protsessi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. To'ldirilgan 3-nashri. – B. 305–319; Якубов Р.Х. Уголовный процесс. Олий о'quv yurtlari uchun darslik. To'ldirilgan 4-nashri / Ilmiy muharrir V.N. Galuzo. – M., 2003. – B. 288–302.

² Галузо В.Н. и.д. Прокурорский надзор. – М., 2004. – С. 144.

³ Prokuror nazorati: Darslik // Vinokurov Yu.Ye. va boshqalar; Yu.Ye. Vinokurov umumiy tahriri ostida chop etilgan. To'ldirilgan va qayta ishlangan 6-nashri. M.: Высшее образование, 2005. – 258-bet.

JPKning 383-moddasida jinoyat ishidagi bir qancha epizodlar bo'yicha prokurorning vakolatlari belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, prokuror prokuror yoki uning o'rinbosari ko'p voqeali jinoyat ishlari bo'yicha ayblovning ayrim voqealari yuzasidan muayyan shaxsga nisbatan to'plangan dalillarni ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tuzish uchun yetarli deb e'tirof etsa, shu voqealar bo'yicha tergovni tamomlash va ishni sudga yuborish haqida yozma ko'rsatma berishga haqli..

JPKning 384-moddasiga ko'ra, Prokuror yoki uning o'rinbosari tergovchidan ayblov xulosasi yoki surishtiruvchidan ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini o'rganib chiqishi va:

1) ayblanuvchi zimmasiga qo'yilayotgan qilmish sodir etilgan yoki etilmaganligini va bu qilmishda jinoyat tarkibi bor-yo'qligini;

2) qo'yilgan ayb ishdagi mavjud dalillar bilan asoslantirilgan-asoslantirilmaganligini;

3) ayblanuvchining isbotlangan barcha jinoiy qilmishlari ayblov mazmuniga kiritilgan-kiritilmaganligini;

4) jinoyati fosh qilingan barcha shaxslar ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan-qilinmaganligini;

5) ayblovni yoki ishni tugatishga sabab bo'ladigan holatlar bor-yo'qligini;

6) ayblanuvchining qilmishlariga to'g'ri yoki noto'g'ri tavsif berilganligini;

7) tergovga tegishlilik qoidalariga rioya qilinganligini;

8) ehtiyot chorasi to'g'ri yoki noto'g'ri tanlanganligini;

9) fuqaroviy da'voni va boshqa mulkiy undirishlarni ta'minlash choralari ko'rilgan-ko'rilmaganligini;

10) jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlangan-aniqlanmaganligini hamda ularga barham berish choralari ko'rilgan-ko'rilmaganligini;

11) tergov sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona o'tkazilgan-o'tkazilmaganligini, barcha vajlar tekshirilganligini va himoyaning iltimosnomalari ko'rib chiqilganligini;

12) ishni birlashtirishda yoki ajratishda ushbu Kodeksning 332-moddasi talablariga rioya etilgan-etilmaganligini;

13) ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi ushbu

Kodeksning 379, 380 va 381¹²-moddalarida nazarda tutilgan talablarga muvofiq tuzilgan-tuzilmaganligini;

14) surishtiruvchi va tergovchi JPKning boshqa talablariga rioya qilgan-qilmaganligini tekshirishi shart¹.

Prokuror yoki uning o'rinbosari ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini ko'pi bilan besh sutkada ko'rib chiqishi va quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi shart:

1) ishni sudga yuborish uchun asoslar mavjud deb topib, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash;

2) o'z qarori bilan ayblov mazmunidan ayrim bandlarni chiqarib tashlash, yengilroq jinoyatni nazarda tutuvchi qonunni qo'llash va shu o'zgartirishlar bilan ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash;

3) qo'shimcha tergov o'tkazish uchun ishni o'z ko'rsatmalari bilan surishtiruvchi yoki tergovchiga qaytarish;

4) surishtiruv o'tkazilgan jinoyat ishini tergovga tegishlilik qoidalari buzilganligi aniqlangan yoki JPKning 381⁵-moddasi to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollarda dastlabki tergov organiga o'tkazish;

5) ishni yuritishni to'xtatish;

6) ishni tugatish;

7) amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish.

Agar ayblovni to'ldirish yoki uni og'irlashtirish tomoniga yoxud haqiqiy holatlarga ko'ra avvalgi ayblovdan jiddiy farq qiladigan tomonga o'zgartirish talab qilinsa, prokuror yoki uning o'rinbosari qo'shimcha yoki o'zgartirilgan ayb e'lon qilish uchun ishni qo'shimcha tergovga qaytaradi².

Prokuror yoki uning o'rinbosari ayblov xulosasini tasdiqlab, jinoyat ishini tegishli sudga yuboradi. Shu sudga ish bilan birga sud majlisida tekshirish va hal etish uchun barcha iltimoslar va shikoyatlar yuboriladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 384-modda // (2022-yil 15-noyabrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan). Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.

² O'sha manba, 385-modda.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar.

1. Prokuratura organlari tomonidan jinoyatlarni tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlarini yoriting.
2. Prokurorning jinoyatlarni tergov qilishdagi vakolatlarini bayon qiling.
3. Ayblov xulosasi bilan taqdim qilingan jinoyat ishini o'rganishda prokuror qaysi holatlarni o'rganishi lozim?
4. Prokuratura organlarining tergoviga tegishli jinoyat ishlarini tasniflang.

1-kazus

2016-yil 21-may kuni Beshariq tumani Oqtepa qishlog'ida qotillik jinoyati sodir etilganligi yuzasidan tuman huquqni muhofaza qiluvchi organga ma'lumot kelib tushdi. Tezkor guruh xodimlari voqea joyiga yetib borganlarida, Oqtepa qishlog'i 23 uyda yashovchi 56 yoshli fuqaro Aliyeva o'zi yashaydigan uyning ikkinchi qavatdagi xonasida jonsiz holatda topilgan. Voqea joyi ko'zdan kechirilganida murdaning yonidan igna va kashta hamda ayollar bilaguzugi topilgan. Xona ko'zdan kechirilganda xonada hech qanday sovuq qurol topilmagan, eshikni buzib kirish holatlari yo'qligi aniqlangan. Murdaning tanasi ko'zdan kechirilganida uning bo'yin sohasida qandaydir qizarishlar va sirtmoq izlar borligi aniqlangan. Bundan marhuma bo'g'ib o'ldirilgan bo'lishi mumkin degan xulosaga kelingan. Murdaning tanasidan biror tomchi qon oqmagan. Aniqlanishicha, uydin hech qanday qimmatbaho narsalar va pullar yo'qolmagan. Yaqin 2 yil mobaynida Aliyeva bilan bu uyda faqatgina uning kelini Ahmadova yashab kelayotganligi, kelini hech qayerda ishlamasligi, marhumaning o'g'li, ya'ni Ahmadovning eri 2 yildan buyon Rossiya Federatsiyasiga ishlash uchun ketganligi, marhumaning qizi Aliyeva D. Beshariq tumani Oqjar qishlog'ida yashashi aniqlangan. Shu bilan birgalikda, marhuma bilan uning kelini o'rtasida bundan oldin ziddiyatlar vujudga kelmaganligini, biroq marhuma ko'pincha keliniga telefonda ko'p gaplashayotganligi yuzasidan tanbeh berayotganligini qo'shnilari aytib o'tishgan.

Marhumaning kelini so'roq qilinganida u qotillik sodir etilgan kuni tuman markaziga bozor qilish uchun ketganligi va bozordan kech qaytganligini, qaytib kelganida esa ushbu holatni ko'rib qo'rqib ketganligini hamda militsiyaga xabar berganligi aniqlangan. Marhumaning qizi Aliyeva D. esa o'z ko'rsatuvlarida onasining uyiga so'nggi marta voqea sodir etilgan kundan 5 kun oldin kelganligini hamda uy sotib olishayotganligini aytganligini bu uchun ozroq pul yetmay turgani va onasidan RFda ishlayotgan akasi tomonidan yuborilayotgan pullardan 5 ming AQSH dollarini qarzga berib turishini so'ragani va onasi bunga rozi bo'lganligini aytib o'tgan. Shuningdek, marhumaning qizi o'z ko'rsatuvlari mobaynida o'zining eri shu kuni kun bo'yi uyda bo'lganligini, undan shubhalanishga hojat yo'q ekanligini qo'shimcha qilib ketgan. Qo'shnilardan ma'lumotlar so'rab ko'rilganida ular marhumaning uyida katta it borligini u begona shaxslarning kirishiga yo'l qo'ymasligini aytib o'tishgan va shu kuni itning ovozi umuman eshitilmaganini aytib o'tishgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-kazus

Keksa yoshdagi A. Salimov o'z uyida vafot etadi. U bilan so'nggi yillar davomida birga yashab kelgan uning yolg'iz qarindoshi – nevarasi K. bobosining vafot etganligi haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlariga qo'ng'iroq qilib xabar beradi. A. Salimovning uyiga kelgan tezkor xodimlar A. Salimovni oshxonada yotgan holatda ko'rishadi. Mazkur holat yuzasidan B. Quvonov bobosining birdan hushidan ketib yiqilganini, bu paytda u uyda bo'lganini, bobosi nafas olmaganidan uning vafot etganini bilgani uchun tez yordamni emas, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini chaqirganini aytadi.

O'tkazilgan sud-tibbiy va sud-kimyoviy ekspertizasi natijasida A. Salimovning katta hajmdagi maishiy gazdan zaharlanib vafot etganligi aniqlanadi.

O'z navbatida, murda ko'zdan kechirilganida uning har ikki qo'llarida arqon izlari borligi aniqlanadi.

Holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, marhumning yon qo'shnisi guvoh tariqasida so'roq qilinganida u marhumning o'limi yuz bergan kuni ko'chada o'tirganini, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari kelishidan bir soat oldinroq B. Quvonov uydan chiqib ketganini, chiqib ketishidan oldin oshxonasi derazalarini yopganini, yarim soatlardan so'ng qaytib kelganini va oshxona derazalarini ochganini, so'ng militsiya xodimlari kelishganini aytib ko'rsatma berdi.

O'z navbatida, tezkor-qidiruv xodimlari A. Salimovning vafotidan so'ng B. Quvonov uyiga yaqin joylashgan notarial idoraga borib, bobosidan qolgan uyni uning nomiga rasmiylashtirish uchun qanday hujjatlar kerakligini so'raganini aniqlashadi.

Shundan so'ng B. Quvonov A. Salimovning vafotida gumon qilinib, ushlanadi va unga bobosining o'limi yuzasidan bir-ikki masalalar so'ralishi aytilib, tergovchining xonasiga keltiriladi va shaxsni ushlash bayonnomasi rasmiylashtiriladi. Tergovchi unga bobosining o'limida gumon qilinayotganini sezdirmaslik maqsadida unga bobosining vafoti yuzasidan guvoh sifatida so'roq qilinishini aytadi va uni guvoh sifatida so'roq qilib, guvohni so'roq qilish bayonnomasini rasmiylashtiradi.

Tergovchining B. Quvonovga bergan «A. Salimovning vafoti paytida oshxonada hech qanday begona hidni sezmadimmi?» degan savoliga B. Quvonov «Yo'q», deb javob berganidan so'ng tergovchi B. Quvonovning bobosini qasddan o'ldirganiga ishonchi komil bo'ladi va unga bobosining o'pkasida katta hajmda maishiy gaz aniqlanganini, agar barchasini rost so'zlab aytib bersa, unga yengillik berishini aytgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

VIII bob. JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH

1-§. Prokuratura organlarida ishni tashkil etish

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida ishni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari, qonunosti hujjatlarida belgilangan vazifa va vakolatlaridan kelib chiqqan holda quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatishi bilan belgilanadi.

Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan protsessual qarorini o'zgartirish yoki bekor qilishga haqlidir. Shuningdek, o'z bo'ysunuvidagi barcha prokurorlarning ishlari to'g'ri tashkil etilishi uchun to'liq javobgardir.

Bosh prokuratura va uning tarkibiy tarmoqlarida ishlarning tashkil etilishi, amalga oshirilishi, nazoratning ta'minlanishi, hay'at majlislari, tezkor yig'ilishlarning o'tkazilishi, tashkiliy boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlarning (buyruq, ko'rsatma, farmoyish nizom, yo'riqnomalar) tayyorlanishi, imzolanishi va ijroga qaratilishi bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari, yo'riqnomalar, tarkib, tarmoqlar to'g'risidagi nizomlar bilan tartibga solinadi.

Bosh prokuratura tarkibiy tarmoqlarining faoliyati soha, mintaqa prinsipi bo'yicha tashkil etiladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa idoralar ishtirok etishi nazarda tutilayotgan tadbirlar ular bilan oldin kelishib olingan bo'lishi lozim.

2-§. Prokuraturada ishlarni rejalashtirish

Prokuratura organlari oldida turgan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda ishlarni zamonaviy va sifatli rejalashtirish asosiy ahamiyatga ega.

Rejalashtirish – qonunchilikning bugungi holatini va kelgusini hisobga olgan holda chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iboratdir. Rejalashtirish prokuratura faoliyatini aniq va ravshan holda aniq bir maqsadga muvofiq bo'lishi uchun qo'llaniladi. Rejalashtirish ishning aniq ko'rinishlarini belgilashda, kuchlarning to'g'ri taqsimlanishi hamda imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishda va qonuniylikni va jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Nazorat qiluvchi organlar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va hokazolardan talab qilib olingan axborot materiallari rejalashtirish uchun baza bo'lib xizmat qiladi. Rejalashtirish ishlari aniq bir tuman, viloyat va respublika miqyosida ularning shart-sharoitlariga qarab amalga oshiriladi.

Aytib o'tganimizdek, rejalashtirish aniq bir hududda tuziladi, biroq tumanda tuzilgan rejalashtirishdan viloyat prokuraturasida tuzilgan rejalashtirish farq qiladi, masalan, agar tuman prokuraturasining rejasida qonunning ijrosini tekshirish vazifasi qo'yilsa, viloyat prokuraturasining rejasida esa, ijroni tashkil etish yo'llari ifoda etiladi. Prokuratura organlarida ishlarni tashkil qilish rejali tartibda amalga oshiriladi. Ishni rejali tartibda amalga oshirish yuqori turuvchi prokuratura tomonidan quyi turuvchi prokuratura organlari faoliyatini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega, buning uchun esa Respublika Bosh prokurori tomonidan tasdiqlangan reja asos bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, rejalashtirish yuqoridan pastga qarab boradi, ya'ni viloyat prokuraturasida tuzilgan rejalashtirish tuman prokuraturasi uchun majburiy xarakter kasb etadi. Hozirgi vaqtda tuman prokuraturalarida rejalashtirishning aksariyat qismi viloyat va respublika prokuraturasida tuzilgan rejalarining kelib tushganidan keyin amalga oshiriladi. Yuqori organlarning rejalarida, ko'pincha, aniq bir tuman (shahar) prokuraturasi amalga oshirishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar bayon etilgan bo'ladi.

Rejalashtirishda bir qator masalalar, yo'llar belgilab olinadi, chunonchi:

birinchi navbatda, hal qilinadigan muammolar hamda ma'lum bir vaqt davomida amalga oshiriladigan ishlar belgilab olinadi;

mazkur muammolarni hal qilish uchun kerakli bo'ladigan dastur ishlab chiqiladi va ana shu dastur asosida nazorat olib boriladi;

belgilangan reja asosida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati muvofiqlashtirib turiladi;

amalga oshiriladigan ishlarining va belgilangan chora-tadbirlarning bajarilishi ustidan javobgarlikni belgilaydi;

prokuratura organlarida ishlar tashkiliy rejali asosda tashkil qilinadi;

rejani tuzishda ichki mehnat taqsimotiga rioya qilinadi.

Ko'rinib turibdiki, rejalashtirishda hal etilishi zarur bo'lgan prokuror nazoratiga daxldor masalalargina emas, balki belgilangan maqsadlarni bajarish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini aniqlash, prokuraturaning boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalari bilan hamjihatlik qilish shakllarini, ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni belgilangan muddatda bajarish uchun shaxsan mas'ul shaxslarni belgilash ham ko'zda tutiladi.

Rejalashtirishni tuzuvchi mas'ul shaxslar ushbu harakatni amalga oshirayotgan vaqtlarida shahardagi, viloyatdagi, Respublikadagi jinoyatchilikning va qonunchilikning ahvolini chuqur tahlil etgan holda o'sha hududdagi shart-sharoitlarni inobatga olib, o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari lozim. Rejalashtirishni tuzishdan maqsad faqat amalga oshiriladigan vazifalarni belgilab olishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki rejalashtirish asosida erishiladigan yutuqlarni ham o'z ichiga oladi.

Bosh prokuraturada rejalashtirish tuzilayotgan vaqtda hududdagi prokuratura organlari amalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risida o'zlarining takliflari bilan chiqadilar. Bu takliflar kollegial organ tomonidan ko'rib chiqilib, keyinchalik aniq bir joriy yoki istiqbolli rejalashtirish tuziladi, hamda ushbu rejalashtirish viloyat va tuman prokurorlari tomonidan bajarilishi lozim bo'ladi. Bundan tashqari, viloyat va tuman prokurorlari

o'z rejalarida, ya'ni ishlarni rejalashtirishda o'sha hudud uchun maqbul bo'lgan chora-tadbirlarni ham kiritishlari mumkin.

Prokurorlar rejalashtirishni tuzayotgan vaqtlarida asosiy e'tiborni jamiyatning «zaif» nuqtalariga qaratishlari kerak, misol qilib ma'lum bir tumanda voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyatchilik sodir etilishining o'sib borishi; bunday hollarda prokuror rejalashtirishda voyaga yetmaganlar bilan ishlash chora-tadbirlarini kuchaytirishlari lozim.

Rejalashtirish qonuniylikni har tomonlama va chuqur tahlil etish natijasiga asoslanishi lozim. Lekin, hamma vaqt ham boshqarish faqat tahlilot raqamlariga bog'lanib qolmasligi, aniqlangan raqamlardan prokuratura idorasini oqilona boshqarishda foydalanilish uslublaridan biri bo'lib qolmog'i lozim. Bu borada rejalashtirish va axborot-tahlilot ma'lumotlari bir maqsadda o'zaro mushtaraklashishi kerak.

Rejalashtirish asosida prokuratura faoliyatida ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan tadbirlarni belgilash va bu tadbirlar ijrosini ta'min etish amalga oshiriladi.

Rejalashtirish asosida tashkil etilgan tadbirlarga: prokuratura organlari faoliyatini ma'lum bir vaqt ichidagi, chorak, yarim yillik, 9 oylik, yillik vaqt mobaynidagi amalga oshirgan ishlarini umumlashtirish va tahlil qilish, prokuror nazorati faoliyatining ma'lum bir yo'nalishlari bo'yicha ijobiy amaliyotni vujudga keltirish, xodimlarning ishchanlik va kasbiy malakasini oshirish uchun hay'at majlislarida muhokama qilish va boshqalar kiradi.

Rejalashtirish turi sifatida jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish borasidagi prokurorning faoliyatini (majlislar o'tkazish, tahlil qilish, tegishli chora va tadbirlar belgilash) ham e'tirof etsa bo'ladi.

3-§. Ijro ustidan nazorat va rahbarlik

Ijro ustidan nazorat va rahbarlik bevosita prokuratura organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ijro ustidan nazorat va rahbarlik doimiy va harakatlanuvchi bo'lishi kerak. Buning uchun esa rahbar xodimlar-prokurorlar mas'uldirlar. Ijro ustidan nazorat mamlakatdagi qonunchilik

ustidan aniq va bir xilda prokurorlik nazoratini olib borishni ta'minlaydi. Bunda Bosh prokuror tomonidan chiqarilgan buyruqlar asosiy o'rin tutadi. Buyruqlardagi xarakterli tomon shundaki, amalga oshiriladigan tadbirlar ustidan nazorat olib borish aniq bir bo'lim rahbariyatiga yuklatilishi qayd etilgan.

Bosh prokuratura ijro ustidan nazoratni olib borishda hamma bo'lim va boshqarmalar jalb qilingan, bu o'rinda prokuratura organlarining bo'lim, boshqarma boshliqlari asosiy rol o'ynaydilar, chunki ularning o'zi nazorat tizimini boshqarib boradilar. Ijro ustidan nazoratni muvofiqlashtirishda muvofiqlashtiruvchi kengash tuziladi.

Ijro ustidan nazorat qilishning eng maqbul shakli bu yozma hisobotlar yoki og'zaki dokladlar, qaysiki bajarilishi lozim bo'lgan ishlar va topshiriq qay darajada bajarilganligini aks ettirmog'i lozim.

Nazorat qilishning yana bir shakli ijroni joyida tekshirish. Ushbu shaklning ijobiy taraflari shundaki, ijro joyida tekshirilganda ijroni kechiktirgan yoki uning bajarilishiga to'sqinlik qilgan holatlarni aniqlab qolmay, balki ularning oldini olish choralarini ham ko'rsatadi.

Nazorat qilishdan asosiy maqsad-prokuratura idoralari tomonidan olib boriladigan ijro ustidan nazorat va rahbarlik qilishda qonunlar va Bosh prokurorning buyruq va ko'rsatmalarining ijrosini yaxlit amalga oshirish hamda ularning qog'ozda qolib ketmasligini ta'minlash.

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, Harbiy va Transport prokurorlari apparatlarining tashkiliy ishi prokuratura faoliyatini takomillashtirish, quyi organlar ustidan rahbarlik qilishni yaxshilash, prokurorlik nazoratining asosiy yo'nalishlaridagi faoliyati va samaradorligini yuksaltirish, qonunchilik va huquq tartibotni mustahkamlashda ijobiy natijalarga erishishga yo'naltirish.

Tashkiliy-nazorat tarmoqlarining apparat va quyi organlar ishini tubdan yanada takomillashtirishda yangichasiga rahbarlik qilish usullarini ishlab chiqarish, prokuror-tergov xodimlarining

kasb mahorati va madaniyatini yaxshilash hamda ijro intizomini mustahkamlash borasidagi ishtiroki va ta'sirini oshirish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, Transport va Harbiy prokuraturalari hay'atlarining tarkibiga prokurorlarning tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'yicha katta yordamchilarini kiritishni zarur deb hisoblash.

2. Tashkiliy-nazorat xizmatchilari asosiy e'tiborni tarmoqlar orasidagi hamjihatlikni o'rnatishga, boshqarma va bo'limlarning qonunchilik va huquq tartibotning dolzarb muammolarini hal etishdagi sohalararo tarqoqlik va tor doiradagi ish yuritishni bartaraf etishga qaratish.

Predmetlilik prinsipini tiklash va tatbiq etish dolzarb masala hisoblanadi. Ishni predmetlar bo'yicha tashkil qilish muttasil ravishda tekshirib borish, bu ishdagi sustkashlikka nisbatan qat'iy choralar ko'rib, yo'l qo'yilayotgan nuqsonlarni bartaraf qilish yuzasidan takliflar tayyorlab prokuratura hay'atlariga kiritish.

Tarkibiy tarmoqlarning kompleks yondashuvini talab qilgan boshqa masalalar borasidagi hamjihatlikni doimiy nazorat ostiga olish.

3. Asoslantirilgan qarorlarni ishlab chiqarish maqsadida masalalarni hay'at muhokamasiga puxta tayyorlashga, taqdim etilayotgan hujjatlarning sifatiga talabni kuchaytirish, yuzaki tayyorlangan hujjatlarni qaytadan tayyorlash uchun yuborish. Ijrochilardan qarorlarning loyihalari ishlarining ahvoriga, mansabdor shaxslarning faoliyatiga berilgan baholarning mujassamligi, aniq vazifalarni, ularni bajarish uslublari va muhlatlarini belgilashni talab qilish.

Qabul qilingan qarorlarni bajarishni tashkillashtirish ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish, natijalari haqida hay'atga davriy ravishda axborot berib borish. Zarur bo'lganda apparatdagi tarmoqlar va quyi prokurorlar faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf qilish masalasini qo'yish. Davriy ravishda hay'at ishi umumlashtirilib, uni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish.

Ijro ustidan nazorat va rahbarlik hujjatlari

Quyida prokuratura organlariga ijro etilishi talab qilinib yuboriladigan hujjatlar (topshiriq, ko'rsatma, tanbeh) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Bosh prokurorning buyruqlari va ko'rsatmalari, hay'at qarorlari, ish rejalar, fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda boshqa huquqiy hujjatlar asosida tayyorlanadi.

Axborot-uslubiy xususiyatidagi hujjatlar (yo'naltiruvchi xat, ijobiy ish tajribasini ommalashtirish haqidagi xat) esa muayyan sohadagi ish jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirish, tahliliy faoliyat imkoniyatlaridan keng foydalanishga yo'nalish berish maqsadida tayyorlanadi.

Ijrosi barcha prokuratura organlariga taalluqli bo'lgan hujjatlar (yakka tartibdagi topshiriqlar bundan mustasno) tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi bilan kelishilgan holda tayyorlanadi va faqat Bosh prokuror yoki uning o'rinbosarlari tomonidan imzolanadi. Rejalashtirilgan davrda faoliyati kompleks tekshirilishi lozim bo'lgan prokuraturaga, qoida tariqasida, topshiriq yuborilmaydi.

4-§. Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish

Prokuratura organlariga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar orqali qonunlar ijrosi ustidan nazorat funksiyasidan tashqari, bir vaqtning o'zida jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi ham yuklatilganidir. Shu munosabat bilan ham barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar har oy, chorak va yillik hisobotlarini prokurorlarga topshiradilar.

Prokurorlar bu statistik hisobotlardan sodir etilgan jinoyatlar, ularning xarakteri, jinoyatlarning kelib chiqish shart-sharoitlari, jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, kim tomonidan sodir

etilganligi, kimga nisbatan sodir etilganligi, voqea sodir etilgan joy, vaqt, jinoyat sodir etish uslubi, jinoyat qurolining turi va hokazolar haqidagi ma'lumotlar majmuasidan jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirilib, tegishli reja tuzish va tadbirlar o'tkazishda foydalanadilar.

Koordinatsiya (lotincha *cordinatio* – so'zidan olingan) deganda «muvofiqlik», «kelishuvlilik», (koordinatsiyalash) muvofiqlashtirish deganda– ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatni o'rnatish tushuniladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyatchilikka qarshi kurash choralari samarali bajarish va asosiy faoliyat yo'nalishlarini kelishuvchilik asosida ta'minlash maqsadida o'z faoliyatlarini muvofiqlashtiradi.

Muvofiqlashtirishning asosiy maqsadi jinoyatga qarshi kurashuvchi strukturalarning o'zaro bog'liq va hamkorlikda harakat qilishini ta'minlash, jinoyatlarni tez, to'la har tomonlama aniqlash, tergov olib borish, ochish hamda vakolatli organlarga uning yuzaga kelish sabab va sharoitlarining oldini olishga qaratilgan choralarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Predmeti – huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorligini yengillashtirish, ularning umumiy vazifalari, ularning har biriga xos bo'lgan huquqiy, tashkiliy, informatsion va boshqa vosita, shakl va uslublarni tahlil qilishdan iborat.

Koordinatsiya natijasi jinoyatchilikka qarshi kurash borasida yuqori cho'qqilarga erishish hisoblanadi.

Bunday vakolatni qonun Bosh prokuror va unga bo'ysunuvchi prokurorlarga beradi.

Bu borada: prokuror muvofiqlashtiruvchi kengash chaqiradi, statistik va boshqa ma'lumotlarni talab qiladi, turish doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini o'rgangan holda ularni birlashtirish masalasini ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 8-moddasida «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish» tartibi belgilangan bo'lib, unda ko'rsatilishicha, «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi

prokurorlar jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini, ta'minlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan tegishli organlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan organlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun prokuror muvofiqlashtiruvchi kengash chaqiradi, ishchi guruhlar tashkil etadi, zarur axborot, shu jumladan statistika ma'lumotlarini talab qilib oladi, qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi» deb qayd etilgan.

5-§. Muvofiqlashtirish prinsiplari

Jinoyatchilikka qarshi kurashish organlarining faoliyati, muvofiqlashtirishda ishtirok etuvchi barcha huquqni muhofaza qilish organlari uchun majburiy, belgilagan asosiy me'yoriy manbalarga tayangan holda prokurorlar tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish asosan **qonuniylik** tamoyiliga asosan amalga oshiriladi. Bu tamoyil avvalambor prokuraturaning har bir organlari, har bir huquqni muhofaza qiluvchi organ va har bir xodim jinoyatga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonini qonunga qat'iy rioya qilgan holda va qonun asosida amalga oshirilishini bildiradi.

Muvofiqlashtirishning keyingi bir tamoyili bu – **o'zaro hamkorlik** bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar tomonidan doimiy ravishda jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha o'zaro tadbirlar o'tkazish va birgalikda faoliyat ko'rsatish va samarali natijalarga erishish hisoblanadi. Bu tamoyilga asosan muvofiqlashtirish faoliyatining barcha ishtirokchilari kengashda ko'rib chiqish uchun takliflar kiritishi, tadbirlar ishlab chiqishda va maslahatda teng huquqlardan foydalanishadi.

Mustaqillik tamoyiliga asosan har bir huquqni muhofaza qiluvchi organ muvofiqlashtirish kengashining qarori va tadbirlarini bajarishda mustaqildir. Bunda u o'z vakolatlarini qonunda belgilangan huquqiy maqomi bo'yicha, ya'ni tergov va surishtiruvga taalluqli bo'lgan qonunlar, faoliyatini belgilovchi

qoida va nizom, ko'rsatma va yo'riqnomalar asosida amalga oshiradi. Har bir huquqni muhofaza qiluvchi organ rahbari muvofiqlashtiruvchi kengash qarorining ijrosi uchun o'zlariga tegishli qismi bo'yicha mustaqil javobgar hisoblanadi.

6-§. Muvofiqlashtirish faoliyatining asosiy yo'nalishlari va shakllari

Muvofiqlashtirish faoliyatining asosiy yo'nalishlari – bu jinoyatchilik holatining bargalikdagi tahlili, uning tizimi va dinamikasi, rivojlanish sur'atini belgilash, jinoyatni aniqlash, terqash, fosh etish, ogohlantirish va oldini olish tajribasini o'rganish; jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha xalqaro shartnomalar va chet mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan bitimlar tuzish va kelib chiqadigan takliflarni ishlab chiqish tajribasini umumlashtirish; chet el huquqni muhofaza qiluvchi organlarining ijobiy tajribalarini o'rganish va faoliyatda tatbiq etishda ifodalanishdir.

Asosiy yo'nalishlari:

O'zaro tahlil – jinoyatchilik ahvoli, uning statik va dinamik holati, tendensiyalarning bashorati (prognozi), jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish, ochish, uni aniqlashtirish va oldini olish borasidagi faoliyatlar hisoblanadi. Bunda dasturlar ishlab chiqiladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash masalasi yuzasidan informatsiya huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan Prezident, Oliy Majlis va hukumatga beriladi.

Umumlashtirish – huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan huquqiy tartibga solish faoliyati yuzasidan amaliyotni birlashtirib, takliflar kiritishdir.

Unda quyidagilar ishtirok etadilar:

Prokuratura organlari, ichki ishlar, milliy xavfsizlik, soliq, bojxona, O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi huzuridagi soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va boshqa huquqni muhofaza qilish funksiyasi (surishtiruv, dastlabki tergov, tezkor-qidiruv, jinoiy sudlovda protsessual nazoratni amalga oshiruvchi) mavjud bo'lgan organlar qatnashadilar.

Muvofiqlashtirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari ishtirokida koordinatsion kengash majlislari o'tkazish;

Jinoyatga qarshi kurash bo'yicha joriy axborot almashuvi;

Ijobiy tajribani rivojlantirish maqsadida joylarda o'zaro harakat qilish, tekshiruv va quyi turuvchi organlarga jinoyatchilikka qarshi kurash yuzasidan yordam berish;

Aniq jinoyatlarni tergov qilish uchun tergov – operativ guruhlar tuzish;

Aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish, xodimlarning malakasini oshirish, seminarlar, konferensiyalar o'tkazish, xavfsizlik choralarini ko'rish;

O'zaro qarorlar, buyruqlar, axborot xati, oriyentirovka va boshqa tashkiliy ijro hujjatlarini ishlab chiqish, to'plamlar tuzish, yarim yillik va istiqbolli rejalar tuzish.

Bu maqsadga erishish uchun sudlar bilan hamkorlik qilinadi.

O'zining ahamiyati yuzasidan doimiy va dinamika yo'nalishlarga bo'linadi. Asos – har bir hudud, mamlakatdagi huquqiy holat.

Doimiy yo'nalishga misol qilib tegishli davlat hokimiyat va boshqaruv organlarining qonunga muvofiq huquqiy aktlarini nazorat qilishini keltirishimiz mumkin. Chunki ular fuqarolarning huquq va erkinliklariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Dinamika esa ma'lum davr ichida qonunchilikka ta'sir qiluvchi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni ijro etishi ustidan nazorat kiradi. Masalan, mehnat, uy-joy, pensiya va fuqarolarning boshqa huquqlari.

Ijtimoiy-iqtisodiy, kriminal va boshqa holatlarni inobatga olib yo'nalishlar belgilanishi mumkin. Bu ko'pincha Bosh prokuror buyruqlari, yo'riqnomalari va tasdiqlangan nizomlarida aks ettiriladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Prokuratura organlarida ishlarni tashkil etish nima?
2. Prokuratura organlarida ish yuritish va ijroni nazorat qilish tartibini ayting?

3. Muvofiqlashtirishning asosiy maqsadi va predmeti nima?
4. Muvofiqlashtirish faoliyatining asosiy prinsiplari qanday?

1-kazus

Ma'lumot to'plash tezkor-qidiruv tadbiridan ko'zlangan maqsad tekshirilayotgan shaxsning g'ayriqonuniy faoliyatga aloqadorligini aniqlash imkonini beradigan ma'lumotlarni – shaxsning tarjimai holi, qarindoshlik aloqalari, ma'lumoti, mashg'ulot turi, mulkiy ahvoli, yashash joylari, boshidan o'tkazgan kasalliklari, avvalgi sudlanganliklari, o'tmishda yo'l qo'yilgan huquqbuzarlik faktlari kabilarga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

2016-yil 23-mart kuni Guliston shahar 1-mavzesi Kubayev ko'chasida yashovchi, 1986-yilda tug'ilgan, Soipov Akmal Sharipovichning xonadonida sodir etilgan o'g'irlik jinoyatda gumon qilinayotgan muqaddam O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi 2-qismi bilan sudlangan fuqaro Qodirov Rashid Erkinovichga nisbatan tezkor-qidiruv tadbirlari uyushtirilishini rejalashtirish zarur.

Prokurorning vakolatlari doirasini belgilang va vaziyatni amaldagi qonunchilikka ko'ra tahlil eting.

2-kazus

2016-yil 9-avgust kundan 10-avgust kuniga o'tar kechasi taxminan soat 01:00 larda Toshkent shahar, Chilonzor tumani, 1-mavzesi, 4-uy oldida fuqaro A. Ismatov ayblanuvchi S. Qo'ziyev bilan o'zaro suhbatlashuv jarayonida A. Ismatov jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimasdan, ayblanuvchi S. Qo'ziyevni haqoratlab, uning kiyimlari ustidan masxara qilib, urib tan-jarohati yetkazgan va S. Qo'ziyevga uyali telefon apparatini berishini talab qilgan.

O'tkazilgan sudga oid tibbiyot ekspertizasining 2016-yil 1-sentabrdagi 875-sonli xulosasiga ko'ra, S. Qo'ziyevga og'irlik darajasi bo'yicha sog'lig'ini qisqa muddatga buzilishiga olib kelmagan «Yengil» tan jarohati yetkazilganligi aniqlangan.

Shundan so'ng, ayblanuvchi S. Qo'ziyev o'ziga qarashli «Nokia 1280» uyali telefon apparatini berganida A. Ismatov o'zgani mulkini ochiqdan-ochiq egallash maqsadida uning telefon apparatini qaytarib bermasligini ma'lum qilgan. S. Qo'ziyev shimini cho'ntagidan pichoqni olib, A. Ismatovning hayoti uchun xavfli bo'lgan a'zosi, ya'ni chap tomon ko'krak qafasiga, o'ng qo'l 1-barmoq bilak sohasiga ushbu pichoq bilan urgan va A. Ismatov voqea joyida vafot etgan.

O'tkazilgan sud-tibbiy ekspertizasining 2014-yil 3-oktabrdagi 428-sonli xulosasiga ko'ra A. Ismatovning o'limi: ko'krak qafasiga chap tomonlama kirib boruvchi sanchilib-kesilgan yarasi, chap o'pka, yurak xaltasi, aortaning jarohatlanishi, yurak xaltasiga qon quyilishi, gemopnevtoraks (o'pka pardasida qon va kislorodni yig'ilib, siqilib qolishi), tashqi va ichki qon ketishlar bilan asoratlanishi natijasida yuz berganligi aniqlangan.

Tergov jarayonida S. Qo'ziyev o'z harakatlarini kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etganligini ta'kidlagan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

IX bob. SUDLARDA JINOYAT ISHLARI KO'RILISHIDA PROKURORNING ISHTIROKI

1-§. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda prokuror ishiroki tushunchasi va uning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 1994-yil 22-sentabr kuni qabul qilingan va 1995-yil 1-aprel kundan boshlab kuchga kirgan bo'lib, ushbu kodeksda jinoyat protsessi ishtirokchilarining bir turi sifatida prokuror, uning vakolatlari, surishtiruv va dastlabki tergov organlari, shuningdek tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning qonunlarning ijro etishi ustidan prokuror nazorati, dastlabki tergov ustidan prokuror nazorati, birinchi instansiya sudlarida, shuningdek jinoyat ishining apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rilishida ishtirok etishi hamda boshqa holatlar belgilab qo'yildi.

Shu bilan birga, 2001-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilinishi, sudlarda prokuror ishtirokini asosiy maqsad va vazifalari, fuqarolarning va tashkilotlarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilishni har tomonlama kafolatlashni yangi bosqichga olib chiqdi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2015-yil 27-noyabrdagi «Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ishlar ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligini yanada oshirish to'g'risida»gi 126-son buyrug'i qabul qilingan va ushbu buyruq asosida O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ishlar ko'rilishidagi asosiy vazifalari quyidagicha belgilandi: «Qonunda belgilangan vakolatlar orqali sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga erishishdan hamda qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlashdan iborat.»

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ishlar ko'rilishida prokuror vakolatlari quyidagilardan iborat:

jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylik, ijtimoiy adolat, tinchlik va milliy totuvlikni mustahkamlashga;

jinoyat protsessi prinsiplariga qat'iy amal qilgan holda prokuror ishtirokini malakali ta'minlash orqali fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoyalashga;

sud qarorlarining qonuniyligini apellatsiya muddatida o'rganib, noqonuniy, asossiz va adolatsiz qarorlarga protest keltirilishini ta'minlashga;

sud qarorlarini murojaatlarga asosan o'rganish va aniqlangan qonunbuzilishlarni bartaraf etish.

Ishning murakkabligi va dolzarbligini inobatga olib, ayblovni davlat ayblovchilari guruhi tomonidan quvvatlash amaliyotidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2015-yil 27-noyabrdagi 126-son buyrug'ida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan va o'ta og'ir turdagi jinoyatlar bilan bog'liq ishlarning sudda ko'rilishida prokuratura organlarining ish o'rganuvchilari davlat ayblovini quvvatlashiga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

Shu bilan birga, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari tomonidan boshqa hududda ishlarning ko'rilishida prokuror vakolatini ta'minlash qoida tariqasida, ish ko'riyotgan tuman (shahar) prokurori tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

2-§. Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlashda prokuror ishtiroki

Jinoyat ishini sudda ko'rishga tayinlash jinoyat protsessining mustaqil bosqichi bo'lib, unda jinoyat ishini keyingi taqdiri hal qilinishi mumkin. Sud faoliyatining aynan shu bosqichidan prokurorning tortishuvni chuqurlashtirishga qaratilgan ayblov funksiyasi boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunida bu funktsiya aniq o'z ifodasini topgan. Jumladan,

Qonunning 33-moddasida «Prokuror sudlarda jinoyat ishlari ko'rilayotganda davlat ayblovini quvvatlaydi. Prokuror sudda dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, qonunning qo'llanishi xususida o'z fikrini bildiradi», 35-moddasida «Prokuror protsessual qonunda belgilangan tartibda o'z vakolatlari doirasida sudning hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi va qaroriga protest keltirishga haqli», deb bayon qilingan.

Jinoyat ishini sudda ko'rishga tayinlash bosqichida ayblov funksiyasi to'la namoyon bo'lmaydi, negaki protsessning ushbu bosqichida sudya ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning aybdorligi to'g'risidagi masalani emas, balki jinoyat ishini sud muhokamasiga tayinlash masalasini hal qiladi. Faqat sud muhokamasini muvaffaqiyatli o'tkazishga xalal beruvchi asoslarga (jinoyat ishini to'xtatish yoxud tugatish uchun asoslar va boshqalar) tekshiriladi.

Jinoyat ishini sudda ko'rishga tayinlash bosqichida prokuror ishtiroki bir muncha cheklangan. Xususan, amalda ishni tugatish yoki jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash to'g'risidagi qaror qabul qilingandan keyingina prokuror jinoyat protsessining ushbu bosqichida ishtirok eta oladi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 402-moddasida protsess ishtirokchilarini jinoyat ishi materiallari bilan tanishtirish tartibi bayon qilingan. Ammo mazkur holatda protsess ishtirokchilarining ishdagi barcha materiallar bilan tanishib chiqishlari va o'zlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni ko'chirib olishlari mumkinligi bayon qilingan.

Davlat ayblovchisining sud majlisiga tayyorgarlik ko'rishi bir-biriga o'zaro bog'langan quyidagi tarkibiy qismdan iborat bo'lishi mumkin¹:

1) ish materiallarini o'rganishning muayyan taktik usullarini qo'llash;

2) ishlarning aniq toifasiga aloqador bo'lgan maxsus adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va sud amaliyotini o'rganish;

¹ Po'latov B. Davlat ayblovchisining sud muhokamasiga tayyorgarlik ko'rish dasturi. – T., 2002.

- 3) jinoyat ishi materiallarini umumlashtirish va tahlil qilish;
- 4) sud majlisi davomida paydo bo'ladigan turli vaziyatlarni bashorat (prognoz) qilish hamda ularni hal qilishda foydalaniladigan taktik usullar yig'indisi;
- 5) ayblov versiyasini tuzish;
- 6) davlat ayblovini quvvatlash borasidagi o'z faoliyatini kompleks holda rejalashtirish.

Mazkur qoidalarni puxta bilish va ulardan foydalanish davlat ayblovini quvvatlovchi prokurorga sud protsessiga qisqa muddatlarda sifatli tayyorgarlik ko'rishga imkon yaratadi.

Birinchi navbatda, ayblov dalolatnomasini yoki ayblov xulosasini o'rganib chiqish lozim bo'ladi. Bu esa aniq bir jinoyat ishi bo'yicha isbotlash predmeti va chegaralariga aniqlik kiritish imkonini beradi hamda tergovchi bu yo'nalishda nima ishlar qilgani va qilolmagani, tergovchi tomonidan maromiga yetkazilmagan ishni sud majlisida to'ldirish mumkinligi va bunga prokuror qay tarzda yordam bera olishi haqida, tasavvur hosil qiladi.

Hozirgi kunda davlat ayblovchisi sifatida qatnashayotgan prokuror, uning o'rinbosari yoki prokuror yordamchisi jinoyat ishi materiallari bilan quyidagicha tanishmoqdalar, ya'ni:

1) Surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan jinoyat ishi bo'yicha tuzilgan ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasini tasdiqlatishga ularning ustidan nazoratni olib borayotgan prokurorga olib kelgan vaqtda jinoyat ishi bilan birga ikkita nazorat ishini ham olib keladi;

2) Nazoratni amalga oshirayotgan prokuror jinoyat ishini va nazorat ishlarini tasdiqlab, mazmunan ko'rib chiqish uchun sudga yuboradi. Ushbu holatda bitta nazorat ishi surishtiruvchi yoki tergovchida qoladi, ikkinchi nazorat ishi hududiy tegishligiga ko'ra prokuraturaga yuboriladi.

Jinoyat ishi bo'yicha tuzilgan nazorat ishida, qoida tariqasida, quyidagilar mavjud bo'ladi:

- jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror;
- jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qaror;

– jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qaror;

– ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qaror;

– ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasi va h.k.

Ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasi bilan bir qatorda himoya tomoni iltimosnomasini o‘z ichiga olgan protsessual hujjatlarni o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida ayblanuvchining pozitsiyasini aniqlash va himoya tomoni e‘tiroz bildirish ehtimoli bo‘lgan dalillar doirasini belgilab olish mumkin. Bu dalillarni ushbu mavjud holatlarni inobatga olgan holda o‘rganish kerak bo‘ladi.

3-§. Sud majlisining tayyorlov qismida prokurorning ishtiroki

Sud majlisining tayyorlov qismida butun sud muhokamasini olib borish taktikasi (yo‘nalishlari) belgilab olinishi bois davlat ayblovchisi ushbu qismda o‘z ishiga puxta tayyorlangan holda yondoshishi kerak.

Sud tergovni boshlanishidan avval protsess ishtirokchilarining sudga kelgan-kelmaganligi tekshiriladi va raislik qiluvchi tarafdorlarga ularning protsessual qonunchilikda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, sud tarkibini e‘lon qiladi, kimlar davlat ayblovchisi, jamoat ayblovchisi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar va kimlar ularning vakillari ekanligini, kimlar sud majlisining kotibi, ekspert, mutaxassis, tarjimon ekanligini ma‘lum qiladi va sudlanuvchiga ularni rad qilish huquqini tushuntiradi. Davlat ayblovchisi sud majlisida bu qoidalarning qo‘llanilishini kuzatib borishi va qonunchilik buzilganligini aniqlaganda bu haqda sudga axborot berishi lozim. Chunki bunday salbiy holatlar oxir-oqibatda sudning noqonuniy hukm chiqarishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Sud muhokamasining tayyorlov qismida prokuror ishtirokini samarali ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir:

sud majlisini o‘tkazish joyi va vaqti haqida prokurorni xabardor qilish, sud muhokamasiga tayyorgarlik ko‘rish uchun

zarur bo'ladigan jinoyat ishi materiallari, shu jumladan ayblov xulosasini prokurorga taqdim qilish, prokurorni jinoyat ishi va sud majlisiga chaqirilgan shaxslar ro'yxati bilan tanishtirishdan iborat bo'lgan, sud majlisining tayyorlov qismida prokuror ishtirokini ta'minlash yuzasidan tashkiliy-huquqiy choralarni ko'rish;

Prokurorda:

1) sudlanuvchiga qo'yilgan ayblov haqiqatdan ham sodir etilganligiga va u aniq jinoyat tarkibi alomatlariga egaligiga;

2) sudlanuvchiga qo'yilgan ayb jinoyat ishi materiallarida mavjud bo'lgan tegishli dalillar bilan isbotlanganligiga;

3) sudlanuvchining barcha jinoiy harakatlari aniqlanganiga, unga e'lon qilinganiga va ular ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasida aks ettirilganiga;

4) jinoyat ishi bo'yicha jinoyat sodir etishda ishtirok etgan shaxslarning barchasi javobgarlikka tortilganligiga;

5) jinoyat ishini harakatdan tugatish uchun hech qanday sabab va asoslar mavjud emasligiga;

6) sudlanuvchilarning harakatlari JKning maxsus qismiga muvofiq to'g'ri tasniflanganligiga;

7) sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasi to'g'ri tanlanganiga;

8) fuqaroviy da'voni ta'minlash uchun barcha choralar ko'rilganligiga;

9) jinoyat sodir etilishiga imkon bergan barcha sabab va sharoitlar aniqlanganiga va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ko'rilganiga;

10) ish bo'yicha surishtiruv yoki dastlabki tergov har tomonlama, to'liq va xolis o'tkazilganiga;

11) ayblov xulosasi JPKning 379–380, 381¹²-moddalariga muvofiq tuzilganiga qat'iy ishonchning mavjudligi;

12) prokurorning sudda davlat ayblovini quvvatlash funksiyasi maqsadlariga erishishga bo'lgan ruhiy ishonchi. Bu maqsad-aybdor shaxsga nisbatan qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ayblov hukmi chiqarish, sudga aybsiz shaxs tortilgan taqdirda esa qonuniy, asoslantirilgan va adolatli oqlov hukmi chiqarilishiga erishishda o'z ifodasini topadi;

13) prokurorning sud muhokamasining tayyorlov qismida bevosita ishtiroki. Bunda prokuror ayblovni quvvatlovchi taraf sifatida, sud muhokamasini muvaffaqiyatli o'tkazishda sudga har tomonlama yordam ko'rsatish maqsadida JPKda belgilangan protsessual huquq va burchlarini amalga oshiradi.

4-§. Sud tergovida prokurorning ishtiroki

Jinoyat ishlarini birinchi instansiyada ko'rishda sud tergovi birmuncha murakkab bosqich hisoblanadi. Shu sababli ushbu bosqich davlat ayblovchisidan chuqur bilimni talab etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi JPKning 439-moddasida belgilab qo'yilganidek, «Sud tergovi ayblov xulosasining xulosa qismida bayon etilgan, sudlanuvchiga qo'yilgan ayblovni yoxud ayblov dalolatnomasida bayon etilgan ayblovning mazmunini davlat ayblovchisi tomonidan o'qib eshittirishdan boshlanadi. Raislik qiluvchi sudlanuvchidan ayblovning mohiyati unga tushunarli yoki tushunarsiz ekanligini va o'z aybiga iqrorigi yoki iqror emasligini so'raydi».

Davlat ayblovini quvvatlovchi prokuror sudga dalillarni tekshirishning ilmiy asoslangan tartibini tavsiya etishi kerak. Bu esa shu uchun ahamiyatli bo'lgan barcha holatlarning aniqlanishini, dastlabki tergovning ehtimol tutilgan kamchiliklari to'ldirilishini, dalillar xolis va to'liq tekshirilishini, har bir sudlanuvchining aybi individuallashtirilishini ta'minlaydi.

Agar sud u taklif etgan dalillarni tekshirish tartibini o'z ajrimi bilan tasdiqlasa, prokurorga o'z taktik vazifalarini hal etish osonroq kechadi.

Sudlanuvchining o'z aybiga iqrorigi yoki iqror bo'lmaganligi omili ham bu masalada prokuror tutgan yo'nalishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin¹. Biroq bu omil va dalillarni tekshirish tartibi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni aniqlash mumkin emas. Ayrim hollarda, sudlanuvchi o'z aybiga iqror bo'lganda ham, iqror bo'lmaganda ham sud tergovi sudlanuvchini so'roq qilishdan boshlanadi.

¹ Петелин Б.Я. О криминалистической теории установления вины // Государство и право, – 2011, – № 5. – С. 113–119.

Ayrim hollarda sodir etilgan jinoyat turi va xarakteri ham dalillarni tekshirish tartibini aniqlashga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Prokuror dalillarni tekshirish tartibi masalasi bo'yicha o'z taklifida bularning barchasini e'tiborga olishi zarur.

Dalillarni tekshirish tartibini rejalashtirish ko'p jihatdan aniq jinoyat ishi bo'yicha ayblov e'lon qilingan shaxslar soniga va ularga e'lon qilingan jinoiy epizodlar miqdoriga ham bog'liq. Adabiyotda ko'p epizodli ishlar bo'yicha dalillarni tekshirish tartibini belgilashning quyidagi variantlari taklif etiladi:

1) har bir epizod bo'yicha dalillarning butun majmuasi tekshiriladi;

2) sudlanuvchi va guvohlar har bir epizod bo'yicha alohida so'roq qilinadi, qolgan dalillar esa epizodlarga bo'linmasdan tekshiriladi;

3) alohida epizodlar bo'yicha faqat sudlanuvchilar so'roq qilinadi, boshqa dalillar esa epizodlarga ajratilmasdan tekshiriladi, lekin har bir sudlanuvchiga nisbatan konkretlashtiriladi¹.

Ko'pgina hollarda e'lon qilingan ayblovga nisbatan har xil munosabatda bo'lgan bir necha sudlanuvchi jinoyat ishiga jalb etiladi. Davlat ayblovchisi dalillarni tekshirish tartibini belgilar ekan, ularni qanday izchilikda so'roq qilish lozimligini hal qilishi lozim. Prokurorga yolg'on tuyulgan ko'rsatmani bergan shaxs ta'siri ostida boshqa sudlanuvchilar o'z ko'rsatmalarini o'zgartirish uchun birinchi navbatda aniq ko'rsatma bergan shaxslarni so'roq qilish to'g'ri bo'lib ko'rinadi.

So'roq qilinuvchining dastlabki tergov bosqichida bergan o'z ko'rsatmalarini rad etishi davlat ayblovchisi ishini murakkablashtiruvchi omil sanaladi. Bunday holat amaliyotda tez-tez uchrab turadi. Prokuror jabrlanuvchi yoki guvohlardan birortasi ko'rsatmasini o'zgartirgani va buni sud majlisida bildirmoqchi ekanligi haqida ma'lumotga ega bo'lsa, sudni ushbu shaxslarni birinchi navbatda so'roq qilishga yo'naltirish lozim. Negaki bu ularni sudlanuvchi bilan o'zaro til birlashtirishiga imkon tug'diradi hamda sudlanuvchining keyingi ko'rsatmasini aniqlab berishi mumkin.

¹ Кириллова Н.П. Участие государственного обвинителя в судебном следствии. Конспект лекции. – СПб., 2002, – С. 6.

Guvohlar bir necha kishidan iborat bo'lib, ularning bir qismi yolg'on va bir qismi to'g'ri ko'rsatmalar berganda, so'roqni davlat ayblovchisi fikricha to'g'ri ko'rsatmalar bergan guvohlardan boshlash, so'ngra esa qarama-qarshiliklarni bartaraf etish uchun shaxmat usulida so'roq qilish imkoniyatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tergovchi qo'lga kiritgan dalillar soni va salmog'i hamda dastlabki tergov sifati dalillarni tekshirish tartibini belgilashga ta'sir ko'rsatmasi muhim omillardan biridir¹. Agar o'tkazilgan dastlabki tergov sifatining pastligi prokurorga ayon bo'lsa, sudlanuvchi so'roq qilingandan so'ng avval kamroq shubha tug'diruvchi dalillarni, keyin esa dastlabki tergov kamchiliklarini to'ldirish uchun alohida sinchkovlikni talab etadigan dalillarni tekshirishni taklif qilish o'rinli bo'ladi.

Jinoyat ishi bo'yicha katta hajmdagi guvohlik manbasi mavjud bo'lgan hollarda prokuror jinoyat ishi materiallarini o'rganish paytidayoq guvohlarni qanday tartibda so'roq qilishni belgilab olishi va sudga ularni ma'lum bir kunda chaqirishni tavsiya qilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki guvohlarning bir necha haftalab yoki oylab sudda bo'lishi kabi holatlarining oldini olish lozim.

Yuqorida dalillarni tekshirish tartibi masalasida bayon etilganlarning barchasini e'tiborga olgan holda prokuror ko'rsatilgan omillarning barchasini u yoki bu darajada inobatga olishi, shundan keyingina sudga beriladigan to'g'ri va asosli taklifini tayyorlashi lozim.

Sud tergovni sudning turli harakatlari yig'indisidan iborat. So'roq qilish ana shu sud harakatlaridan biri hisoblanadi. So'roq qilish ancha keng tarqalgan sud harakati hisoblanadi va butun davlat ayblovini quvvatlash sifati uni mohirlik bilan o'tkazishga bog'liqligi bois prokuror so'roq qilish taktikasini puxta egallagan bo'lishi kerak.

So'roq qilinuvchi dastlabki tergov bosqichida o'z ko'rsatmalarini qayta-qayta o'zgartirgan taqdirda, keyinchalik

¹ Комлев Б. Исключение доказательств, полученных в других государствах, из перечня доказывания. Законность, 2010, № 3, – С. 21–24.

har qanday paytda so'roq qilinuvchining ushbu ko'rsatmalarini o'qib eshittirishni raislik qiluvchidan so'rashga tayyor turish uchun davlat ayblovchisi ularni bu ko'rsatmalarini aks ettirgan ustunga ko'chirib yozib, ularni jinoyat ishida ish varaqlari raqamlari bilan belgilab qo'yish maqsadga muvofiqdir.

So'roq qilish samaradorligi ko'p jihatdan so'roq qilinuvchi bilan psixologik (ruhiy) aloqa o'rnata olishiga bog'liq. Binobarin, bu davlat ayblovchisining psixologik madaniyati uning kasbiy mahoratini belgilovchi omillardan biridir. Davlat ayblovchisi faoliyatining muhim kasbiy jihati bu aloqa o'rnata bilish jihatidir. Bunda aloqa o'rnata bilish va muloqotga kirishish mahorati asosiy kasbiy tavsiflardan biridir. Kommunikativ faoliyat davlat ayblovchisining ishida yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning kasb mahorati darajasini ko'p jihatidan belgilab beradi. Bu o'rinda davlat ayblovini quvvatlash jarayonida ushbu faoliyatning muayyan darajada differentsiyalashuvi (turlanishi) xususida so'z yuritish mumkin.

Prokuror davlat ayblovini quvvatlash jarayonida o'z kommunikativ qobiliyatini ro'yobga chiqarar ekan, muloqot olib borishning mohir ustasi, tajribali munozarachi va yagona maqsad sari yo'naltirilgan, uning ishtirokchilari bilan mustahkam aloqa o'rnatishga intilishga xos bo'lgan ajoyib sud notig'i bo'lishi kerak¹.

Sudda so'roq qilishda quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin: kirish, erkin so'zlab berish va savol-javob.

Kirish bosqichi so'roq qilinuvchining shaxsi haqidagi ma'lumotlarni olish va agar jabrlanuvchi va guvohni so'roq qilish haqida so'z borayotgan bo'lsa, ko'rsatma berishdan bosh tortganlik va yolg'on ko'rsatmalar berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirishdan iborat. Amaldagi qonunga ko'ra, raislik qiluvchi, birinchi navbatda, so'roq qilinuvchiga ishning unga ma'lum bo'lgan holatlari to'g'risida so'zlab berishni taklif etadi. So'roq qilishning mazkur bosqichi mavjudligi so'roq qilinuvchiga voqeani o'zi qanday tasavvur qilsa, shundayligicha bayon etish va o'zi lozim deb hisoblagan hajmda ma'lumot berish

¹ Васильев В.Л. Психологическая культура прокурорско-следственной деятельности. Учебное пособие. – СПб., 2009. – С. 31.

imkonini yaratadi. Agar mazkur bosqich chetlab o'tiladigan bo'lsa, qandaydir ma'lumot qatlami talab qilib olinmay qolinishi mumkin va bu sud tergov natijasida o'z aksini topadi. Agar raislik qiluvchi prokurorga so'roq qilishni birinchi bo'lib boshlashni taklif qilishi, prokuror so'roq qilishda erkin so'zlab berish bosqichini ta'minlashi lozim.

Davlat ayblovchisi ishora qiluvchi savollar, ya'ni kutilayotgan javobga bevosita yoki bilvosita yo'naltirish mazmunidagi savollar berishga yo'l qo'yilmasligini yodda tutmog'i lozim. Har qanday holatda savollar shunday tuzilishi kerakki, so'roq qilinuvchi undan hech qanday axborot ololmasdan faqat o'z xotirasiga murojaat qilishga majbur bo'lsin. Ba'zan ayrim himoyachilar to'satdan paydo bo'lgan fikrlarini o'z himoyasi ostida bo'lgan shaxs bilan o'rtoqlashish vositasi sifatida foydalanib, ishora qiluvchi, chalg'ituvchi savollar berishadi. Ayrim paytda esa sud protsessi jarayonida kutilmaganda yangi himoya versiyasi ham paydo bo'lib qoladi. Savodxon raislik qiluvchi bunday savollarni olib tashlaydi, lekin bu ish raislik qiluvchi tomonidan qilinmagan bo'lsa, davlat ayblovchisi sud majlisi bayonnomasiga kiritish bilan savolni olib tashlashni taklif qilishi shart.

Dastlabki tergov bosqichi bilan taqqoslaganda davlat ayblovchisi sudda amalga oshiradigan so'roq qilish shakllari o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Sudda so'roq qilish asosiy, kesishma va shaxmat usulida o'tkazilishi mumkin. Odatda ma'lum bir shaxs sud va sud protsessining boshqa ishtirokchilari tomonidan so'roq qilinadi. Bu so'roq qilishning asosiy shakli hisoblanadi. Kesishma usulida so'roq qilish deb, bir shaxsni so'roq qilish jarayonida tomonlar uning ko'rsatmalarini tekshirib ko'rish, to'ldirish yoki ularga aniqlik kiritish maqsadida unga navbati bilan bitta holatga doir savollar beradilar.

Davlat ayblovchisi kesishma usulida so'roq qilish ko'nikmasini egallagan bo'lishi majburiydir. Bu usul qarama-qarshiliklarni ochib tashlashga, jinoyat holati detallarini aniqlashtirish, so'roq qilinuvchining yolg'on ko'rsatmalar berayotganligini fosh qilish va nihoyat, ko'rsatmalarni muhim dalillar bilan boyitishga imkon yaratadi.

Davlat ayblovchisi so'roq qilishning muhim shakllaridan biri bo'lmish shaxmat usulida so'roq qilishni ham puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Uning mohiyati shundan iboratki, so'roq qiluvchi bitta shaxsni so'roq qilayotganda yo'l-yo'lakay boshqa shaxslarga ham savollar beradi. Uning maqsadi o'zga shaxs ko'rsatmalarini tasdiqlash yoki inkor etishdan iborat. Shaxmat usulida so'roq qilishning kesishma usulda so'roq qilishdan farqi shundaki, shaxmat usulida bir kishi, kesishma usulida ko'proq kishi so'roq qiladi. Shaxmat usulida so'roq qilishda bitta va aynan o'sha holat bitta so'roq qiluvchi tomonidan bitta shaxsni so'roq qilish bilan aniqlanadi.

Shaxmat usulida so'roq qilishni o'tkazish zaruriyati ko'proq himoyachida emas, balki davlat ayblovchisida paydo bo'ladi. Chunki himoyachi mavjud qarama-qarshiliklarni bartaraf etishdan manfaatdor emas, aksincha, u bu qarama-qarshiliklardan ayblov versiyasini qoralash uchun foydalanadi. Shu boisdan aynan prokuror oldida so'roq qilishni ushbu shaklda o'tkazish yo'li bilan ishdagi mavjud qarama-qarshiliklarni bartaraf etish vazifasi turadi.

Davlat ayblovchisi qo'shimcha va qayta so'roq qilishni o'tkazishi mumkin. U qo'shimcha so'roqda o'zi asosiy so'roqda qo'ldan chiqargan holatlarni aniqlaydi. Qayta so'roq esa so'roq qilingan shaxs ilgari bergan ko'rsatmalarni to'ldirish va o'zgartirish istagini bildirganda, boshqa dalillarni tekshirishda olingan ko'rsatmalarning to'g'riligiga shubha tug'ilganda, ish uchun muhim yangi savollar tug'ilganda, shuningdek ishning sudda ko'rilishi keyinga qoldirilganda va so'roq qilinuvchilar yana sudga chaqirilganda, ishga kirishgan zahiradagi xalq maslahatchisi shaxsni yangidan so'roq qilishni talab qilsa o'tkaziladi.

Hozirgi kunda, davlat ayblovchisining yuzlashtirishni o'tkazishda ishtirok etish masalasi ham qiziqish uyg'otadi.

Jinoyat protsessual qonunchilikda sud tergovida uni o'tkazishni tartibga soluvchi alohida modda mavjud emas.

Bunday so'roq qilishga qo'yiladigan asosiy talablardan biri jinoyat protsessual qonunchilikning so'roq qilishga tegishli bo'lgan

barcha umumiy qoidalarini qat'iy va og'ishmay rioya etishdir. So'roq qilishning umumiy tartibini belgilovchi huquq normalari protsessning barcha ishtirokchilari huquq va manfaatlariga amal qilinishini kafolatlaydi. Davlat ayblovchisi o'tkazadigan sudda so'roq qilish etikasi (odobi) sudga va sud protsessining boshqa ishtirokchilariga, shuningdek har qaysi so'roq qilinuvchi shaxsga xushmuomala munosabatda bo'lishni talab etadi. So'roq qilinuvchini mensimaslik, uning ko'rsatmalariga xolislik bilan yondashmaslik prokurorga yot bo'lmog'i kerak. Ayniqsa, prokurorning jizzakiligi, noo'rin luqma tashlashi mutlaqo toqat qilib bo'lmaydigan holdir, shuningdek so'roq qilinuvchining ko'rsatmalarini sharhlash maqsadga muvofiq emas, chunki unga ayblov nutqida baho beriladi.

O'z aybini inkor qilgan sudlanuvchini so'roq qilishda to'plangan dalillar ahamiyatini tushuntirish maqsadga muvofiq. Chunki ayrim holatlarda sudlanuvchi ishi bo'yicha to'plangan dalillar, jumladan, ekspertizalarning murakkab xulosalari mazmunini tushunmasligi sababli ba'zan o'z aybiga iqror bo'lmaydi.

Prokurorning boshqa sud harakatlari, ya'ni ko'zdan kechirish, eksperiment o'tkazish, ekspertiza tayinlash, ashyoviy dalillarni tekshirish va h.k.lardagi ishtirokini tahlil qilib ham ularning o'ziga xosliklarini aniqlash mumkin.

Prokurorning sud majlisida ishtirok etishi eng avvalo, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarni so'roq qilishni o'tkazish yoki boshqa sud harakatlarida faol qatnashish yo'li bilan sudlanuvchining aybini ochib tashlashga qaratilgan. Sud tergovida ko'rsatilgan natijalarni tasdiqlash va ayblanuvchini ayblash to'g'risidagi tergov xulosalarining sudlanuvchini ayblash to'g'risidagi sud xulosalariga mos kelishi, dastlabki tergov natijalari to'g'riligini belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi.

Sudda davlat aylovini qo'llab-quvvatlash uchun prokuror alohida uquvga, malakaga ega bo'lishi shart. Zero ayblovning barbod bo'lishi (muvaqqiyatsizlikka uchrashi) qonun buzilishida aybdor bo'lgan shaxslarning jazolanmay qolishiga sabab bo'ladi. Natijada yomonlik bejazo qoladi, adolat qaror topmaydi.

Shundan yaqqol ayon bo'ladiki, sud protsessida prokurorning faol ishtirokisiz sud islohotlari samarador bo'lmaydi¹.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda jinoyat ishi ko'rib chiqilayotgan vaqtda surishtiruv yoki dastlabki tergov organi tomonidan ayblanuvchiga e'lon qilingan ayblov sud tergovida tekshirilgan va baholangan dalillarga asosan o'zgartirilishi mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi JPKning 415-moddasiga asosan sud ayblovni o'zgartirishga haqli. Bunda ayblovning bir qismi yoki jinoyatning tavsifiy alomatlarini chiqarib tashlanadi.

Sud surishtiruvda, dastlabki tergovda e'lon qilingan ayblovni JPKning 416 va 417-moddalarida nazarda tutilgan tartibda o'zgartirishga yoki to'ldirishga haqli.

Endi JPKning 416 va 417-moddalari mazmun-mohiyati haqida alohida to'xtatib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 416-moddasida sudlanuvchini yangi ayblov bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun asoslar aniqlanganda sudning harakatlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra agar sud tergov vaqtida sudlanuvchining unga ilgari ayblov qo'yilmagan jinoyatni sodir etganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, sud yangi ayblov bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qiladi.

Yangi ayblov dastlabki ayblov bilan uzviy bog'liq bo'lgan va ularni alohida-alohida ko'rish imkoniyati bo'lmagan hollarda, sudlanuvchini yangi ayblov bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish asoslarini aniqlash tartibi davlat ayblovini qo'llab-quvvatlovchi prokurorning yoki jabrlanuvchining, uning vakilining yoxud sudlanuvchining, uning himoyachisining, qonuniy vakilining iltimosnomasiga ko'ra amalga oshiriladi.

Iltimosnomada ayblovni to'ldirish bilan bog'liq protsessual harakatlarning o'tkazilishi zarurati asoslantirilgan bo'lishi kerak.

Sud berilgan iltimosnoma bo'yicha uni qanoatlantirish to'g'risida yoki qanoatlantirmasdan qoldirish haqida ajrim chiqaradi.

¹ Rustambayev M. Huquqiy davlatlarda prokuratura // Qonun himoyasida. 2003-yil, 1(85)-son. – B. 10–13.

Iltimosnoma qanoatlantirilgan taqdirda, sud ajrimda ayblovni to'ldirish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun qanday holatlarga aniqlik kiritilishi lozimligini ko'rsatadi va uning ijrosini ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasini tasdiqlagan prokurorga ijro muddatini bir oygacha doirada ko'rsatgan holda topshiradi.

Qo'shimcha protsessual harakatlar natijalariga ko'ra davlat ayblovini qo'llab-quvvatlovchi prokuror sudga yig'ilgan dalillarni taqdim etadi, ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga qo'shimchani o'qib eshittiradi hamda uning ko'chirma nusxasini sudlanuvchiga va uning himoyachisiga topshiradi.

Sud prokuror tomonidan taqdim etilgan materiallar bo'yicha taraflarning fikrini aniqlaydi va ularni jinoyat ishiga qo'shib qo'yish haqida ajrim chiqaradi.

Sud sudlanuvchining, uning himoyachisining iltimosnomasi bo'yicha ularning prokuror tomonidan taqdim etilgan qo'shimcha dalillar va ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga qo'shimcha bilan tanishishga, shuningdek ushbu dalillarga va xulosaga e'tirozlar taqdim etishga bo'lgan huquqini ta'minlaydi.

Sud JPK 416-moddasining sakkizinchi qismida ko'rsatilgan masalalarni hal qilishda sudlanuvchi va uning himoyachisi huquqlarini ta'minlash uchun sud majlisida o'n sutkagacha tanaffus e'lon qiladi.

Sudning ajrimi belgilangan muddatda ijro etilmagan yoki dastlabki ayblovni o'zgartirish yoki to'ldirish uchun dalillarni aniqlash imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirda, sud jinoyat ishida mavjud bo'lgan dalillar asosida sud muhokamasini davom ettiradi.

Sudning ajrimini ijro etish natijalari bo'yicha yoki sud muhokamasi jarayonida taqdim etilgan yangi dalillarni baholash va tekshirish JPKning 443-moddasi ikkinchi qismida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

To'plangan qo'shimcha dalillar va aniqlangan holatlar asosida prokuror og'irroq ayblovga o'zgartirilgan yoki to'ldirilgan ayblov asosida yoxud haqiqiy ahvolga ko'ra dastlabki ayblovdan jiddiy farq qiladigan ayblov asosida qarorning ta'rifini taraflar muzokaralarida sudga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 417-moddasida jinoiy javobgarlikka tortilmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlanganda sudning harakatlari belgilangan. Unga ko'ra, agar sud tergov vaqtida javobgarlikka tortilmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, sud jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qiladi.

Taxmin qilinayotgan jinoyat ko'rilayotgan ish bilan uzviy bog'liq bo'lgan va bu ishlarni alohida-alohida ko'rish imkoniyati bo'lmagan hollarda, davlat ayblovini qo'llab-quvvatlovchi prokuror yoki jabrlanuvchi, uning vakilining yoxud sudlanuvchining, uning himoyachisining, qonuniy vakilining iltimosnomasiga ko'ra sud boshqa shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslarni aniqlash yuzasidan tegishli protsessual harakatlarni bir oygacha bo'lgan muddatda o'tkazishni ish bo'yicha ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasini tasdiqlagan prokurorga topshirish haqida ajrim chiqaradi.

Iltimosnomada boshqa shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish bilan bog'liq protsessual harakatlarni amalga oshirish zarurati asoslantirilgan bo'lishi kerak.

Sud ajrimini ijro etish natijalariga ko'ra davlat ayblovini qo'llab-quvvatlovchi prokuror sudga yangidan tuzilgan ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi yoxud ularga qo'shimchani taqdim etadi hamda uning ko'chirma nusxasini sudlanuvchiga va uning himoyachisiga topshiradi.

Ilgari e'lon qilingan ayblov boshqa shaxs ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi munosabati bilan o'zgartirilgan taqdirda, sud ishni ko'rishni sud muhokamasining umumiy shartlari bo'yicha qayta tiklaydi. Bunday hollarda sud muhokamasining muddati o'zgartirilgan yoki to'ldirilgan ayblov bo'yicha ishni sudda ko'rish qayta tiklangan paytdan e'tiboran hisoblanadi.

Ish bo'yicha sud tergov o'tkazilayotganda sud sudda ishni yuritish to'xtatib turilguniga qadar o'tkazilgan protsessual harakatlarni takroran o'tkazish zarurligi to'g'risidagi masalani taraflarning fikrini inobatga olgan holda hal qiladi.

Prokuror tomonidan ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga qo'shimchalar taqdim etilganda, sud sudlanuvchiga, uning himoyachisiga prokuror tomonidan taqdim etilgan qo'shimcha dalillar va ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga qo'shimcha bilan tanishishga, shuningdek ushbu dalillarga va dalolatnoma yoki xulosaga e'tirozlar taqdim etishga bo'lgan huquqini ta'minlaydi.

Sud prokuror tomonidan taqdim etilgan materiallar bo'yicha taraflarning fikrini aniqlaydi va ularni jinoyat ishiga qo'shib qo'yish haqida ajrim chiqaradi.

Sud JPK 417-moddasining yettinchi qismida ko'rsatilgan masalalarni hal qilishda sudlanuvchi, uning himoyachisi huquqlarini ta'minlash uchun sud majlisida o'n sutkagacha tanaffus e'lon qiladi.

Qo'shimcha taqdim etilgan yangi dalillarni baholash va tekshirish JPKning 443-moddasi ikkinchi qismida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

To'plangan va qo'shimcha taqdim etilgan dalillar asosida prokuror taraflar muzokaralarida sudga to'ldirilgan ayblovni inobatga olgan holda qarorning ta'rifini taqdim etadi.

Agar sud tergov vaqtida bila turib yolg'on ko'rsatuv bergan guvoh, jabrlanuvchi yoki bila turib noto'g'ri xulosa bergan ekspert yoxud bila turib noto'g'ri tarjima qilgan tarjimon tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, sud hukm chiqarganidan so'ng jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qiladi.

5-§. Taraflarning muzokarasida prokurorning nutqi

Taraflar muzokarasi sud muhokamasidagi prokuror faoliyatining eng asosiy bosqichi hisoblanadi. U prokurorning davlat ayblovini quvvatlashdagi butun faoliyati yakuni hisoblanadi.

Davlat ayblovchisining fikri JPKning 450-moddasida belgilangan tartibda sudga yozma taqdim etilishi lozim.

Davlat ayblovchisi yozma fikrida:

– sudlanuvchi aybli deb topilayotgan qilmishning haqiqatdan sodir etilganligi;

– qilmishning jinoyat deb hisoblanishi va Jinoyat kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilganligi;

– qilmishning sudlanuvchi tomonidan sodir etilganligi;

– qilmishning to'g'ri tavsiflanganligi;

– sudlanuvchining jinoyat sodir etilishida aybliligi va aybining shakli;

– sudlanuvchining javobgarligini yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar mavjudligi;

– sudlanuvchi sodir etgan jinoyati uchun jazolanishi zarurligi, jazo turi va me'yorlari;

– sudlanuvchiga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash haqida xulosaga kelinganda, jazoni o'tashi lozim bo'lgan muassasa turi;

– qo'llanishi lozim bo'lgan qo'shimcha jazo chorasi;

– mulkiy va ma'naviy ziyonni undirish yuzasidan fuqaroviy da'voni qanoatlantirish;

– ish bo'yicha xatlangan va band solingan mol-mulk, pul mablag'lari, ashyoviy dalillar, hujjatlar va boshqa narsalar taqdiri bilan bog'liq masalalar asoslantirilgan holda aniq bayon etilishi shartligi belgilansin.

Bundan tashqari, sudlanuvchiga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlash to'g'risida fikr berishda jinoyat oqibatida yetkazilgan zararining amalda to'liq undirilganligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Shu bilan birga, davlat ayblovchisi ish holatidan kelib chiqib, JPKning 457-moddasida nazarda tutilgan boshqa masalalar yuzasidan ham fikr bildirishi mumkin.

Prokuror sudda sudlanuvchining aybi o'z tasdig'ini topmaganligini aniqlagan zahoti ayblovdan voz kechadi. Buning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi JPKning 409-moddasida quyidagicha keltirilgan: «Sud muhokamasi natijasida prokuror sud tergov ma'lumotlari sudlanuvchining aybsizligidan dalolat beradi degan ishonchga kelsa, u ayblovdan voz kechishi va voz kechish sabablarini bayon qilishi shart. Prokurorning ayblovdan

voz kechishi sud tomonidan jinoyat ishini reabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatishga sabab bo'ladi».

Ayblovdan voz kechish to'la yoki qisman ham bo'lishi mumkin, ya'ni prokuror ayblovning ba'zi bir bandlaridan yoki qismlaridan voz kechishi va qolgan qismi bo'yicha ayblovni quvvatlashi mumkin. Bu masalani chuqurroq muhokama qilish uchun ayblov tushunchasi mohiyatiga yana bir nazar tashlash lozim bo'ladi.

Sudda ayblovni quvvatlovchi prokuror o'zining ayblov nuqtai nazarini o'zgartirish degan bir yoqlama fikrga ega bo'lmasligi lozim. Qolaversa, u sudda yangi ochilgan holatlar bo'lishi, protsess ishtirokchilari tomonidan sudga yangi dalillar taqdim qilinishi ehtimolini va bu voqea holatlariga o'z-o'zidan ta'sir qilishi dalillarga baho berish o'zgacharoq tus olishi mumkinligini nazardan chetda qoldirmasligi kerak.

Shunday holatda prokuror o'zining dastlabki ayblov nuqtai nazarini o'zgartirishi kerak. Umuman olganda, prokuror hamma vaqt shunday o'zgarish yuz berishiga tayyor bo'lishi lozim.

Ayblovdan voz kechish aybsizlik prezumpsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Ayblovni isbot qilish, aniqroq qilib aytganda, ishdagi barcha holatlarni har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqish ham shaxsni jinoyat sodir etishda fosh qiladigan, ham oqlaydigan holatlarni aniqlash kim ayblovni e'lon qilgan bo'lsa, shuning majburiyati, ya'ni dastlabki tergovda tergovchining, sudda esa davlat ayblovchisining va sudning majburiyati hisoblanadi¹. Prokurorning ayblovdan voz kechishi ushbu prinsipning hamda odil sudlov prinsipining tantanasi hisoblanadi.

Ayblovdan voz kechish o'z-o'zidan prokurorning ayblov funktsiyasi mazmunini o'zgartiradi va prokurorga bunday holatlarda endi sudlanuvchiga nisbatan oqlov hukmi chiqarish uchun sud oldiga talab qo'yish vazifasini yuklaydi². Avvalo,

¹ Ruzmetov O. Aybsizlik prezumpsiyasi – odil sudlovning asosiy prinsipi // Qonun himoyasida, 2003-yil, 9-son. – B. 23–24.

² Madaliyev O. Prokurorning ayblovdan voz kechishi // Qonun himoyasida, 2002-yil, 9–10-son. – B. 19.

davlat ayblovchisining bunday nutqi ishonarli bo‘lmog‘i kerak, chunki sud, amaldagi qonunlarga muvofiq, uning pozitsiyasiga aloqador emas hamda uning fikriga qo‘shilmasligi ham mumkin.

Dalillar isbotlanmaganligi tufayli ayblovdan voz kechilganda boshqa dalillarni to‘plash imkoniyatlari tugaganligi ko‘rsatib o‘tilishi va albatta, isbotlanmaganlik sababli oqlash – bu sudlanuvchining harakatlarida, garchi JPK 83-moddasida bu haqda eslatilmagan bo‘lsa-da, jinoyat tarkibi mavjud bo‘lmaganda uni aybsiz deb topishning o‘zi ekanligi ta’kidlanishi shart.

6-§. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshirishda prokuror ishtiroki

Jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan vakolatlar orqali sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatti bo‘lishiga erishishdan hamda qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini samarali himoya qilishni ta’minlash maqsadida prokurorlar jinoyat ishining apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko‘rilishida ham qatnashishadi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 480-moddasiga muvofiq, jinoyat ishining apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko‘rilishida prokuror qatnashadi.

Prokurorning yuqori instansiya sudlarida ishtirok etishidan asosiy maqsadi:

birinchidan, birinchi instansiya sudlari yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan bo‘lsa;

ikkinchidan, jinoyat-protsessual qonunlarda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga qaratilgan.

Ishning ko‘rilishida:

1) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudi, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O‘zbekiston Respublikasi

Harbiy sudi hay'atlarida – tegishincha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan vakolat berilgan prokuror;

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatida – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari qatnashadi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 497¹-, 497²-moddalariga binoan, prokuror va uning o'rinbosari sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmlari ustidan apellatsiya tartibida protest bildirish mumkin.

Birinchi instansiya sudining hukmi ustidan apellatsiya shikoyatlari va protestlari hukm e'lon qilingan kundan e'tiboran o'n sutka ichida, mahkum, oqlangan shaxs, jabrlanuvchi tomonidan esa ularga hukmning nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran shunday muddat ichida berilishi mumkin.

Prokuror O'zbekiston Respublikasi JPKning 55¹-bobida ko'rsatilgan normalar asosida apellatsiya instansiyasida ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 498-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar qonuniy kuchga kirgan hukm va ajrim (qaror) ustidan, agar ish apellatsiya tartibida ko'rilgan bo'lmasa, kassatsiya tartibida protest bildirishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 500-moddasiga asosan shikoyat yoki protestda og'irroq jinoyatga doir qonun moddalarini qo'llash zarurligi, jazoni kuchaytirish yoki mahkumning ahvolini og'irlashtiradigan boshqa o'zgarishlar nazarda tutilgan bo'lsa, sudning ayblov hukmini yoki ajrimini (qarorini), shuningdek sudning oqlov hukmini yoxud ishni tugatish to'g'risidagi ajrimini (qarorini) kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqishga ular qonuniy kuchga kirganidan keyin bir yil mobaynidagina yo'l qo'yiladi.

Prokuror O'zbekiston Respublikasi JPKning 55²-bobida ko'rsatilgan normalar asosida apellatsiya instansiyasida ishtirok etadi.

Sudning hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi va qaroriga nisbatan keltirilgan apellatsiya va kassatsiya tartibidagi protest ishni sudda ko'rish boshlangunga qadar protest keltirgan prokuror tomonidan, shuningdek yuqori turuvchi prokuror tomonidan o'zgartirilishi, to'ldirilishi yoki chaqirib olinishi mumkin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Jinoyat ishini sudda ko'rishda prokuror ishtirokining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.

2. Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlashda prokuror ishtirokini tushuntiring.

3. Sud majlisining tayyorlov qismida prokurorning ishtirokini tushuntirib bering.

4. Sud tergovida prokuror ishtirokining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.

1-kazus

Jinoyat ishlari bo'yicha Chilonzor tuman sudi tomonidan O'zbekiston Respublikasi JKning 97-moddasi 2-qismi 1-bandi bilan aybdor deb topilgan S. Vasliddinovga oid jinoyat ishini tuman sudi tomonidan JIB Toshkent shahar sudining apellatsiya hay'atida ko'rib chiqilishi belgilandi. Davlat ayblovchisi sifatida Mirobod tuman prokurori qatnashishi belgilangan.

Ammo, S. Vasliddinovning manfaatini himoya qilayotgan himoyachi A. Primov davlat ayblovchisi tariqasida faqat Toshkent shahar prokurori yoki uning o'rinbosari davlat ayblovchisi sifatida qatnashishi lozimligini ta'kidlab sudga iltimosnoma bilan murojaat qildi.

Mazkur holatga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asoslangan holda huquqiy baho bering.

2-kazus

O'zbekiston Respublikasi JKning 166-moddasi 2-qismi «b» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda ayblanib, sudda jinoyat ishi ko'rilyotgan sudlanuvchi M. Tohirovga oxirgi

so'z berilgan chog'ida, u sudya va davlat ayblovdchisini haqorat qila ketdi, ularning sha'niga turli xil uyatli so'zlarni ayta boshladi.

Sudya uni tartibga chaqirishiga qaramay, harakatlarini davom ettirdi. Sudya alohida xonadan chiqqanidan so'ng hukmda sudlanuvchi M. Tohirovga e'lon qilingan ayblovdan tashqari, unga O'zbekiston Respublikasi JKning 140-moddasini haqorat qilish moddasini qo'llab, yangi jinoyat ishi qo'zg'atib, tergov qilishlik uchun Toshkent shahar prokuraturasiga yuboradi.

Mazkur holatga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asoslangan holda huquqiy baho bering.

X bob. SUDLARDA MA'MURIY ISHLARNING KO'RILISHIDA PROKURORNING ISHTIROKI

1-§. Ma'muriy sudlarda ish yuritishda prokuror ishtirokining huquqiy asoslari

Ma'muriy organlarning va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlar ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizo sifatida ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi belgilab qo'yildi. Bu, o'z navbatida, mazkur toifadagi ishlarga nisbatan bir xil sud amaliyotining joriy qilinishiga, sud ishlarining o'z vaqtida adolatli va sifatli hal qilinishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 23-bobida ma'muriy organlarning va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining, ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish tartibi belgilangan.

Ma'muriy organlar deganda ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma'muriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, shu jumladan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalarni tushunamiz¹.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga asosan, mazkur toifadagi ishlar *fuqarolar yoki yuridik shaxslar arizalari* asosida qo'zg'atiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 38-moddasiga asosan, qonunga zid bo'lgan hujjatni *prokuror* ana shu hujjatni g'ayriqonuniy deb

¹ O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi O'RBQ-457-sonli Qonuni, 4-modda // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018-y., 03/18/457/0525-son.

e'tirof etish to'g'risidagi *ariza* bilan ma'muriy sudga murojaat etishga haqli. Bunda pokuror, avvalo, mazkur hujjatga nisbatan protestni ana shu hujjatni qabul qilgan organ (mansabdor shaxs)-ga yoki yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs)ga keltiradi. Protest shu hujjatni qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) yoki yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan rad etilgan, shuningdek qonunda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqilmagan taqdirda, *prokuror* ana shu hujjatni g'ayriqonuniy deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan ma'muriy sudga murojaat etishga haqli. Prokuror bunda davlat organi (mansabdor shaxs) ning normativ-huquqiy xarakterga ega bo'lmagan noqonuniy hujjati ustidan ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

Manfaatdor shaxs ma'muriy organning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining qarorlarini haqiqiy emas, shuningdek mansabdor shaxslarining harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risida ariza (shikoyat) bilan qachonki sudga murojaat qilishlari mumkin, ya'ni mazkur qaror, harakatlar (harakatsizlik) uning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzgan; uning huquqlari, erkinliklarini amalga oshirishga va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'siqlar vujudga keltirgan; uning zimmasiga qonunga xilof ravishda biror-bir majburiyat yuklagan; uning u yoki bu sohadagi faoliyatni amalga oshirishi uchun boshqa to'siqlar vujudga keltirgan deb hisoblagan taqdirdagina sudga murojaat qilishga haqli. Prokuror bo'lsa, xuddu shu harakatlar boshqa fuqarolar va yuridik shaxslarning qonuniy huquqlari va manfaatlariga daxl qilgan bo'lsagina, sudga ariza bilan murojaat qilishga haqlidir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga asosan, ma'muriy organlarning va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan ariza (shikoyat) manfaatdor shaxsiga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risida ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran uch oy ichida sudga berilishi mumkin.

Davlat ijrochisining qarorini haqiqiy emas, harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi ariza

(shikoyat) bilan sudga murojaat qilish muddatlari qisqartirilgan bo'lib, manfaatdor shaxsga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risida ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida sudga murojaat qilishi mumkinligi belgilab qo'yilgandir.

Qolaversa, sud mazkur toifadagi ishlarni ko'rishda ma'muriy organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish chog'ida sud ustidan shikoyat qilinayotgan qaror yoki uning ayrim qismlari, harakatlar (harakatsizlik) qonuniyligini, ustidan shikoyat qilinayotgan qarorni qabul qilgan yoxud ustidan shikoyat qilinayotgan harakatni (harakatsizlikni) sodir etgan organning yoki mansabdor shaxsning vakolatlarini tekshiradi, shuningdek ustidan shikoyat qilinayotgan qaror yoki uning ayrim qismlari yoxud harakatlar (harakatsizlik) arizachining huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzganligini aniqlashi lozim. Shuningdek, ustidan shikoyat qilinayotgan qarorni qabul qilgan yoki ustidan shikoyat qilinayotgan harakatni (harakatsizlikni) sodir etgan organning yoki mansabdor shaxsning vakillari ishtirokida ko'rib chiqishi lozim. Ustidan shikoyat qilinayotgan qarorni qabul qilgan yoki ustidan shikoyat qilinayotgan harakatni (harakatsizlikni) sodir etgan ma'muriy organning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining, mansabdor shaxsning vakillari sud majlisiga kelishini sud majburiy deb topishi va ularni tushuntirishlar berish uchun sud majlisiga chaqirishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy sudlar ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, jumladan, fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi ma'muriy ishlarni ko'rib chiqadi hamda hal etadi. Shuningdek, ma'muriy sudda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar ham ko'rib chiqiladi. Biroq ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ish ma'muriy sud ish yurituvchi hisoblanmaydi hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish

to'g'risidagi kodeksi mazkur ishlarni yuritishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2-§. Ma'muriy sudlarda ish yuritishda prokuror ishtirokining shakllari

O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun-ning 2-moddasi mazmunidan ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratdir.

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bu sudlarda ishlarni ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 4-moddasida belgilangan bo'lib, unda sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish belgilab qo'yilgan. Mazkur qonunda ma'muriy sud ishlarini yuritish degan ko'rsatma yo'q. Biz buning sababini mazkur Qonunga O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi qabul qilinganidan keyin o'zgartish kiritilmagan deb izohlaymiz.

Biroq ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtiroki O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan. Mazkur kodeksning 46-moddasiga ko'ra qonunda nazarda tutilgan yoki sud mazkur ishda prokuror ishtirok etishi zarur deb topgan hollarda, shuningdek prokurorning arizasi asosida qo'zg'atilgan ishlarda prokuror ishtirok etishi shart. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 33-moddasida fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va

tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida barcha instansiya sudlarida ishlar ko'rilayotganda prokuror qonunda belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Yuqoridagi normalarga ko'ra, biz ma'muriy ishlarni sudda ko'rishda prokuror ishtirokini uch shaklga bo'ldik, birinchisi – fuqarolar va yuridik shaxslarning, shuningdek jamiyat va davlatning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilib, sudga ariza bilan murojaat qilishi; ikkinchisi – ma'muriy ishlarni sudda ko'rishda fikr bildirish, bunda prokuror arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlarda prokuror fikr bildirmaydi; uchinchisi – prokuror ma'muriy sud hujjatlariga nisbatan protest keltiradi.

Prokurorning ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishtirok shakllari quyidagilar:

- boshqa shaxslar, jamiyat va davlatning manfaatlaini himoya qilish maqsadida sudga ariza kiritadi;
- ma'muriy sud ishida fikr beradi;
- ma'muriy sud hujjatlariga nisbatan protest kiritadi;
- ma'muriy ishlarni sudda ko'rishda javobgar sifatida ishtirok etadi.

Quyida biz nima uchun ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtiroki shaklini to'rt shakl qilib belgilaganimizni tahlil qilib o'tamiz.

Boshqa shaxslar, jamiyat va davlatning manfaatlaini himoya qilish maqsadida sudga ariza kiritadi. Prokuror fuqarolar va yuridik shaxslarning, shuningdek jamiyat va davlatning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilib, sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Ariza tuman (shahar) ma'muriy sudlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar yoki ularning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar ma'muriy sudiga esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari yoki ularning o'rinbosarlari tomonidan taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh

prokurori yoki uning o'rinbosari O'zbekiston Respublikasining barcha ma'muriy sudlariga ariza taqdim etishga haqli.

Prokuror sudga boshqa shaxslar, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini ko'zlab ariza berganda protsessual arizachi hisoblandi. Moddiy huquq bo'yicha arizachi ma'muriy munosabat ishtirokchisi hisoblandi. Prokuror arizachining huquqlarini himoya qilib ariza bilan sudga murojaat qilganda prokuror taraflarning, jumladan arizachining barcha protsessual huquqlaridan to'liq foydalanadi. Bunda prokuror boshqa subyektlarning manfaatlarini ko'zlab ariza berganda arizadan voz kechish huquqi mavjud. Prokurorning o'z arizasidan voz kechishi arizachini ishni mazmunan ko'rib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi. Prokurorning o'z arizasidan voz kechishi ishni tugatishga emas, balki arizani ko'rmasdan qoldirishga olib keladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida shunday deyilgan: «Prokuror tomonidan arizachining huquqini himoya qilish maqsadida taqdim etilgan talabdan arizachining voz kechishi arizani ko'rmasdan qoldirishga olib keladi. Arizani ko'rmasdan qoldirishning huquqiy oqibati, yana mazkur ish bo'yicha sudga ariza bilan murojaat qilish imkoniyati mavjudligida». Demak, haqiqiy arizachi yana ushbu masala bo'yicha ma'muriy sudga murojaat qilishi mumkin. Fuqaroning, yuridik shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini ko'zlab ariza taqdim etgan prokuror arizachining huquqlaridan foydalanadi hamda uning majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Ma'muriy sud ishida prokuror ishtirok etib, fikr bildiradi. Prokuror barcha ma'muriy sud ishlarini yuritishda sud majlisida ishtirok etishga *haqli*. Shuningdek, qonunda nazarda tutilgan yoki sud mazkur ishda prokuror ishtirok etishi zarur deb topgan hollarda yoxud prokurorning arizasi asosida qo'zg'atilgan ishlarda prokuror ishtirok etishi *shart*.

Ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning mazmuni bo'yicha fikrini bayon qiladi, bundan uning boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishga doir arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar mustasno. Shuningdek,

biz Karpovaning fikrini inobatga olib, ma'muriy sud ishida prokuror javobgar sifatida ishga jalb qilingan ishlarni ko'rishda ham prokuror fikr bildirish uchun ishtirok eta olmaydi. Chunki prokuror o'zi javobgar hisoblanadi.

Ma'muriy sud ishida prokuror ishtirok etib, fikr bildirishiga quyidagi amaliy misolni keltirib o'tamiz:

Sudga «New Lavash Food» mas'uliyati cheklangan jamiyati Toshkent shahar hokimiyati xodimlari xatti-harakatlari ustidan shikoyat bilan murojaat qilib, Toshkent shahar hokimining 2016-yil 4-martdagi 205-sonli qarorini haqiqiy emas deb topishni so'ragan.

*Sud majlisida arizachi «New Lavash Food» MChJ vakili Sh. Abdullayev shikoyat arizasini to'liq quvvatlab, 2016-yil 4-mart kuni Toshkent shahar hokimining «Yer maydonlarida obodonlashtirish va buzish ishlarini olib borish haqida»gi 205-sonli qarori qabul qilinganini, ushbu qaror talablariga ko'ra Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek va Yashnobod tumanlarida obodonlashtirish ishlari olib borilishi munosabati bilan Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent-Riyoziy va Oltintepa ko'chalari kesishuvidagi, «New Lavash Food» MChJga tegishli «Center Lavash» ovqatlanish maskani binosi buzib tashlanganligini, ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 97-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablariga zid ekanligini, **birinchidan**, ushbu nizomning 4-bandiga ko'ra Toshkent shahar hokimining yer uchastkasini olib qo'yish, yer uchastkasida joylashgan ishlab chiqarish imoratlarini buzish va ko'chirib tashlash to'g'risidagi qarorlari nusxalarini bildirishnomaga ilova qilgan holda, buzish boshlangunga qadar 6 oydan kechikmay, imzo qo'ydirib, ishlab chiqarish imoratlari mulkdorlarini qabul qilingan qaror to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi shartligi ko'rsatilganligini, lekin Toshkent shahar hokimining 205-sonli qarorida nizom qoidasiga zid ravishda mulkdorning qaror nusxasini bildirishnoma bilan birga xabardor qilinishi qayd etilmaganini, amalda esa «New Lavash Food» MChJ binoning buzilishi to'g'risida bino buzilgan kuniga qadar*

umuman xabardor qilinmaganligini, **ikkinchidan**, nizomning 30-bandiga ko'ra yuridik shaxsga tegishli bo'lgan uy, ishlab chiqarish imoratlari, boshqa imoratlar va inshootlar kompensatsiya turi, to'lov miqdori va muddati yuridik shaxs bilan kelishilgandan keyin buzilishi mumkinligi qayd etilganligini, shunga qaramasdan jamiyatga tegishli mulk bir kun ichida mutasaddi davlat organlari tomonidan buzib tashlanganini, **uchinchidan**, nizomning 37-bandiga ko'ra yuridik shaxsga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan avvalgisiga teng qiymatli uylar, ishlab chiqarish imoratlari va boshqa imoratlar va inshootlar yangi joyga faqat kompensatsiya turi, to'lov miqdori va muddati yuridik shaxs bilan kelishilgandan keyin ko'chirilishi qayd etilganligini, lekin shu paytgacha mutasaddi tashkilotlardan kelishuv to'g'risida xabar ham berilmaganligini, yuqoridagilarni inobatga olib, Toshkent shahar hokimining 2016-yil 4-martdagi 205-sonli qarorini haqiqiy emas deb topishni so'radi. Mazkur nizoli ishda tuman prokurori yordamchisi arizachi X. Mahmudovning shikoyatni so'raydi.

Ma'muriy sud hujjatlariga nisbatan protest kiritadi. Prokuror ma'muriy sud hujjatlariga nisbatan qonunda belgilangan tartibda va asoslarda protest keltirishi mumkin. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra, sudlarda prokuror ishtirokining ikki shakli mavjud bu boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab hamda boshqalar tomonidan qo'zg'atilgan ishda fikr bildirib ishtirok etadi. Prokurorning sud hujjatlariga nisbatan protest keltirishini mazkur ikki shaklning davomi deb hisoblashgan. Lekin, biz bu fikrga qo'shilmaymiz, sababi prokurorning arizasi bilan qo'zg'atilmagan, shuningdek prokuror ishtirok etmagan ishlar bo'yicha chiqarilgan sud hujjatiga nisbatan ham qonunda belgilangan tartibda protest keltirishi mumkin. Bundan shu xulosaga kelinadiki, prokurorning sud hujjatlariga nisbatan protest keltirishi bu ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtirokining alohida shakli deb hisoblaymiz.

Prokuror ma'muriy sud hujjatlariga nisbatan protest keltirish tartibi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi Kodeksning 200 va 224-moddalarida ma'muriy sud hujjatlariga nisbatan apellyatsiya hamda kassatsiya tartibida prokuror tomonidan protest kiritish tartibi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 200-moddasiga asosan, prokuror birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya protesti keltirishga haqli. Prokuror agar qonunda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, apellyatsiya protesti hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran yigirma kun ichida berilishi mumkin. Shuningdek, birinchi instansiya sud ajrimlarining ustidan ham protest kiritilishi mumkin. Ushbu protest hal qiluv qaroriga nisbatan protest keltirish tartibi va muddatlarida keltiriladi.

Prokuror tomonidan kassatsiya tartibida protest keltirish. Prokuror O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 224-moddasiga asosan birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan, apellyatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarori ustidan prokuror kassatsiya protesti berishga haqli.

Ma'muriy ishlarni sudda ko'rishda javobgar sifatida ishtirok etadi. Prokurorning ma'muriy sud ishlarni ko'rishida va mazkur shaklda ishtirok etishini passiv ishtirok shakli deb baholagan ayrim tadqiqotchilar. Mazkur ishtirok shaklini tahlil qiladigan bo'lsak, fuqaroning huquqi va erkinliklarini yoxud qonuniy manfaatlarini buzadigan prokuratura organlari, shuningdek prokurorning qarorlari, harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risida ariza (shikoyat) bilan ma'muriy sudlarga murojaat qilinganda, mazkur ariza bo'yicha qo'zg'atilgan ma'muriy ishda prokuror javobgar bo'ladi.

Misol uchun, o'zboshimchalik bilan egallangan turar-joylardan noqonuniy egallovchini ko'chirish to'g'risida prokuror sanksiya berilishini so'rab murojaat qilinganda, prokuror mazkur murojaatni qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqmasa, prokuror harakatsizligi ustidan shikoyat qilib ma'muriy sudga murojaat qilishi mumkin.

Yuqoridagilardan shu xulosaga kelish mumkinki, ma'muriy

sud ishlarini yuritishda prokuror ishtirokining to'rt shakli mavjud. Bular:

- boshqa shaxslar, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga ariza kiritadi;
- ma'muriy sud ishida fikr beradi;
- ma'muriy sud hujjatlariga nisbatan protest kiritadi;
- ma'muriy ishlarni sudda ko'rishda javobgar sifatida ishtirok etadi.

Shuningdek, ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror sudga ariza bilan murojaat qilishida lavozimidan kelib chiqib, arizalarni taqdim etadi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ham uning o'rinbosari O'zbekiston Respublikasining barcha ma'muriy sudlariga boshqa shaxslar, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish maqsadida ariza bilan murojaat qiladi. Tuman prokurorlari faqat tuman yoki shahar ma'muriy sudlariga murojaat qilishi mumkin. Viloyat prokurorlari esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlariga, shuningdek tuman yoki shahar sudlariga ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

3-§. Prokurorning ma'muriy sud ish yurituvdagi vazifalari

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekiston Respublikasida qonunlarning bir xilda va aniq ijro etilishini ta'minlash orqali mamlakatimizda qonuniyligni mustahkamlashdan iborat. "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunda belgilanib qo'yilgan mazkur asosiy vazifalarini amalga oshirish maqsadida prokuror sud ishlarini yuritishda, jumladan, ma'muriy sudlarda ishlarni yuritishda ishtirok etadi.

Prokuror ma'muriy sud ishlarida qatnashar ekan, avvalo, qonunda belgilangan vakolatlar orqali sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga erishish, qonun ustuvorligini ta'minlashga erishish hamda ma'muriy munosabatlarda fuqarolar, yuridik shaxslar, jamiyat va davlatning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish hamda ushbu sohada qonunchilikni

mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishni ta'minlashdan iboratdir.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror quyidagi vakolatlarga ega:

– jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylik, ijtimoiy adolat, tinchlik va milliy totuvlikni mustahkamlashga;

– fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning hamda xususiy mulk egalari qonuniy manfaatlarini himoyalashga;

– qonunda nazarda tutilgan yoki sud ishida prokurorning qatnashishini zarur deb topgan hollarda barcha sud instansiyalarida prokuror ishtirokini ta'minlashga;

– prokuror ishtirokisiz ko'rilgan ishlar bo'yicha sudlarning noqonuniy qarorlarini qonunga muvofiqlashtirish choralarini ko'rishga;

– sud qarorlarini murojaatlarga asosan o'rganish va aniqlangan qonunbuzilishlarni bartaraf etish.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 46-moddasiga asosan prokurorning vakolatlari ham ma'muriy sud ishida ishtirok shakliga qarab turli xildir. Misol uchun, boshqa shaxslar, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini ko'zlab ariza bilan murojaat qilganda prokuror arizachining protsessual qonunda belgilab qo'yilgan barcha huquq va majburiyatlaridan foydalanadi.

Shuningdek, prokuror ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 39-moddasida nazarda tutilgan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlaridan foydalanadi, majburiyatlarini bajaradi. Masalan, ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, ko'chirma nusxa olish, rad qilish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, savollar berish, iltimosnomalar kiritish, arz qilish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni ko'rish davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'z vajlarini, xulosalarini taqdim qilish, ishda ishtirok etuvchi boshqa

shaxslarning iltimosnomalari, vajlariga e'tiroz bildirish, sud hujjatlari ustidan protest keltirish hamda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida o'zlariga berilgan boshqa protsessual huquqlardan foydalanish huquqiga ega. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan protsessual majburiyatlarga ega va ular o'zlariga tegishli barcha protsessual huquqlardan insofli ravishda foydalanishi kerak.

Prokuror ma'muriy sudlarda har qanday ishda boshqa shaxslar, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini ko'zlab ishtirok etishi mumkin. Prokuror ishda ishtirok etganda o'z fikrini bildiradi. Bunda sudda ish ko'rilishida ishtirok etadigan prokuror tomonidan sud majlisi boshlangunga qadar ishga oid huquqiy hujjat va materiallar o'rganib chiqiladi. Bu jarayonda ishning sudga taalluqliligi, ariza bergan shaxsning qonuniy vakolatga egaligi, ishni hal etish uchun zarur bo'lgan dalillar mavjudligi, ish bo'yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslarning to'g'ri jalb qilinganligi, da'voni ta'minlash choralari ko'rilganligi va davlat boji to'langanligi kabi ishning qonuniy hal etilishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarga alohida e'tibor qaratadi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokurorning dalillarni tekshirishdagi ishtiroki.

Ma'muriy sudlarda ishlarni ko'rishda ishtirok etuvchi prokuror dalillarni tekshirish va baho berishda faol qatnashib, har bir dalilning ishga aloqadorligi va ishning mohiyati bo'yicha asosli fikr bildirishi lozim. Qolaversa, vakolat doirasida ishni har taraflama, to'liq va xolisona ko'rilishini, qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilinishini ta'minlanishiga erishishdan iborat. Bu prokurorning ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi asosiy vazifalaridan hisoblandi.

Qolaversa, ma'muriy ishlarni sudda ko'rishda prokurorning vazifalaridan biri fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, mulk huquqini tan olish bilan bog'liq ishlarda aniqlangan qonunbuzilishlar yuzasidan mutasaddi mansabdor yoki boshqa shaxslarga nisbatan moddiy, intizomiy, boshqa

choralarni ko'rish, jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda prokurorga xabar berish masalalarini muhokama qilish bo'yicha sudga iltimosnoma kiritishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasidagi sudlarda ma'muriy ishlarni yuritishda jinoyat alomatlari aniqlanganligi haqida yuborilgan sud hujjatlarining aniq hisobi yuritiladi va bu borada sudlar bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Ma'muriy sudlarga prokuror tomonidan ariza bilan murojaat qilish shaklida, prokurorning asosiy vazifasi, ayniqsa, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qoununiy manfaatlarini, shuningdek jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga ariza kiritishda asosiy e'tibor davlat organlari, tashkilotlar hamda ular mansabdor shaxslarining qarorlari yoki xatti-harakatlari (harakatsizligi) bilan fuqarolarning huquq va erkinliklariga qay darajada putur yetganligini, fuqaroning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash choralarini ko'rishi lozim.

Shuningdek, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan holatlarni bartaraf etish choralarini ko'rmog'i lozim. Prokuror tomonidan mazkur toifadagi ishlarni ko'rishda aniqlangan kamchiliklarni sud protsessida bartaraf etish choralari ko'riladi. Undan tashqari, prokuror protsessdan tashqari ham mazkur kamchiliklarni bartaraf qilish huquqiga ega. Bunday paytlarda prokuror O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga asosan taqdimnoma kiritish vakolatidan foydalanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 40-moddasida prokuror nazorat hujjatlaridan biri bo'lgan taqdimnomaning huquqiy asosi keltirilgan. Unda prokuror qaysi hollarda va qanday tartibda taqdimnoma kiritadi hamda tegishli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan taqdimnomaning ko'rib chiqilish tartibi belgilangan.

Ya'ni prokuror qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnomaning qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga kiritadi.

Taqdimnoma darhol ko'rib chiqilishi va ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinishi lozim.

Taqdimnoma kollegial organ tomonidan ko'rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida prokurorga ma'lum qilinadi va u majlisda ishtirok etishga haqlidir.

Prokurorning ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi ishtiroki bu qonunga zid bo'lgan hujjatga nisbatan g'ayriqonuniy deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqining mavjudligi.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuning 38-moddasiga ko'ra qonunga zid bo'lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi. Mansabdor shaxsning noqonuniy qaroriga nisbatan ham xuddi shunday tartibda protest keltiriladi.

Protest kelib tushgan vaqtdan boshlab o'n kunlik muddatdan kechiktirmay ko'rib chiqilishi shart. Qonunbuzarlikni darhol bartaraf etish talab qilingan alohida hollarda prokuror protestni ko'rib chiqishning qisqartirilgan muddatini belgilashga haqli. Protestni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida uch kunlik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Protest kollegial organ tomonidan ko'rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida prokurorga ma'lum qilinadi va u majlisda ishtirok etishga haqlidir.

Protest shu hujjatni qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) yoki yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan rad etilganda, shuningdek protest qonunda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqilmagan taqdirda, prokuror ana shu hujjatni g'ayriqonuniy deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli. Sudga ariza protest rad etilganligi to'g'risidagi xabar olingan paytdan boshlab yoki protestni ko'rib chiqish uchun qonunda belgilangan muddat o'tganidan keyin bir oylik muddat ichida berilishi mumkin.

Prokuror tomonidan sudga ariza berilishi protest keltirilgan hujjatning amal qilishini ariza sudga ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib qo'yadi.

Ma'muriy sudlar tashkil qilingunga qadar prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish to'g'risidagi arizasini fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taqdim etgan. 2017-yil 1-iyundan boshlab mazkur turdagi arizalarni ko'rib chiqish ma'muriy sudlar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda.

Mazkur turdagi arizalarni ko'rib chiqish to'g'risidagi fuqarolik sudining uzoq yillik tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda prokuror normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan ham ularni g'ayriqonuniy deb topish to'g'risida sudga murojaat qilgan. Huquqiy hujjat deganda normativ-huquqiy hujjat nazarda tutilganligi yoki yo'qligi to'g'risida bir qancha bahslar bo'lgan. Agar normativ-huquqiy hujjatni ham g'ayriqonuniy deb topish to'g'risida prokuror ariza bilan sudga murojaat qilsa, yuqori turuvchi organlar Vazirlar Mahkamasining hujjatlariga nisbatan qanday tartibda degan savollarga yechim yo'q edi. Ushbu masalaga O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi to'liq javob beradi deb hisoblaymiz.

Mazkur kodeksning 27-moddasiga asosan endilikda faqat idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar sudga ko'rinishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, prokuror ham faqat idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan ularni g'ayriqonuniy deb topish to'g'risida ma'muriy sudga murojaat qilish vakolatiga ega.

Idoraviy normativ-huquqiy hujjat tushunchasini O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 9-oktabrdagi «Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar me'yoriy hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 469-sonli hamda 2000-yil 19-maydagi «Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning me'yoriy hujjatlarini qabul qilish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 197-sonli qarorlaridan topishimiz mumkin. Unga ko'ra idoraviy normativ-huquqiy hujjat bu vazirlik, davlat qo'mitasi va idora tomonidan belgilangan tarzda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishitirokining ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
2. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtiroki shakllari?
3. Ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi prokuror nazorat hujjatlari qaysilar?
4. Ma'muriy sud hujjatlari ustidan prokuror beradigan protestlarni tahlil qiling.

1-kazus

R. Tolipov mansabdor shaxs V. Bustonovning xatti-harakatlarini g'ayriqonuniy deb topish haqida tuman prokurori o'rinbosari ma'muriy sudga ariza murojaat qilgan. Sud arizani qabul qilishni rad etish haqida ajrim chiqargan. Sud arizani qabul qilishda rad etish uchun asos qilib muqaddam R. Tolipovni ishga tiklash, yetkazilgan zararlarni undirish haqidagi fuqarolik ishi sudida ko'rilib, ushbu nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjudligini ko'rsatgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-kazus

Fuqaro Botirov Anvarning vafotidan so'ng meros ishi ochilib uning merosiga nisbatan meros guvoynoma beriladi. Mazkur guvoynomani g'ayriqonuniy deb topib, bekor qilishni so'rab tuman prokurori ma'muriy sudga murojaat qiladi. Aniqlanishicha, Botirovning yana bir merosxo'ri bo'lib, u ishga jalb qilinmagan. BotirovAnvarning ishga jalb qilinmagan merosxo'ri Botirov Baxtiyor Anvarning shar'iy nikohidan tug'ilgan farzandi bo'lib, mazkur merosxo'r haqida haqiqatdan ham boshqa merosxo'rlarning va notariusning xabari bo'lmagan. Notarius merosxo'rlar doirasini aniqlash bo'yicha o'ziga tegishli barcha harakatlarni amalga oshirgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

XI bob. SUDLARDA FUQAROLIK ISHLARI KO'RILISHIDA PROKURORNING ISHTIROKI

1-§. Prokurorning fuqarolik sud ishlarini yuritishdagi huquqiy holati va uning o'ziga xos xususiyatlari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari natijasida 2001-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun va 2018-yil 22-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining qabul qilinishi, sudlarda prokuror ishtirokining asosiy maqsad va vazifalari, fuqarolarni va tashkilotlarni buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilishni har tomonlama kafolatlashni yangi bosqichga olib chiqdi. Shuningdek, yangi fuqarolik protsessual qonunchilikda sudlarda prokuror ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan huquqiy normalarning yangi qoidalar bilan to'ldirilganligi fuqarolik protsessida prokurorning huquqiy holatini butunlay o'zgarishiga olib keldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 50-moddasiga ko'ra, agar fuqaro sog'lig'ining holati, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega ekanligi belgilandi.

Ta'kidlash joizki, prokuratura idoralarining jamiyat hayotida tutgan o'rni alohida e'tiborga loyiq. Prokuror aksariyat hollarda o'z huquqlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilish imkoniyati cheklangan shaxslar manfaatlarini yuzasidan sudga murojaat qiladilar. Ayniqsa, oilada farzandning manfaatlarini himoya qilib, prokurorning sudga murojaat qilish hollari sud amaliyotida ko'plab uchraydi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 80-moddasiga muvofiq ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshirilib, bu to'g'risidagi ishlar prokurorning da'vosiga binoan ham qo'zg'atilishi mumkin.

Yuridik adabiyotlarda sudga boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilib, ariza bilan murojaat qilgan prokurorning fuqarolik protsessidagi protsessual huquqiy holati masalasida aniq bir to'xtamga kelinmagan. Masalan, huquqshunos olim Sh.Sh. Shorahmetov fikricha, Prokuror ishda qanday shaklda ishtirok etsa ham, u hamma vaqt sud faoliyatini emas, balki sudda qonunning bajarilishi ustidan o'z vakolatini ta'minlaydi va odil sudlovni amalga oshirishda ko'maklashuvchi shaxs bo'lib qolaveradi¹. Ushbu fikrga qo'shilgan boshqa huquqshunos olimlar ham sudda prokurorning moddiy-manfaatdor shaxs bo'lmay, balki sud jarayonida ishtirok etayotganida da'vogarning barcha protsessual huquqlaridan foydalanadi deb hisoblashadi².

Yuridik adabiyotlarda yuqoridagi fikrlardan tashqari, protsessda prokuror mustaqil protsessual huquqiy holatni egallashi, eng avvalo, qonuniylikni nazorat qilib borishlik vazifasi yuklatilganligi ta'kidlanadi. Jumladan, huquqshunos olim M.A. Vikut fikricha, prokuror hech qachon taraf ham, protsessual ma'nodagi da'vogar ham bo'lmaydi. Uning fikricha, prokuror protsessda ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan farqli ravishda mustaqil pozitsiyasiga ega bo'lib, qonuniylikni ta'minlash asosiy vazifasi hisoblanadi³.

Huquqshunos olim E. Egamberdiyev fikricha, boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun prokuror da'vo taqdim etgan bo'lsa ham, u ishda taraf bo'lib hisoblanmaydi. Ishda manfaati himoya qilinayotgan shaxs sudga da'vo taqdim etmagan bo'lsa ham o'sha shaxs taraf bo'lib hisoblanadi⁴. Bu borada huquqshunos olim M.M. Mamasiddiqov va M. Karimovlar ham fuqarolik protsessida prokuror zimmasidagi vazifaning xususiyatidan kelib chiqib, fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan mustaqil

¹ Shorahmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. – T.: Adolat, 2001. – B. 76.

² Nazarov G'I. Prokurorning huquqlari // Qonun himoyasida, 2000-yil, 3-son. B. 10–14;

³ Викиут М.А., Зайцев И.М. Гражданский процесс России. Учебник. Юристы, 1999. – С. 83.

⁴ Egamberdiyev E. Fuqarolik jarayoni huquqida da'vo muammolari. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2007.

ravishda harakat qilishini, fuqarolik protsessidagi taraf yoki protsessual ma'noda da'vogar degan nuqtai nazarni ilgari surgan mualliflarning fikri bilan kelishib bo'lmashligini, taraflar tushunchasi fuqarolik protsessual huquqi fanida muayyan mazmun va o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlashadi¹.

Haqiqatan ham prokuror da'vogarning ayrim maxsus huquqlaridan foydalana olmasligi, masalan kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish huquqi, sud xarajatlarini to'lash majburiyati yoqligi, agar da'vogar rozi bo'lmasa, prokuror o'zi arz qilgan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, qo'shimcha talablar bildirishga, da'vo talablarining miqdorini ko'paytirishga yoxud kamaytirishga haqli emasligi, o'z navbatida da'vogar bo'lmashligini anglatadi.

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda ishtirok etuvchi prokurorning huquqiy holati, ya'ni fuqarolik ishini qo'zg'atish, fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda ishtiroki hamda sud hujjatlari ustidan protest keltirish bilan bog'liq protsessual huquqiy holati, avvalo, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun hamda boshqa huquqiy normalarda mastahkamlab qo'yilgan.


Fuqarolik protsessida prokuror o'zining protsessual huquqiy holatiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan (taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruv organlari) farq qiladi.

Fuqarolik protsessida prokurorning taraflar, uchinchi shaxslardan farqi quyidagilarda namoyon bo'ladi:	
Prokuror	taraflar, uchinchi shaxslar
prokuror esa, protsessda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilib, ishdan moddiy manfaatdor bo'lmaydi.	ular ish yuzasidan moddiy va protsessual manfaatdor bo'ladi.

¹ Mamasiddiqov M., M. Karimov. Fuqarolik protsessida prokuror ishtiroki. O'quv-amaliy qo'llanma. – T.: 2008. – B. 32.

prokuror esa davlat boji to'lashdan ozod qilingan.	taflar, uchinchi shaxslar sudga da'vo taqdim etganlik uchun, agar qonunda davlat boji to'lashdan ozod qilinmagan bo'lsa, davlat boji to'laydi.
prokuror esa ayrim protsessual huquqlardan foydalana olmaydi (masalan, da'vogarning roziligisiz da'vo predmeti, asosini o'zgartirish, da'vo miqdorini kamaytirish, ko'paytirishga haqli emas).	ular fuqarolik protsessual qonunchilikda ko'rsatilgan barcha protsessual huquqlardan foydalanadilar.
prokurorga esa qarshi da'vo qo'zg'atishi mumkin emas	taflar va uchinchi shaxslarga nisbatan qarshi da'vo qo'zg'atilishi mumkin

2-§. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokurorning ishtirok etish asoslari



Fuqarolik protsessida prokuror qonunda nazarda tutilgan hollarda ishtirok etishida qonun chiqaruvchi asosan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining buyrug'i va boshqa qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda ishtirok etishini e'tirof etadi. Demak, qonunda belgilangan holatlar prokurorning sudda ishtirok etishi uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko'ra o'zining arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlarda fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish, fuqaroning muomala layoqatini cheklash yoki muomalaga layoqatsiz deb topish, shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya stasionariga yotqizish, farzandlikka olish, shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish, voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish (emansipatsiya) to'g'risidagi, apellyatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlarida ko'rilishida prokurorning ishtirok etishi majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida belgilanishicha, nikohni haqiqiy emas deb topish, bola huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, tiklash, cheklash, farzandlikka olishni bekor qilish to'g'risida prokuror sudga da'vo taqdim etishi va mazkur ishlarni sudlar tomonidan ko'rilishida ishtirok etishi mustahkamlangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi «Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi Qarorining 13-bandida «Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha prokurorning ishtiroki qonunda nazarda tutilganligini e'tiborga olib, sudlar bu ishlarni prokuror ishtirokisiz ko'rishga haqli emasligi» to'g'risida ko'rsatma berilgan.

2022-yil 28-oktabrda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi¹ning 534-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat to'g'risidagi qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni prokuratura organlari o'z vakolatlari doirasida «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunga muvofiq amalga oshiradi. Ushbu qoidaning belgilanishi, o'z navbatida, mehnat munosabatlarida

¹ Kodeks 2023-yil 30-aprelda kuchga kiradi.

ham prokuror nazoratining amalga oshirilishini, shuningdek mehnat nizosini ko'rishni so'rab sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar qatoriga prokurorning kiritilishi, fuqarolar va tashkilotlarning mehnatga oid huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda samarali himoya qilishni kafolatlaydi. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi «Sudlar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakti)ni bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanishi haqida»gi 12-sonli Qarorida ham, fuqaroni ishga tiklash to'g'risidagi ishlarni, albatta, prokuror ishtirokida ko'rib chiqishligi haqida tushuntirishlar berilgan. Mazkur ko'rsatma va tushuntirishlarning berilishi mehnat munosabatlariga oid nizoli ishlarni ko'rishda prokurorning ishtirok etishi qonuniy, asosli, adolatli qaror chiqarilishiga yordam beradi.

Prokurorning fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishtirok etishi asoslari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, Oila kodeksi va Bosh prokurorning 2015-yil 17-noyabrdagi «Sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligini yanada oshirish to'g'risida»gi 124-sonli buyrug'ida o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra sudlarda quyidagi ishlar ko'rilishida prokuror ishtiroki majburiy ekanligi belgilab qo'yilgan:

- prokurorning (da'vo) arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlarda;
- fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlarda;
- fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlarda;
- farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarda;
- ota-onalik huquqidan mahrum qilish, shu huquqni tiklash yoki cheklash to'g'risidagi ishlarda;
- shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi ishlarda;

– sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish haqidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ishlarda;

– voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e‘lon qilish (emansipatsiya) to‘g‘risidagi ishlarda;

– mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish bilan bog‘liq ishlarda.

Shuningdek, prokuror ishtiroki majburiyligi belgilangan ishlarning apellyatsiya va kassatsiya instantsiyalarida ko‘rilishida, prokuror protesti asosida ko‘rilayotgan barcha ishlarda prokuror ishtiroki qat‘iy ta‘minlansin.

Prokuror o‘zining bergan arizasi bo‘yicha qo‘zg‘atgan ishlarda ishtirok etishi bu fuqarolik protsessida prokurorning ishtirok etish asoslaridan biri hisoblanadi. Bu asos bevosita O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 50-moddasida va «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunda aniq belgilab qo‘yilgan.

Prokurorning sudga ariza bilan murojaat etishining ahamiyati shundaki, fuqarolarning huquq va erkinliklari, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning qonuniy manfaatlarini himoya etish, ularning buzilgan huquqlarini tiklash, huquqni muhofaza etuvchi organlarga nisbatan xalqning ishonch hissini uyg‘otish, qonunlarni bir xilda ijro etishini ta‘minlashdan iborat.


Agar fuqaro sog‘lig‘ining holati, yoshi yoki boshqa sabablarga ko‘ra sudga o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunining 26-moddasiga ko‘ra esa fuqaro sud tartibida himoya qilinadigan huquq va erkinliklari buzilsa, lekin fuqaro sog‘lig‘i, yoshi yoki boshqa sabablarga ko‘ra sudga o‘z huquq va manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lmasa da‘voni prokuror taqdim etishi va sudga quvvatlashi to‘g‘risida huquqiy norma mustahkamlab qo‘yilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, agar fuqaro sog'lig'i, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan taqdirdagina, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilib, prokuror sudda da'vo qo'zg'atish huquqiga ega.

3-§. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokurorning ishtirok etish shakllari

Fuqarolik protsessida prokurorning qanday protsessual huquqlarga ega bo'lishi, uning jarayonda ishtirok etish shakliga qarab belgilanadi.



Ushbu qoidadan ko'zlangan asosiy maqsad, birinchidan, o'zlarining huquq va erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini mustaqil ravishda himoya qila olmaydigan shaxslarning huquqlarini himoya qilish bo'lsa, ikkinchidan, Konstitutsiyadan kelib chiqib bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat ekanligi va kuchli huquqiy hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanganligi e'tirof etiladi.

Yuridik adabiyotlarda ham prokurorning sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishi quyidagi maqsadlarni ko'zlashi e'tirof etiladi:

– aybdor shaxslarni fuqarolik huquqiy javobgarlikka tortish va fuqarolar, tashkilotlar, davlatning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini tiklash;

– sudga fuqarolik ishini to‘g‘ri ko‘rish va hal qilish uchun yordam ko‘rsatish;

– huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish¹.

Fuqarolik protsessida prokurorning protsessual huquqlari	
Umumiy protsessual huquqlar (FPKning 40-moddasi)	Maxsus protsessual huquqlar (FPKning 51-moddasi)
ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar olish, nusxalar ko‘chirish, rad etish to‘g‘risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish, sud muhokamasi davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo‘yicha o‘zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e‘tirozlar bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish), sud hujjatlari-ning majburiy ijrosini talab qilish, davlat ijrochisi tomonidan harakatlar sodir etilishida hozir bo‘lish va o‘z huquqlarini amalga oshirish.	prokuror bergan arizasidan butunlay yoki qisman voz kechish, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun o‘zi arz qilgan talablar bo‘yicha sudga tushuntirishlar berish, ish mazmuni yuzasidan, shuningdek ishning muhokamasi vaqtida kelib chiqqan ayrim masalalar bo‘yicha o‘z fikrini bayon etish, sud hujjati ustidan protest keltirish huquqiga ega. Agar da‘vogar rozi bo‘lmasa, prokuror o‘zi arz qilgan talablarning asosini yoki predmetini o‘zgartirishga, qo‘shimcha talablar bildirishga, da‘vo talablarining miqdorini ko‘paytirishga yoxud kamaytirishga haqli emas.

Prokuror ishda qanday shaklda ishtirok qilsa ham, u hamma vaqt sud faoliyatini emas, balki sudda qonunning bajarilishini nazorat qiluvchi va odil sudlovni amalga oshirishda ko‘maklashuvchi shaxs bo‘lib qolaveradi. Shu

¹ Давлетов А.Ж. Прокурорский надзор. Учебник. Нукус. – С. 229.

sababli prokuror protsessda qaysi tomonning huquqini himoya qilishga qaramasdan, protsessda qaysi tarafning huquqi buzilsa, barcha hollarda ana shu buzilishga qarshi chiqishi lozim. Bundan tashqari, prokuror dastavval tutgan yo'lidan qat'i nazar, sudda nizo ko'rilganidan so'ng oqibatda haqli chiqqan tarafning manfaatini himoya qiladi¹.

Prokuror boshqa shaxslar tashabbusi bilan qo'zg'atilgan ishlarni ko'rishda ish yuzasidan fikr berish maqsadida ishtirok etganida ishning haqiqiy holatiga o'zining fikrini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 245-moddasiga ko'ra ishda ishtirok etuvchi prokuror sud muzokaralaridan keyin nizoning mohiyati bo'yicha o'z fikrini bayon etadi, bundan prokurorning boshqa shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida bergan arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar mustasno. Demak, prokuror faqat boshqa shaxslar tomonidan qo'zg'atilgan ishlarda ishtirok etganida fikr beradi.

Prokuror o'z so'zida sud majlisida tekshirilgan dalillarga tahlil berib, qanday faktlarning aniqlanganligi, ish bo'yicha qaysi qonunga asoslanish lozimligi, da'voning qanoatlantirilishi yoki qanoatlantirilmaligi to'g'risida fikr beradi. Prokuror fikri og'zaki yoki yozma shaklda bo'lishi mumkin. Agar yozma ravishda fikr bildirsa, ishga qo'shib qo'yiladi, agar og'zaki fikr bersa sud majlisi bayonnomasiga yoziladi.

4-§. Fuqarolik sud hujjatlarini qayta tekshirishda prokuror ishtiroki


Fuqarolik sud ishlarida ishtirok etuvchi prokuror qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishini nafaqat birinchi instansiya sudlarida, balki yuqori sud instansiyalarida ham amalga oshiradi.

Prokurorning yuqori instansiyalarida ishtirok etishidan asosiy maqsad:

¹ Shorahmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. – T.: Adolat. 2001. – 75-b.

birinchidan, birinchi instansiya sudlari yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan bo'lsa;

ikkinchidan, fuqarolarning subyektiv huquq va majburiyatlarini himoya qilishga qaratilgan.



Prokuror protsessning boshqa ishtirokchilaridan farqli ravishda apellyatsiya protesti keltirishga haqli. Apellyatsiya protestini tuman prokurori, uning o'rinbosari, yuqori turuvchi prokuror tomonidan keltirilishi mumkin. Apellyatsiya protesti sud hal qiluv qarori chiqarilgan kundan e'tiboran **bir oy** ichida beriladi. Kassatsiya shikoyati (protesti) apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi qabul qilingan kundan e'tiboran **bir yil** ichida berilishi mumkin.

Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan sud tomonidan ajrim topshirilgan yoki yuborilgan kundan e'tiboran **yigirma kun** ichida apellyatsiya instansiyasi sudiga prokuror xususiy protest keltirishi mumkin.

Prokuror O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 44–45-boblarida ko'rsatilgan normalar asosida apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida ishtirok etadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Prokurorning fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishtirok etish asoslarini tahlil qiling.

2. Prokurorning fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishtirok etish shakllarini tahlil qiling.

3. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokurorning huquqiy holatini tushuntiring.

4. O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 38-moddasida ko'rsatilgan Prokurorlarning **protest** bilan sud qarorlari ustidan keltiradigan **apellyatsiya va kassatsiya protestlarni** qiyosiy tahlil eting.

1-kazus

Farg'ona shahar prokurori sudga fuqaro Kornilov T.ni otalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida da'vo qo'zg'atadi. Sud majlisi jarayonida ushbu ish bo'yicha prokuror muzokara nutqi (fikri) berishdan bosh tortadi va buni u taraf sifatida ishtirok etayotganligi bilan asoslantiradi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-kazus

Sudda da'vogar I. Zokirovaning javobgar D. Zokirovga nisbatan muomala layoqatini cheklash to'g'risidagi fuqarolik ishini mazmunan ko'rish jarayonida javobgar D. Zokirovning vakili prokurorga nisbatan rad qilish haqida ariza kiritdi. Sudya ushbu arizani inobatsiz qoldirib, ish ko'rishni davom ettirdi. Shundan so'ng, sudya sud majlisini da'vogarning da'vosini rad etish to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqarish bilan yakunladi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

XII bob. SUDLARDA IQTISODIY ISHLAR KO'RILISHIDA PROKURORNING ISHTIROKI

1-§. Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokurorning ishtirok etish asoslari va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 41-moddasida «ishda ishtirok etuvchi shaxslar» doirasi belgilab qo'yilgan. Unda ko'rsatilishicha taraflar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organlari va boshqa shaxslar o'z zimmalariga yuklatilgan vakolatlarga ko'ra, shuningdek ushbu kodeksda nazarda tutilgan alohida toifadagi ishlar bo'yicha arizachilar hamda boshqa manfaatdor shaxslar ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb e'tirof etiladi (IPKning 43, 47–50-moddalari). O'z o'rnida prokuror «ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari»ga ega hamda uning prokuror sifatidagi huquq va majburiyatlari, uning protsessdagi tutgan o'rnini, protest kiritish vakolatlari va sud qarorlariga nisbatan o'z vakolatlari doirasida ta'sir qilish choralarining belgilanishi prokuror nazorati fanining ham predmeti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 49-moddasiga ko'ra prokuror sud majlisida ishtirok etishga haqli.

Tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlariga da'vo arizasini (arizani) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar yoki prokuror o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar iqtisodiy sudlariga esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari yoki ularning o'rinbosarlari taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari O'zbekiston Respublikasining barcha iqtisodiy sudlariga da'vo arizasi (ariza) taqdim etishga haqli.

Prokurorning iqtisodiy sudlarda ishtirok etish asoslari:

- qonunda nazarda tutilgan hollarda;
- prokurorning da'vo arizasi (arizasi) asosida qo'zg'atilgan ishlarda.

Fuqaroning, yuridik shaxsning va davlatning manfaatlarini ko'zlab da'vo arizasi (ariza) taqdim etgan prokuror da'vogarning huquqlaridan foydalanadi va uning majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish huquqi mustasno.

Prokurorning o'z da'vo arizasidan (arizasidan) voz kechishi da'vogarni (arizachini) ishni mazmunan ko'rib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi.

Prokuror tomonidan da'vogarning huquqini himoya qilish maqsadida taqdim etilgan da'vodan da'vogarning voz kechishi da'vo arizasini (arizani) ko'rmasdan qoldirishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun bilan unga yuklatilgan vazifalarga ko'ra, u arz qilingan talabning asosligi yoki asossizligi bo'yicha o'z fikrini beradi, agar ish uning arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan bo'lsa, prokuror taraf hisoblanadi va shuning uchun u arz qilayotgan talabini isbotlaydi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining iqtisodiy sudlarida ishlar ko'rilishida asosiy vazifalari – qonunda belgilangan vakolatlar orqali sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga erishishdan hamda qonun ustuvorligini ta'minlash, shuningdek, iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish hamda ushbu sohada qonunchilikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishni ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining iqtisodiy sudlarda ishlar ko'rilishida asosiy vazifalari	Qonindqa belgilangan vakolatlar orqali sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga erishish
	Qonun ustuvorligini ta'minlash
	Iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish hamda ushbu sohada qonunchilikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishni ta'minlash

Iqtisodiy sudlarda ishlar ko'rilishida prokuror vakolatlari
jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylik, ijtimoiy adolat, tinchlik va milliy totuvlikni mustahkamlash
korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, aksiyadorlar va muassislarning huquqlari, shuningdek jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish
tadbirkorlikni, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilish hamda ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish
prokuror ishtirokisiz ko'rilgan ishlarining mazkur buyruqda belgilangan toifalari bo'yicha sud qarorlarining qonuniyligini apellatsiya muddatida o'rganib, noqonuniy qarorlarni qonunga muvofiqlashtirish choralarini ko'rish
sud qarorlarini murojaatlarga asosan o'rganish va aniqlangan qonunbuzilishlarni bartaraf etishga yo'naltirish

2-§. Iqtisodiy sudlarda ishlar ko'rilishida prokurorning ishtirok etish majburiyligi

O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni va Iqtisodiy protsessual kodeksida iqtisodiy sudlarda ishlar ko'rilishida prokuror ishtirokiga oid normalar mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuning 4-moddasiga binoan iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan.

Iqtisodiy protsessual kodeksining 49-moddasida iqtisodiy sudlarda ishlar ko'rilishida prokurorning ishtiroki belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra:

Tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlariga da'vo arizasini (arizani) – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar yoki prokuror o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar iqtisodiy sudlariga esa – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari yoki ularning o'rinbosarlari taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari O'zbekiston Respublikasining barcha iqtisodiy sudlariga da'vo arizasi (ariza) taqdim etishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2015-yil 17-noyabrdagi «Iqtisodiy sudlarda ishlar ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligini yanada oshirish to'g'risida»gi 125-sonli buyrug'i 4-bandida belgilanishicha qonunda nazarda tutilgan hollarda hamda prokurorning (davo) arizasi asosida qo'zgatilgan ishlarda prokuror ishtiroki majburiyligi belgilangan.

Shuningdek, prokuror ishtiroki majburiyligi belgilangan ishlarning apellyatsiya va kassatsiya instantsiyalarida ko'rilishida, prokuror protesti asosida ko'rilayotgan ishlarda prokuror ishtiroki qat'iy taminlanishi korstaib otilgan.

Bundan tashqari mazkur buyruqda prokuror quyidagi ishlar ko'rilishida qanday masalalarga e'tibor qaratish kerakligi ko'rsatib berilgan:

davlat mulkini himoya qilish bilan bog'liq ishlarning ko'rilishida;

yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlarning ko'rilishida;

mulk huquqini tan olish to'g'risidagi ishlarning ko'rilishida;

bankrot deb topish to'g'risidagi ishlarning ko'rilishida;

davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi ishlarning ko'rilishida.

Prokuror boshqa toifadagi ishlarning ko'rilishida ularning dolzarbligi, murakkabligi, ijtimoiy ahamiyati hamda hududdagi qonuniylik ahvolidan kelib chiqib ishtirok etishi mumkin.

Iqtisodiy sudda ish ko'rilishida ishtirok etadigan prokuror tomonidan sud majlisi boshlangunga qadar ishga oid huquqiy hujjat va materiallar o'rganib chiqiladi.

Bu jarayonda ishning sudga taalluqliligi, ariza bergan shaxsning qonuniy vakolatga egaligi, ishni hal etish uchun zarur bo'lgan dalillar mavjudligi, ish bo'yicha javobgar to'g'ri jalb qilinganligi, da'voni ta'minlash choralari ko'rilganligi va davlat boji to'langanligi kabi ishning qonuniy hal etilishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Iqtisodiy sudda ish ko'rilishida ishtirok etuvchi prokuror dalillarni tekshirish va baho berishda faol qatnashib, har bir dalilning ishga aloqadorligi va ishning mohiyati bo'yicha asosli fikr bildirishi, vakolat doirasida ishni har taraflama, to'liq va xolisona ko'rilishini, qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilinishini ta'minlashda ko'maklashadi.

Iqtisodiy sudda ish ko'rilishida, ayniqsa, davlat mulkini hamda tadbirkorlik faoliyati subyektlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, mulk huquqini tan olish bilan bog'liq ishlarda aniqlangan qonunbuzilishlar yuzasidan mutasaddi mansabdor yoki boshqa shaxslarga nisbatan moddiy, intizomiy, ma'muriy choralar ko'rish, jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda prokurorga xabar berish masalalarini muhokama qilish bo'yicha sudga iltimosnoma kiritish.

Prokuror tomonidan, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyati subyektlari hamda jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga ariza kiritishda asosiy e'tibor zarar miqdoriga oid ma'lumotlarning mavjudligi, javobgarlar doirasi to'liq va to'g'ri aniqlanganligi hamda da'vo talabining aniq va qonunga asoslanganligiga qaratiladi.

Da'vo talabidan asossiz voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat mulkini himoya qilish bilan bog'liq ishlarning ko'rilishida:

– respublika va munitsipal mulkni tasarruf etish Fuqarolik kodeksining 214 va 215-moddalarida nazarda tutilgan vakolatli organlar tomonidan amalga oshirilganligiga;

– ishga barcha manfaatdor shaxslar to‘liq jalb qilinganligiga;

– davlat yoki davlat ishtirokidagi tashkilotning mulkini garov sifatida qo‘yish bilan bog‘liq shartnomalarning tuzilishida vakolatga ega bo‘lgan davlat organlarining roziligi olinganligiga alohida e‘tibor qaratiladi.

Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi ishlarning ko‘rilishida:

– bunday ishlar mulk huquqini tan olish to‘g‘risidagi ishlardan farqlanib, ish bo‘yicha nizo va javobgar bo‘lmazligiga;

– bu toifa ishlar iqtisodiyot sohasida tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari vujudga kelishi, o‘zgarishi yoki bekor bo‘lishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash haqidagi arizalar asosida qo‘zg‘atilishiga;

– sud yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni arizachi bu faktlarni tasdiqlaydigan tegishli hujjatlarni boshqacha tartibda olish imkoniyatiga ega bo‘lmaganda yoxud yo‘qolgan yoki yo‘q qilib yuborilgan hujjatlarni tiklash imkoniyati bo‘lmagan taqdirdagina aniqlashi lozimligiga alohida e‘tibor qaratiladi.

Mulk huquqini tan olish to‘g‘risidagi ishlarning ko‘rilishida:

– mulk huquqini tan olish jismoniy shaxsning huquqi va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatiga ta‘sir etishi mumkinligi aniqlangan taqdirda ish yuritishni tugatish lozimligiga;

– o‘ziga qarashli bo‘lmagan yer uchastkasida o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratga shaxsning mulk huquqi sud tomonidan faqat mazkur yer uchastkasi unga vakolatli organ tomonidan qonunda belgilangan tartibda beriladigan bo‘lsagina e‘tirof etilishi mumkinligiga;

– o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratning saqlab qolinishi boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari buzilishiga sabab bo‘lsa yoxud fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirsa, mulk huquqi e‘tirof etilishi mumkin emasligiga alohida e‘tibor qaratiladi.

Bankrot deb topish to'g'risidagi ishlarning ko'rilishida:

– bankrotlik alomatlarining haqiqatda mavjudligiga va bu haqidagi arizaning asoslantirilganligiga;

– bankrotlik alomatlari aniqlanmaganda iqtisodiy sud bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror qabul qilgunga qadar kreditorlarning bildirilgan talablari qondirilganda hamda soxta bankrotlik aniqlanganda qarzdorni bankrot deb topishni rad etish lozimligiga;

– tugatish boshqaruvchisi tomonidan yuklatilgan majbuuriyatlarining to'liq bajarilganligiga;

– kelishuv bitimini tasdiqlashda «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning talablariga rioya etilganligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Davlat organlari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan, tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjatlarini (butunlay yoki qisman) haqiqiy emas deb topish, mansabdor shaxslarning shunday harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi ishlarning ko'rilishida:

– shikoyat qilingan huquqiy hujjatlarni qabul qilish uchun asos bo'lgan holatlarning qonuniyligiga;

– huquqiy hujjat haqiqiy emas deb topilgan taqdirda aybdor mansabdor shaxsning harakatlariga nisbatan tegishli huquqiy baho berish choralarini ko'rishga;

– haqiqiy emas deb topilgan huquqiy hujjat oqibatida yetkazilgan zararining, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining foydasiga undirish choralarining ko'rilganligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Davlat ro'yxatiga olishni rad etganlik yoki belgilangan muddatda davlat ro'yxatiga olishdan bosh tortganlik ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlarning ko'rilishida:

– tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibiga rioya etilganligiga;

– shikoyat qanoatlantirilganida sudning hal qiluv qarorida tegishli davlat organiga ro'yxatdan o'tkazish majburiyatining yuklatilganligiga;

– tadbirkor manfaatlariga zarar yetkazgan mansabdor shaxsning harakatlariga nisbatan tegishli huquqiy baho berish choralariining ko'rilganligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Undirish so'zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjati yoki boshqa hujjatni ijro etilishi mumkin emas deb topish to'g'risidagi ishlarning ko'rilishida;

– pul mablag'larini so'zsiz (akseptsiz) tartibda undirish uchun asos bo'lgan hujjatlarning qonuniyligi va ularning vakolatli organ tomonidan qabul qilinganligiga;

– sud tomonidan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining buzilgan huquqlarini amalda tiklash choralariining ko'rilganligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Atrof-muhitni muhofaza etish haqidagi qonunchilik buzilishi yuzasidan ishlarning ko'rilishida:

– yetkazilgan zarar summalarining to'g'ri hisoblanganligi va asoslantirilganligiga;

– javobgar shaxslar doirasi to'g'ri aniqlanganligi, shuningdek, zarar yetkazgan shaxslarning harakatlariga huquqiy baho berilganligiga alohida e'tibor qaratadi.

Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi ishlarning ko'rilishida:

– yer uchastkalari olib qo'yilishining qonuniyligiga;

– olib qo'yilgan yer uchastkalaridagi uylar (kvartiralar), imorat va inshootlar, ko'p yillik dov-daraxtlar baholovchi tashkilotlar tomonidan tegishli tartibda baholanganligiga;

– yetkazilgan zararlarni qonunchilikda belgilangan tartibda to'lab berilganligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ishni sudda ko'rish boshlanguniga qadar protestni to'ldirish, o'zgartirish yoki chaqirib olish vakolatlaridan yetarli asoslar mavjud bo'lgan hollardagina foydalaniladi.

Protest keltirish viloyat prokurorlari va ularga tenglash-tirilgan prokurorlarning vakolat doirasidan chetga chiqib

ketadigan hollarda protest keltirish to'g'risidagi taqdimnoma bilan Bosh prokuraturaga murojaat etilsin.

Da'vo talabi to'liq rad etilgan kontraktatsiya va yer ijarasi shartnomalari bilan bog'liq nizolar bo'yicha sud qarorlarining qonuniyligi apellyatsiya muddatida o'rganilsin, protest keltirishga asos bo'lmagan taqdirda xulosa tuzilib, protest keltirish vakolatiga ega bo'lgan prokuror tomonidan tasdiqlanadi.

Apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida qatnashadigan prokurorlar ishlarni to'liq o'rganib, sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi yuzasidan asoslantirilgan fikr beradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy protsessda ishlarni ko'rishda prokurorning ishtiroki masalasini tahlil qiling.

2. Ishlarni suddan talab qilib olish va chaqirib olishning protsessual va moddiy talablarini tahlil eting.

3. Iqtisodiy sud qarorlariga protest keltirish va protestlarni o'zgartirish, to'ldirish, chaqirib olish tartibi bilan bog'liq masalalarni tahlil eting.

4. Ishlarini apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rishda prokuror vakolatlarini yoriting. Tegishli qaror loyahasini tuzib bering.

1-kazus

Da'vogar – «Namanganuyqurilish» aksiyadorlik jamiyati iqtisodiy sudga da'vo arizasi bilan murojaat etib, «Namanganuyqurilish» AJ ishchi va xodimlarining 2017-yil 30-noyabrdagi umumiy yig'ilishi bayoni-qarorini, javobgar – Namangan shahar hokimining 2017-yil 18-dekabrdagi 1160-sonli, 2016-yil 2-iyuldagi 369-sonli qarorlarini haqiqiy emas deb topishni hamda «Nambum» qo'shma korxonasiga asossiz o'tkazilgan 13.700 kv.m. yer maydonini da'vogarga qaytarishni so'ragan.

Birinchi instansiya sudining 2018-yil 7-avgustdagi hal qiluv qarori bilan da'vo qanoatlantirilgan.

Prokuror tomonidan viloyat sudiga apellyatsiya protesti keltirilib, sud qarorini bekor qilishni so'ragan.

Ish hujjatlaridan ko'rinishicha, da'vogar – «Namangan-uyqurilish» OTAJ ishchi-xodimlari ishtirokida o'tkazilgan 2017-yil 30-noyabrdagi umumiy yig'ilish bayoni asosida hamda Namangan shahar hokimining 2017-yil 18-dekabrdagi 1160-sonli qarori bilan da'vogarga tegishli bo'lgan va foydalanilmayotgan 13.700 kv. m. yer maydoni «Nambum» qo'shma korxonasiga ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida berilgan.

Vaholanki, 2017-yil 30-noyabrda o'tkazilgan ishchi va xizmatchilarning umumiy yig'ilishi qarori yer masalasini hal qilishga va korxonaning yerini hamda boshqa mulklarini boshqa shaxslarga berish vakolatiga ega bo'lmagan. Bundan tashqari, jamiyatning ustav jamg'armasidagi davlat ulushi 25 foizni tashkil etganligi uchun bunday hollarda viloyat Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash boshqarmasining roziligi olinmagan.

Mazkur kasusni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tahlil eting.

2-kazus

Surxondaryo viloyat prokuraturasi «Isroilbek kelajak sari» MChJ manfaatida iqtisodiy sudga ariza bilan murojaat qilib, «Chinoz sharob savdo» unitar korxonasidan 2.690.000 so'm asosiy qarz, 88800 so'm jarima, 1.345.000 so'm penya undirishni so'ragan.

Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori bilan da'vo to'liq qanoatlantirilgan.

Kassatsiya protestida hal qiluv qarorini o'zgartirish so'ralgan.

Ishdagi hujjatlardan aniqlanishicha, 2016-yil 28-sentabrda MChJ va unitar korxonaga o'rtasida mahsulot oldi-sotdi shartnomasi tuzilgan. Shartnomaga ko'ra unitar korxonaga mahsulot yetkazib berish, MChJ esa uning qiymatini to'lash majburiyatini olgan.

MChJ unitar korxonaga mahsulot uchun oldindan 2.960.000 so'm o'tkazib bergan bo'lsa-da, javobgar mahsulot yetkazib bermagan. Bu esa ishdagi mavjud hujjatlar bilan o'z tasdig'ini topgan.

shakllaridan biri, ya'ni davlat organlariga, muassasalariga, mansabdor shaxslarga, xalq vakillariga murojaat etish huquqlari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu moddaga ko'ra, har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga egadirlar. Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etish shakllaridan biri davlat organlariga, muassasalariga, mansabdor shaxslarga, xalq vakillariga murojaat etish huquqi bo'lib, fuqarolarning murojaat qilish huquqi Konstitutsiyada fuqarolarning siyosiy huquqlari turidagi huquqlar tizimida berilgan. Ayrim adabiyotlarda keltirib o'tilishicha, siyosiy huquqlar fuqarolik bilan bog'liq bo'lib, u tegishli davlatning fuqarolariga davlat va jamiyat ishlarini boshqarish imkoniyatini beradi. Siyosiy huquqlarga faqat mamlakat fuqarosi ega bo'lishi mumkin¹. Shuningdek, boshqa bir adabiyotlarda ham fuqarolarning siyosiy huquqlari yuzasidan shunga o'xshash fikrlar ilgari suriladi. Ya'ni unga ko'ra, siyosiy huquq va erkinliklar o'z tabiatiga ko'ra inson tug'ilganidanoq ega bo'ladigan va uzviy hisoblangan asosiy shaxsiy huquqlardan farqli o'laroq, davlat fuqaroligiga ega bo'lishi bilan bog'liqdir². Ushbu yuqoridagi fikrlar mazmunidan anglashiladiki, siyosiy huquqlar faqatgina mamlakatning fuqaroligi bilan bog'liq bo'lib, ushbu huquqlardan faqatgina muayyan davlatning fuqarolarigina foydalanadi. Bundan kelib chiqib, fuqarolarning murojaat qilish huquqlari ham aynan siyosiy huquqlar sirasiga kirganligi bois ushbu huquqlardan faqatgina davlat fuqarolarigina foydalanadi, degan noto'g'ri xulosa tug'ilishi tabiiy hol. Lekin, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida esa har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi nazarda tutilgan. Demak, ushbu norma

¹ Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq // Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – B. 120.

² Rustamboyev M.X., Ahmedov D.Q., Xidirov S.M., Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Darslik. – T: 2005. – B. 118.

mazmunidan anglashiladiki, sudga shikoyat qilish huquqidan fuqaroligidan qat'i nazar, har bir shaxs egadir. Shuningdek, «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslar davlat organlariga murojaat etish huquqiga ega. Murojaat etish huquqi ixtiyoriy amalga oshiriladi. Xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi davlat organlariga murojaat etish huquqiga egadirlar. Ushbu norma mazmuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasining davlat organlariga murojaat qilish huquqini o'z fuqarolari bilan bir qatorda xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun birdek mustahkamlamoqda. Bu borada huquqshunos O.T. Husanov ta'kidlashicha, umumiy qoidalarga asosan siyosiy huquqlardan faqat fuqarolar foydalanishi kerak. Lekin bu yerda shu qoida istisno tariqasida amal qilmaydi. Sababi murojaat qilish huquqi, davlat ishida ishtirokni ta'minlashdan ancha kengroq vazifalarni, ya'ni iqtisodiy turmush, o'zining qadr-qimmatini, sha'nini himoya qilishni ham ko'zlaydi¹. Demak, yuqoridagilar, bir qator normativ-huquqiy hujjatlarning normalari hamda ayrim nazariy fikrlarning mazmunidan anglashiladiki, O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlariga murojaat qilishga O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan bir qatorda, chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham vakolatli ekan. Bunday shaxslar toifasi umumlashtirgan holda jismoniy shaxslar atamasi bilan ifodalanishi lozim hisoblanadi.

Shuningdek, vakolatli davlat organlariga murojaat qilish huquqining yana bir mustaqil subyekti sifatida yuridik shaxslarni ham ko'rsatish mumkin. Yuridik shaxs deganda, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda

¹ Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq // Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2022. – B. 126.

da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotni tushunish kerak¹. Ushbu belgilarga ega bo'lgan hamda qonunga muvofiq yuridik shaxs hisoblangan tashkilot «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga ko'ra vakolatli davlat organlariga murojaat qilish huquqiga egadir. Huquqshunos I.B. Zokirovning ta'kidlashicha, yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o'z nomidan huquqiy munosabatlarda qatnashishi, turli bitimlar tuza olishi, mulkiy va mulkiy xarakterda bo'lmagan huquqlarga ega bo'la olishi va majburiyatlar vujudga keltira olishi, sudda mustaqil ravishda da'vogar va javobgar bo'la olishi huquqlariga egadir². Yuridik shaxs hisoblangan tashkilot ega bo'lgan ushbu huquqlar aynan ularning murojaat qilish huquqlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, shuningdek vakolatli davlat organlariga murojaat qilish huquqi ushbu sanab o'tilgan huquqlarning mantiqan tarkibiy qismi deb hisoblash mumkin.

Yuqorida jismoniy va yuridik shaxslarni va ularning huquqiy maqomini tahlil qilish orqali ularni vakolatli davlat organlariga murojaat qilish huquqining subyekti hisoblanishi to'g'risida bir qancha xulosaga keldik. Lekin shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda vakolatli davlat organlariga xususiy tadbirkorlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan taqdim qilinayotgan murojaatlarning salmog'i yuqori darajani tashkil qiladi. Shu sababli ham murojaat qilish huquqining subyekti sifatida ushbu subyektlarni ham tahlil qilib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu holat yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati»ga yuzlanishimiz lozim bo'ladi. Unga muvofiq, xususiy tadbirkorlar, yakka tartibdagi tadbirkorlarning murojaatlari jismoniy shaxslarning murojaatlariga tengashtiriladi va jismoniy shaxslarning murojaatlari sifatida ro'yxatga olinadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 39-modda // (2022-yil 10-dekabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.

² Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashr. – T.: TDYI nashriyoti, 2009. – B. 170.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, vakolatli davlat organiga murojaat qilish huquqi subyektlari ikkita katta guruhga, ya'ni jismoniy shaxslar hamda yuridik shaxslarga ajratiladi. Ushbu tasnifdan kelib chiqqan holda murojaatlarga qo'yiladigan talablarning doirasini ham turli ko'rinishda ifodalash mumkin. Unga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan taqdim etilgan murojaatida taqdim etuvchining shaxsiga oid bo'lgan ma'lumotlar, ya'ni jismoniy shaxsning ismi, familiyasi, otasining ismi, uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan va murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak. Yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan murojaatlarda esa yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan va murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, yuridik shaxsning murojaatida uning rekvizitlari to'liq ko'rsatilishi, korxonalar rahbari yoki vakolatli shaxs imzosi bilan, elektron murojaat esa elektron raqamli imzo (shifr) bilan tasdiqlangan bo'lishi, shuningdek murojaat etuvchilarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi lozim.

Eslab qoling:

«Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

Davlat tili deganda, o'zbek tilini nazarda tutish kerak. Boshqa tillar deganda davlat tilidan boshqa murojaat etuvchining ixtiyorida bo'lgan har qanday tilni tushinish mumkin. Chunki, davlat organlariga murojaat qilish huquqiga yuqorida aytganimizdek, millati, tili, dini, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar har qanday shaxs, O'zbekiston Respublikasining

fuqarolari, chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar murojaat qilishi mumkin.

Demak, murojaat qilish – bu fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishining amaliy shakllaridan biri bo'lib, mazkur huquq – fuqarolarning siyosiy faolligini namoyon qilish, ijtimoiy-siyosiy ishlarga qiziqishini, shuningdek o'z huquqlarini himoya qilishning muhim vositalaridan biridir. Shu bilan birga fuqarolarning murojaatlari jamiyat hayotidagi joriy masalalarni hal qilish uchun zarur axborot manbai, davlat organlarining aholi bilan muloqotini mustahkamlash usuli va yo'li sifatida ham katta ahamiyatga ega.

2-§. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarning turlari va shakllari

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar. Ushbu normada belgilab o'tilgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligining bir ko'rinishi fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida va har tomonlama ko'rib chiqib, ularning huquqlarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini ta'minlash faoliyatidir. Huquqshunos olim Sh. Kareyevaning ta'kidlashicha, fuqarolarning ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi muhim ijtimoiy-huquqiy institutlardan biridir va qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat manfaatlarini muhofaza qilishning muhim usuli sifatida qo'llaniladi¹.

Bu kabi murojaat qiluvchilarning manfaatlari hamda muhim ma'lumotlarni ifoda etish va o'z o'rnida ularni aniqlash uchun murojaatlarning shakli, turi, murojaat etish usullari katta ahamiyatga ega. Chunki, murojaatlarda fuqarolarning iltimos, talab, shikoyat tarzida ifodalangan qonuniy manfaatlari hamda davlat uchun zarur ma'lumotlar yotadi. Shu sababli ham


¹ Теория и практика прокурорского надзора: Лекции / Под ред. Кареева Ш. – М.: Экспресс, 2003. – С. 223–225.

fuqarolarning vakolatli davlat organlariga murojaatlarini tahlil qilishda ularning shakllari, turlari hamda murojaat etish usullari katta ahamiyat kasb etadi. Murojaatlarning shakllari hamda turlarini tasniflashda ikki xil yondashuv talab etiladi. Birinchi yo'nalish murojaatlarning shakllari hamda turlarini tasniflashning nazariy asosi hisoblanib, ushbu tasniflar huquqshunos nazariyotchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgandir. Ikkinchi yo'nalish esa normativ asos hisoblanib, mazkur tasniflash normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yiladi. Jumladan, mazkur masala yuzasidan maxsus izlanishlar olib borgan mualliflardan biri huquqshunos olim V.I. Remnev hisoblanadi. U murojaatlar tushunchasini ko'rib chiqib, uni alohida turlarga – shikoyatlar, arizalar, takliflar, jinoyat haqida xabar berish kabi tiplarga ajratadi. V.I. Remnev murojaatning har bir turiga aniqlik kiritadi. Xususan, ularga «huquqlarni amalga oshirish yoki davlat organlari yoxud jamoat tashkilotlarining normal faoliyat olib borishidagi qonuniy manfaatlari yuzasidan fuqaro murojaati»-deya izoh berib o'tadi. Ariza bu yordam ko'rsatish to'g'risidagi fuqarolarning iltimoslari bayon etilgan murojaatdir. Shikoyat, bu «davlat organlari yoki jamoat tashkilotlariga fuqaroning buzilgan huquq va qonuniy manfaati yuzasidan yoxud jamoat tashkilotlari va davlat organlari huquq va manfaatlarining buzilishi yuzasidan qilingan fuqaro murojaati»dir. Va nihoyat, fuqaro taklifi o'zida shuni ifodalaydiki, «murojaatning ushbu turi fuqaro huquqlari va ularning qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq bo'lmaydi, balki u davlat organlari, muassasalari, jamoat tashkilotlarining xalq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy sohasidagi faoliyatini yaxshilashga yo'naltiriladi». Bundan tashqari murojaatning har bir turi «ularni qabul qilish, tekshirish va hal etilishida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlarga egadir»¹. Ushbu fikrlarning mazmunidan ko'rinadiki, V.I. Remnev jinoyat haqida xabar berishni ham fuqaro murojaatlarining alohida turi sifatida ko'rsatadi. Boshqa bir huquqshunos mualliflar V.O. Luchina va

¹ Цит. по: Прокурорский надзор: Учебник/под ред. Г.П. Химичевой. М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право, 2001. С. 223–224.

O.N. Doronina ham «fuqaro murojaati» tushunchasini ariza, shikoyat va boshqa xabarlar kabi turlarga ajratishgan¹.

Shuningdek, yuqoridagi bir necha olimlarning fikrlarini inobatga olgan holda murojaatlarning turlarini ariza, shikoyat hamda takliflardan iborat deb hisoblash, bizningcha, to'g'ri bo'ladi. Murojaatlarning turlarini tasniflashning normativ asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasida ham murojaatlarning aynan ariza, taklif hamda shikoyat kabi turlari ko'rsatib o'tilgan. Murojaatlar og'zaki, yozma yoxud elektron shaklda bo'lishi mumkin.



Ariza jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari, muassasalari yoki mansabdor shaxslarga rasmiy murojaati bo'lib, fuqarolarning subyektiv huquqlarini ro'yobga chiqarish vositasi hisoblanadi. Uning mazmuni shundan iboratki, ariza jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarining buzilishi bilan bog'liq bo'lmaydi. Arizalar talab, iltimos mazmunida bo'ladi.

S. Usmonovning ta'kidlashicha, ariza biror muassasa, tashkilot, xo'jalik yoki rahbar xodim nomiga iltimos, taklif hamda shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat hisoblanadi.

¹ Лучина В.О., Доронина О.Н. Жалобы граждан в Конституционный Суд РФ / В.О. Лучина, О.Н. Доронина. – М.: Закон и право, ЮНИТИ, 1998. – С. 11–28.

Hujjatlar ichida ariza ijtimoiy hayotimizdagi eng ko'p qo'llaniladigan rasmiy hujjatdir¹. Darhaqiqat, jismoniy va yuridik shaxslarning ariza shaklidagi murojaatlarining salmog'i boshqa murojaat turlariga qaraganda yuqoridir. Qoida tariqasida ariza berish muddatlari belgilanmaydi. Lekin bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga ariza jismoniy yoki yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzuvchi harakat (harakatsizlik) sodir etilganligi yoxud qaror qabul qilinganligi ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran uzog'i bilan bir yildan kechiktirmay beriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan taqdim etiladigan murojaatlarning kam qismini takliflar tashkil qiladi. Taklif davlat tilida yoki boshqa (taklif beruvchiga qulay bo'lgan) tillarda berilishi mumkin. Takliflardan asosiy maqsad qonunchilikni takomillashtirish, davlat idoralari faoliyatini yaxshilash, xalqning qonuniy huquq va manfaatlari hamda istaklarini amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslar taklif berish orqali ham o'z huquqlarini bilvosita himoya qiladilar, huquq va erkinliklarini to'laroq amalga oshirilishiga erishadilar.

Qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha berilayotgan takliflarda taklifning g'oyasi, maqsadi va predmeti, normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish zaruriyati asoslari, mazkur hujjat qabul qilinadigan bo'lsa, ijobiy oqibatlarini aniq va lo'nda yozilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Taklif tarzidagi murojaatlarning salmog'i kam miqdorni tashkil qilishligini, davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga oid bo'lgan takliflarni berish birmuncha qiyinligi, aqliy salohiyat talab qilishi, shuningdek takliflarni jamiyatning maxsus bilimlarga ega bo'lgan cheklangan doiradagi shaxslar tomonidan berilishi bilan bog'lash mumkin. Taklif shaklidagi murojaatni taqdim qilish muddati qonunchilikda aniq belgilangan emas. Lekin qonunchilikda takliflarni ko'rib chiqishning muddatlari belgilab o'tilgan. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunining 28-moddasiga ko'ra, taklif

¹ Usmonov S. Davlat tilida ish yuritish amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T: Fan nashriyoti. 2008. 14-bet.

davlat organiga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi. Qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno bo'ib, bunday holatda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o'n kunlik muddatda yozma shaklda xabar qilinadi.

Vakolatli davlat organlariga taqdim etiladigan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining salmoqli qismini shikoyatlar tashkil qiladi. Shikoyat jismoniy va yuridik shaxslarning subyektiv huquq va erkinliklarini himoya qilish, buzilgan huquqlarini tiklash hamda davlat organlari, muassasalari va mansabdor shaxslar faoliyatidagi qonun buzilishlarini, ijtimoiy-iqtisodiy, huquq-tartibot va boshqa sohalardagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida beriladi.

Huquqshunos L.M. Kolodinning fikricha, «shikoyat – bu fuqaroning davlat yoki boshqa jamoat organlariga, ularning mansabdor shaxslariga, sud organlariga ularning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilishi yuzasidan qilgan murojaatidir»¹. Demak, murojaat qiluvchi jismoniy va yuridik shaxs shikoyat berish orqali o'zining buzilgan huquqlari yoki qonuniy manfaatlarini tiklash maqsadini ko'zlar ekan.

2014-yilning 4-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni² kuchga kirishi bilan jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlariga murojaat qilishining yangi shakli amalga kiritildi. Bu elektron murojaat shakli hisoblanib, hozirgi vaqtda jami murojaatlarning salmoqli qismini tashkil qilib, murojaat qilishning rivojlanib borayotgan shakli hisoblanadi.

Shuningdek, elektron murojaat deganda, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uning identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan elektron shaklda kelgan murojaatlarni tushunish lozim. Elektron shaklda berilgan murojaat «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi qonun talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

¹ Колодин Л.М. Жалоба // Энциклопедия права: ЭБД Кодекс, 2003.

² Qonun 2017-yil 11-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan.

Mazkur qonunga ko'ra, elektron raqamli imzo deganda, elektron hujjatdagi axborotni elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo tushuniladi¹.

Bugungi kunda, jismoniy va yuridik shaxslarning elektron shakldagi murojaatlari bilan ishlashda sohaga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yaratilgandir, jumladan O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining «Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasida normativ huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlari shular jumlasidandir.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarida faqatgina shaxslarning buzilgan huquqlari yoki manfaatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'libgina qolmay, balki joylardagi davlat organlari va ularning bo'g'inlarining qanday ishlayotganligi, mehnat samaradorligi haqidagi ma'lumotlar bilan birgalikda davlat uchun ahamiyatga molik bo'lgan takliflar ham aks etgan bo'lar ekan. Shu sababli ham jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining turlari hamda shakllari birdek muhim ahamiyatga egadir.

3-§. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda fuqarolarni shaxsan qabul qilishning tartibi va muddatlari

O'zbekiston Respublikasi Prokuratura organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi

¹ O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi 562-II-sonli Qonuni, 3-modda // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 12-modda.

O'zbekiston Respublikasining Qonuni, «Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, «Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi» O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 24-noyabrda qabul qilingan 165-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ularning shaxsiy qabulini tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnoma, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2015-yil 26-iyunda qabul qilingan 122-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Murojaatlarni telefon orqali qabul qilish markazi to'g'risida»gi Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 24-noyabrda qabul qilingan 165-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ularning shaxsiy qabulini tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnoma tasdiqlangan. Yo'riqnomaning 1-bandida prokuratura, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda Majburiy ijro byurosi organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari qabulini tashkil etish tartibi belgilab o'tilgan.

Murojaatlarni ko'rib chiqish «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq «Jismoniy shaxsning murojaatida jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Yuridik shaxsning murojaatida yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxsning murojaatida davlat organining, tashkilotning aniq nomi, murojaat yuborayotgan mansabdor shaxsning lavozimi va (yoki) familiyasi (ismi, otasining ismi) ko'rsatilgan, shuningdek murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak. Yozma

murojaat murojaat etuvchi jismoniy shaxsning imzosi yoki murojaat etuvchi yuridik shaxs vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Jismoniy shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo'shimcha ravishda yozib qo'yilishi kerak»¹.

Murojaatlarning barcha shakllari kelib tushgan kunning o'zida, ish vaqti tugaganidan keyin kelib tushgan taqdirda esa, keyingi ish kuni tegishli kitobda yoki maxsus elektron dasturida ro'yoxatga olinadi. Og'zaki murojaatlar real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan, ishonch telefonlari va videokonferensaloqa vositasida ham berilishi mumkin. Shaxsiy yoki sayyor qabul davomida qabul qilingan og'zaki murojaatlar bo'yicha murojaat etuvchining shaxsi va murojaatning mazmuni haqida batafsil ma'lumotnoma tuziladi. Agar murojaat etuvchi shaxsi to'g'risida ma'lumot taqdim qilmasa yoki bila turib yolg'on ma'lumot berganda, uning murojaati ko'rmasdan qoldirilishi haqida tushuntiriladi.

Murojaat ijrochiga kelib tushganda quyidagi masalalar hal etiladi:

- murojatni quyi turuvchi organlariga yoki hududiy mansubligi bo'yicha yuborish;
- murojaatni boshqa organ yoki muassasalarga yuborish;
- murojaatlarni boshqa tarmoqlarga o'tkazish;
- murojaatni ko'rmay qoldirish;
- murojaatni ko'rib chiqishni tugatish;
- murojaatni murojaat etuvchi shaxsga qaytarish;
- murojaatni hal etish uchun qabul qilish;
- murojaatni avval kelib tushgan murojaatga qo'shib qo'yish;
- murojaatni jinoyat, ijro ishlari yoki tekshirish materiallari bilan birgalikda hal etish.

¹ O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'RQ-445-sonli Qonuni, 6-modda // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 977-modda.

Quyidagi murojaatlar ko'rib chiqilmaydi:

- anonim murojaatlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda;
- «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar.

Murojaatlarni ko'rib chiqish quyidagi hollarda tugatiladi:

➤ agar takroriy murojaatlarda yangi vajlar yoki yangidan ochilgan holatlar keltirilmagan bo'lsa, ilgari murojaat materiallarida esa tekshiruvlarning to'la-to'kis materiallari mavjud bo'lsa va murojaat qiluvchiga belgilangan tartibda javoblar berilgan bo'lsa;

➤ agar murojaat qiluvchi o'z murojaatini belgilangan tartibda chaqirib olgan bo'lsa yoki uni ko'rib chiqishni tugatish to'g'risida iltimos qilgan bo'lsa;

➤ yashash joyi, turgan joyi (pochta manzili), elektron pochta manzili yoki boshqa rekvizitlari o'zgarganligi to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilmaganligi tufayli chaqirishning imkoni yo'qligi sababli murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz ko'rib chiqish imkoniyati bo'lmaganda;

➤ murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz ko'rib chiqish imkoniyati mavjud emasligi sababli davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxsi tomonidan chaqirilgan murojaat qiluvchi kelmay qolgan taqdirda;

➤ agar murojaat qiluvchi jismoniy shaxs vafot etganidan so'ng murojaatni ko'rib chiqish huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa.

Murojaatni ko'rmasdan qoldirganligi yoki ko'rib chiqish tugatilganligi haqida uni nazoratga olib yuborgan organ yoki mansabdor shaxs xabardor etiladi. Ko'rmasdan qoldirilgan yoki ko'rib chiqilish tugatilgan murojaatlarda, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lsa, murojaatning nusxasi tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ularning haqqoniyligini tezkor yo'llar bilan aniqlash uchun yuboriladi.

Prokuratura organlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish belgilangan kun va soatlarda, qabul qilish jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

Qabul qilish jadvali va uni o'tkazish vaqti, joyi hamda qabulga oldindan yozilish to'g'risidagi axborot, qabul qilish tartibi ularni davlat organlari, tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilish, shuningdek, ularning ma'muriy binosida hamma kirishi mumkin bo'lgan joylardagi stendlarga yoki boshqa texnik vositalarga joylashtirish orqali manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkaziladi.

Og'zaki murojaatlar bilan kelgan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bo'linmaning rahbari yoxud boshqa mas'ul xodim, shuningdek davlat organi, tashkiloti tarkibiy bo'linmalarining, tashkilotning rahbarlari yoxud boshqa mas'ul xodimlari tomonidan qabul qilinadi.

Og'zaki murojaatlar real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan davlat organlarining, tashkilotlarining ishonch, tezkor aloqa telefonlari orqali va videokonferensaloqa vositasida ham berilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining sayyor shaxsiy qabullari, shuningdek ommaviy qabullar, zarur bo'lgan hollarda, qabul qilish jadvallaridan tashqari o'tkazilishi mumkin. Ommaviy qabul hovlilarga (kvartiralarga), boshqa binolarga va joylarga birma-bir kirib chiqish orqali ham o'tkazilishi mumkin.

Jismoniy shaxs va yuridik shaxslarning vakili videokonferensaloqa vositasida murojaat berishi, oldindan tasdiqlangan maxsus axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda videokonferensaloqa jadval orqali amalga oshiriladi. Buning uchun murojaat etuvchi videokonferensaloqa o'rnatilgan tegishli davlat organi, tashkilotiga belgilangan tartibdagi talabnoma bilan murojaat qiladi. Ariza elektron shaklda berilishi mumkin.

Talabnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

➤ jismoniy shaxs uchun – murojaat etuvchining familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar;
- elektron pochta manzili;
- aloqa telefoni va/yoki faksning raqami;
- videokonferensaloqa o'tkazishga qulay sana va vaqt;
- murojaat tili;
- murojaatning qisqacha mazmuni.

Murojaat etuvchilarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Qonunga muvofiq, murojaatlarni berish muddatlari, qoida tariqasida, belgilanmaydi¹. Ayrim hollarda, agar davlat organining, tashkilotning yoki ular mansabdor shaxslarining murojaatni ko'rib chiqish bo'yicha imkoniyatlariga, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini o'z vaqtida amalga oshirish va himoya qilishni ta'minlash zaruratiga bog'liq bo'lsa, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra murojaatni berish muddati belgilanishi mumkin.

Qonunning 28-moddasiga ko'ra, ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart bo'lgan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi. Taklif davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi, qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno bo'lib, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o'n kunlik muddatda yozma shaklda xabar qilinadi.

Murojaatni ko'rib chiqishni yakunlash sanasi murojaat qiluvchi shaxsga javob xati yuborilgan kun hisoblanadi. Agar murojaatni hal etishning belgilangan muddati dam olish yoki

¹ O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi O'RQ-445-sonli Qonuni, 22-modda // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 977-modda.

bayram kuni tugaydigan bo'lsa, hal etish kuni undan keyingi ish kuni hisoblanadi.

4-§. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini hal qilish va xabar berish tartibi

Murojaatlarni hal qilish tartibi tegishli rahbarning ustxatiga muvofiq belgilanadi. Murojaatlarni hal etish davomida qo'shimcha ma'lumotlar, ma'lumotnomalar va materiallar talab etilishi hamda mansabdor yoki boshqa shaxslarning tushuntirishlari olinishi mumkin. Murojaatlarning to'liq va xolisona hal etilishini ta'minlash maqsadida, zarur hollarda tekshirishga murojaat etuvchi shaxslar, ularning vakillari, tegishli mutaxassislar hamda boshqa shaxslar jalb qilinishi mumkin.

Agar murojaat xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga daxldor bo'lsa, ushbu subyektlarning vakillari tekshirishda ishtirok etishga jalb qilinadi.

Prokuratura organlarida ko'rib chiqilayotgan murojaatda tezkor yo'l bilan o'rganish talab qiladigan vajlar mavjud bo'lganda murojaatning nusxalari va kerakli hujjatlar zudlik bilan Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash departamenti va Majburiy ijro byurosining tegishli organlariga yuboriladi. Departament va byuro organlari prokurorning talabi asosida murojaatda keltirilgan vajlarni o'rganadi va o'n kun ichida uning natijalari to'g'risida prokuraturaga xabar beradi. Murojaatlarni tekshirish davomida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha departament va byuro organlarining rahbarlari vakolatlariga kirmaydigan choralar ko'rish zarur bo'lganda, to'plangan materiallar prokuror nazorati hujjatlarini qo'llash uchun tegishli prokurorga yuboradi.

Prokuratura organlariga kelib tushgan murojaatlar hal etish natijadariga ko'ra ma'lumotnoma tuziladi va quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

Qanoatlantirish – aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha choralar ko'rilganda yoxud murojaat etuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlari to'liq yoki qisman tiklanganda;

Qanoatlantirishni rad etish – murojaatda bayon etilgan vajlar tasdiqlanmagan yoki murojaat qiluvchining talablari asossiz bo'lganda yoxud murojaatda bayon etilgan choralarni qo'llash uchun zaruriyat va asoslar mavjud bo'lmaganda;

Tushuntirish – huquqiy xarakterdagi masalalar tushuntirilganda, shu jumladan, murojaatda biron-bir talabni qanoatlantirish haqida iltimos mavjud bo'lmaganda yoxud murojaatni ko'rib chiqish paytiga kelib murojaat bo'yicha vakolatli organ tomonidan qaror qabul qilinib bo'lganda.

O'zbekiston Respublikasi «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunining 27-moddasiga ko'ra «Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan qaror qabul qilinadi, bu haqda murojaat qiluvchiga darhol yozma yoki elektron shaklda xabar qilinadi». Demak, ushbu talab mazmunidan anglashilishi mumkinki, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatini ko'rib chiqib hal qilingan deb topishning zaruriy sharti murojaat muallifiga javob xati yuborishdir. Murojatlarga javoblar mumkin qadar, murojaat etilgan tilda bayon qilinadi, javoblar murojaatda ko'rsatilgan har bir masala bo'yicha vajlarni inkor etuvchi yoki tasdiqlovchi aniq asoslarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslarning jamoaviy murojaatlariga javob mualliflar ro'yxatida birinchi bo'lib ko'rsatilgan shaxsning nomiga yoki ularning talabiga binoan boshqa shaxs nomiga yuboriladi. Agar, murojaat etuvchilar murojaat bo'yicha qabul qilingan qarordan norozi bo'lgan taqdirda uning ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish huquqi, zarur bo'lganda, qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa huquqlari tushuntiriladi. Ommaviy qabullar vaqtida kelib tushgan va joyida hal etilgan og'zaki murojaatlarga yozma javob yoki elektron shakldagi javob talab etilmaydi.

Nazorat savollari:

1. Shikoyat va arizalar bilan murojaat qilish huquqini ta'minlashda prokurorning vazifalari.

2. Fuqarolar tomonidan prokuratura organlariga qilinadigan murojaatlar va ularning turlari to'g'risida ma'lumot bering.

3. Prokuratura organining fuqaro murojaatlarini ko'rishda o'ziga xos jihatlarini yoriting.

4. Murojaatlarni sud va prokuratura, adliya organlarida qabul qilish va ko'rib chiqish tartibini qiyosiy-huquqiy tahlil qilib bering.

1-kazus

1. Tuman prokuraturasiga anonim xabar kelib tushib, unda ma'lum qilinishicha, tuman ichki ishlar bo'limi navbatchilik qismida fuqaro Nasibullayevga tan jarohatlari yetkazilganligi haqidagi ma'lumotni qabul qilishdan bosh tortib, fuqaroga yashash joyidagi tibbiyot muassasasiga murojaat etishni tavsiya qilishgan.

Prokuror mazkur holatda qanday harakatlar va huquqiy ta'sir choralarini ko'rish lozim

2-kazus

2. Davlat qo'mitasida jismoniy shaxslarning murojaatlarini ro'yxatga olish, ularni ko'rib chiqish va nazorat qilinishini tashkil etish tartibi belgilangan.

Mazkur tartibda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar faqat xalqaro shartnomalar va kelishuvlarda boshqacha tartib belgilanmagan taqdirda murojaat etish huquqiga ega ekanliklari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunning 15-moddasida xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi davlat organlariga ushbu Qonunga muvofiq murojaat etish huquqiga ega ekanliklari qayd etilgan.

Shuningdek, Qonunning 29-moddasida anonim murojaatlar ko'rib chiqilmasligi belgilangan bo'lsa-da, mazkur talabga zid ravishda tartibda bunday murojaatlarning ro'yxatga olinmasligi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, Qonunning 25-moddasida qo'yilgan masalalarni hal etish o'zining vakolat doirasiga kirmaydigan davlat organiga kelib tushgan murojaatlar besh kunlik muddatdan kechiktirmay tegishli organlarga yuborilib, bu haqda murojaat etuvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar qilinishi haqidagi talabiga zid ravishda, tartibda bunday murojaatlarning mualliflarga qaytarilishi belgilangan.

Qonunning 27-moddasida belgilangan fuqaroning murojaatini ko'rib chiqqan davlat organi murojaat etuvchiga ko'rib chiqish natijalari hamda qabul qilingan qaror haqida murojaat ko'rib chiqilganidan so'ng yozma yoxud elektron shaklda darhol xabar qilishi shartligi haqidagi talabga zid ravishda, tartibda arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha mualliflarga bunday shaklda xabar berilishi belgilanmagan.

Prokuror nazoratining qanday hujjati orqali bu qonun buzilishi bartaraf etilishi lozim? Prokuror mazkur holatda qanday harakatlar va huquqiy ta'sir choralarini ko'rishi lozim?

XIV bob. HUQUQ IJODKORLIGIDA VA JAMIYATDA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA PROKURATURA ORGANLARINING ISHTIROKI

1-§. Prokuratura organlarining huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etishi

O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi 257-II-sonli Qonunining 4-moddasiga ko'ra, prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish hisoblanadi.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishini amalga oshirishda prokuratura organlari tomonidan o'z vaqtida fuqaro, jamoatchilik, mehnat va o'quv jamoalari orasida malakali huquq targ'ibot va tushuntirish ishlari olib boriladi. Respublikada yashovchi har bir fuqaromiz o'z davlatimiz qonunlarini nafaqat bilishi, balki uning mazmun va mohiyatini to'la-to'kis tushunishi, hayotda foydalanishi va undan o'zini himoya qilishda foydalanishi kerak. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 12-apreldagi 9-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Qonunchilik targ'iboti bo'limi to'g'risida»gi Nizomi shu masalaga bag'ishlangan.

«Qonunchilik targ'iboti bo'limi to'g'risida»gi Nizom talabiga ko'ra, Qonunchilik targ'iboti bo'limi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining mustaqil tarkibiy tarmog'i hisoblanadi. Qonunchilik targ'iboti bo'limi tarkibida Bosh prokuraturaning mas'ul xodimlaridan iborat matbuot markazi faoliyat ko'rsatadi. Ushbu bo'lim faoliyatiga Bosh prokuror tomonidan tayinlanadigan bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi. Bo'lim boshlig'i ayni vaqtda Bosh prokuratura matbuot xizmatining rahbari hisoblanadi va bu bo'limda katta prokuror, prokuror va bo'lim noziri faoliyat ko'rsatadi.

Qonunchilik targ'iboti bo'limi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Prokuratura to'g'risida»gi, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi, «Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to'g'risida»gi va boshqa qonun hujjatlari,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Bosh prokuraturaning hay'at qarorlari, Bosh prokurorning sohasiy buyruq va ko'rsatmalari hamda mazkur Nizom talablari asosida amalga oshiradi.

Qonunchilik targ'iboti bo'limi tomonidan qonuniylik va jinoyatchilik ahvoli, bu boradagi profilaktik tadbirlar va qonunlar targ'iboti haqidagi ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqqan holda ishni tashkillashtirish borasida Bosh prokuraturaning yarim yilga tuziladigan ish rejalariga takliflar beriladi va bo'limning ish rejasi tuziladi. Ish rejasiga kiritilgan tadbirlar ijrosi belgilangan muddatlarda ta'minlanadi. Ushbu bo'limda ishni tashkil etish xodimlar o'rtasida vazifalarni soha-mintaqa va o'rindoshlik asosidagi ish taqsimotiga binoan amalga oshiriladi.

Qonunchilik targ'iboti bo'limida qonunchilik targ'iboti yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tahliliy hujjatlar tayyorlanadi va bu haqda Bosh prokuratura rahbariyatiga axborot berib boriladi. Quyi prokuraturalarga soha faoliyatini yaxshilashga qaratilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi va joylarga yuboriladi.

Qonunchilik targ'iboti bo'limida tezkor yig'ilishlar o'tkazib boriladi va ularda sohaga taalluqli, shuningdek bevosita xodimlarning faoliyati bilan bog'liq masalalar muhokama qilinib, tegishli qaror qabul qilinadi. Bo'limda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oyda hisobot tuzilib, tashkiliy- nazorat va tahlil boshqarmasiga topshiriladi. Hisobotlarning haqqoniyligi uchun mas'uliyat bo'lim boshlig'i zimmasida bo'ladi. Zarurat tug'ilganida, viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalardan sohaga oid tahliliy axborotlar talab qilib olinadi. Bo'lim faoliyatini Bosh prokurorning soha bo'yicha o'rinbosari nazorat qiladi va sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Bosh prokurorga axborot berib boradi.

Qonunchilik targ'iboti bo'limi Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoqlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, tegishli idoralar, «Qonun himoyasida» birlashgan tahririyati va boshqa ommaviy axborot vositalari hamda jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi. Viloyat prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan

prokuraturalarning qonunchilik targ'iboti bo'yicha tarmoqlari o'z faoliyatini mazkur Nizom talablari asosida amalga oshiradi.

Shunday qilib, bo'limning asosiy vazifalari – qonunchilikni targ'ibot qilish, qonun ijodkorligi faoliyati va jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlarida ishtirok etish, prokuratura organlarining faoliyatiga oshkoralik berishni tashkillashtirish asosida huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

Shu maqsadlarda bo'lim o'z faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlarda oshiradi:

- jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va aholining huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunlarga hurmat va qonun buzilishlariga murosasizlik ruhida tarbiyalash ishlarida qatnashish;

- prokuratura organlarining qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish borasidagi faoliyatiga oshkoralik berish;

- qonunchilikni targ'ib qilishni tashkillashtirish;
- qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etishni tashkillashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan bildirilgan takliflarni o'rganib, umumlashtirish va Bosh prokuratura rahbariyatiga takliflar taqdim etish;

- viloyat prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning tegishli tarmoq xodimlarini ish o'rganishga chaqirish, ularning kasb mahoratini oshirish;

- targ'ibotning sifati, samaradorligi, qonuniylik holatiga ta'sirini o'rganib, tahlil qilish va tegishli vazifalarni belgilab borish dolzarb masalalarni idoralararo yig'ilishlar, tezkor va hay'at majlislarini muhokamasiga kiritish;

- prokuratura organlarida qonun hujjatlarini mujassamlash va tartibga solish, ularga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishini ta'minlash;

- Bosh prokuraturaning matbuot xizmati sifatidagi faoliyatini amalga oshirib, Bosh prokuror topshirig'iga asosan ommaviy axborot vositalari uchun rasmiy xabarlar tarqatadi va matbuot konferensiyalari tashkil etadi;

– bu sohada huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar, davlat va nodavlat, o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va hamkorlikni mustahkamlash;

– Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoqlari, soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti, Qoraqalpogiston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, O'zbekiston harbiy va Transport prokuraturalarining mazkur sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirish, davriy tekshirish o'tkazish hamda ularga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish;

– Bosh prokuraturaning «qonun himoyasida» birlashgan tahririyati va prokuratura organlari muassisligida tashkil etilgan ommaviy axborot vositalari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga amaliy-uslubiy yordamlar ko'rsatish.

Huquq targ'iboti va qonunlarni tushuntirishda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonunlar, respublika oliy va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlari tashkil etilishi; prokuratura, sud tizimi va boshqa huquqni himoya etish idoralariga; iqtisodiy o'zgarishlar, bozor munosabatlari, erkin narxga o'tish va mulkka; shaxsning hayoti, sog'ligi, ozodligi va sha'ni, mulkiy, siyosiy va ijtimoiy huquqlari muhofazasiga qaratilgan milliylik hamda e'tiqodlarga tegishli qonunlar ijrosiga qaratilishi lozim.

Prokuror nazorati faoliyatida oshkoralikni ta'minlash orqali jinoyatchilik va qonunsizlikka qarshi kurash uchun aholini faol jalb etishga erishish kerakligi qayd etilgan. Huquq targ'ibot faoliyati jinoyatchilik va qonunbuzarlikka qarshi kurash choralari tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu ish jinoyatchilik va qonunchilikning ahvoli, hududlar, obyektlar, joylar va aholining o'ziga xos hususiyatlari e'tiborga olinib, davlat, huquqni himoya etish idoralari, ijtimoiy tashkilotlar, partiya va uning harakatlari, ijodiy uyushmalari bilan hamkorlikda, rejali va maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Matbuot imkoniyatlaridan foydalanishga jiddiy e'tibor qaratilishi kerak. Matbuot markazi va guruhlarining faoliyati takomillashtirib borilishi, ommaviy axborot vositalarida

prokuratura faoliyatida yuz berayotgan jarayonlar va dolzarb muammolar yoritib borilishiga erishish kerak.

Aholi, mehnat va o'quv jamoalari bilan o'tkaziladigan uchrashuv, suhbat va savol-javob soatlarida qonunchilik hamda jinoyatchilik muammolaridan tashqari, prokuror va tergovchilar faoliyatida uchraydigan kamchilik, xatolar, ularni bartaraf etish xususidagi tadbirlar hamda prokuror-tergov xodimlari mehnatining murakkabligi, fozillik, ezgulikka, adolat tantanasiga yo'naltirilgan mavzusi qamrab olib borilishi kerak.

Yoshlar o'rtasida targ'ibot va tushuntirish ishlari maqsadga to'g'ri yo'naltirilib, ularda huquqqa xilof harakatlarga nisbatan nafrat tuyg'usi uyg'otib borilishi kerak. Ota-onalar, tarbiyachilar, jamoatchilik faollari yoshlarning yashash, o'qish va ishlash joylaridagi turli shakllanishlar orasiga hamda faoliyati yoshlar tarbiyasiga qaratilgan idora va mahkamalarga muntazam tashrif buyurib, ular bilan hamkorlikda tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Jazo o'tash joylariga borilganda unda saqlanayotgan shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkazish lozim. Asosiy e'tibor jazo o'tayotgan va tarbiyalanayotganlar ozod bo'lgach, belgilangan haq-huquqlari xususida batafsil tushuntirib berilishi lozim.

Davlat idoralari, mehnat jamoalari, mansabdor va mas'ul shaxslar bilan suhbat va uchrashshuvlarda jazo o'tab qaytgan shaxslarni ish bilan ta'minlash, ular haqida g'amxo'rlik qilish, tarbiyalanib jamoatchilik orasidan o'z o'rnini topib ketishi xususida qonun talablari va turmush taqazosini tushuntirib borishga erishish kerak.

Huquq targ'ibot va qonunlarni mujassamlash bo'limi, ushbu tarmoqning joylardagi bo'g'inlari, qonunlarni tushuntirish va huquq targ'iboti bo'yicha quyi prokuratura organlari olib borayotgan ishlarni muntazam tekshirib, tahlil qilib, amaliy yordam ko'rsatib borishi qayd etilgan.

2-§. Prokuratura organlarining huquqiy targ'ibotda ishtirok etishi

Tuman (shahar) prokuraturalarida huquqiy targ'ibot vazifasining amalga oshirilishini tuman (shahar) prokurori ichki

mehnat taqsimoti bo'yicha o'z buyrug'i bilan belgilab qo'yadi. Odatda, joriy va istiqbolli rejada prokurorlar va prokuratura xodimlari bu vazifani amalga oshirish bo'yicha o'z oldilariga majburiyat olib, o'z ish rejalariga kiritib qo'yadilar. Har bir xodim yilning aniq bir oyida aynan qaysi qonunchilik targ'iboti bo'yicha faoliyat ko'rsatishi ilgaridan begilab olinadi. Sodir qilingan jinoyatlar bo'yicha ularning oldini olish yuzasidan kiritilgan taqdimnomalarning muhokamasi, sud muhokamalaridagi sud muzokarasi chog'idagi sud minbaridan foydalanish va yangi qabul qilingan qonunlarning tushuntirish ishlari rejadan tashqari amalga oshiriladi.

Huquqiy targ'ibot shakllariga quyidagilar kiradi:

– qonunlar ijrosini nazorat qilish borasida aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish, kelgusida shu kabi qonun buzilishlari kelib chiqmasligi uchun tegishli chora-tadbirlar belgilash uchun taqdimnoma kiritish;

– ushbu kiritilgan taqdimnomalarni joylarda muhokama etish chog'ida, majlislar, yig'ilishlar va boshqa shunga o'xshash tadbirlarda qatnashish;

– televideniye orqali huquq targ'ibotlarini olib borish;

– radio orqali huquq targ'ibotini amalga oshirish;

– matbuot orqali huquqiy targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

– sud minbarlaridan turib huquqiy targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

– mahalla fuqarolar yig'inlari, qishloq fuqarolar yig'inlari, xalq deputatlarining tegishli hududiy majlislarida qatnashish orqali huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish kabi shakllari mavjud.

Huquqiy targ'ibotning boshqa shakllari ham bo'lishi mumkin. Masalan, maktablar, litseylar, o'rta va oliy o'quv yurtlarida huquqiy targ'ibotni amalga oshirish uchun turli xil tadbirlar-o'yinlar, musobaqalardan foydalanish; namunaviy sayyor sud majlislarining maktablar, litseylar, o'rta va oliy o'quv yurtlarida huquqiy targ'ibotni amalga oshirish uchun turli xil tadbirlar-o'yinlar, musobaqalardan foydalanish; namunaviy sayyor sud majlislarining maktablar, litseylar, o'rta

va oliy o'quv yurtlarida o'tkazilishi; hozirgi kunda internet tarmoqlari orqali, kompyuter mahsulotlarining tarqatmalari tarzida ham amalga oshirilishi.

Qonunchilik targ'iboti faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida 3 nafar xodimdan iborat «Qonunchilik targ'iboti bo'limi» mavjud. Qoraqalpog'iston Respublikasi Prokuraturasi, Toshkent shahar va viloyatlar prokuraturalarida «Qonunchilik targ'iboti bo'yicha prokurorning katta yordamchisi» mavjud.

3-§. Prokuratura organlarining qonunlarni mujassamlashtirish va qonun ijodkorligi faoliyatida ishtiroki

Prokuratura organlarida qonunlarni mujassamlashtirish ishi ham yuqoridaa ta'kidlangan tartibda huquqiy targ'ibot faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Qonunlarni mujassamlashtirish ishida bevosita prokurorning o'zi mas'ul hisoblanadi. Chunki, amaldagi qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuratura xodimlari har kungi qabul qilinayotgan qonunlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari, kiritilayotgan har bir o'zgartish va qo'shimchalarni doimiy ravishda o'zlashtirib borishlari hamda joriy qilib borishlari zarur.

Buning uchun har doim prokuratura idoralarida doimiy ravishda «nazorat» kodekslari, «nazorat» qonunlari joriy qilingan. Hozirgi kunda, hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlar, Prezidenimiz farmonlari, yangi qabul qilingan qonunlarni o'z vaqtida joriy qilish yuzasidan prokuratura idoralari Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz) hamda «Norma» axborot-huquqiy portali dasturlaridan ham foydalanishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 4-moddasida belgilangan prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bu – qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining vakolatlari O'zbekiston Respublikasini «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 13-moddasida begilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkinligi qayd etilgan.

Prokuratura idoralari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ushbu faoliyatni amalga oshirish borasida amaliyotda qonun va qonunosti hujjatlarining qay darajada zamon talablariga javob berishi, qonunlarning qaysi jihatlari takomillashtirishga muhtoj ekanligi, qonunlarning to'liq va barkamol ijro etilishi uchun ushbu qonunlarga qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi zarurligi va yana munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun qanday qonunlar qabul qilinsa, maqsadga muvofiqligini bevosita ko'rib boradilar.

Ushbu qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish hamda yangi qonunlar qabul qilinishi zaruriyatini realizatsiya qilish uchun esa, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining qonunchilik tashabbusidan foydalaniladi. Buning uchun ular o'zlaridagi taklif va mulohazalarni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga tegishli tartibda taqdim etishadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga tegishli tartibda taqdim etishadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori esa, o'z vakolalari doirasida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat qiladi.

Sud faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qonunlarni qo'llash amaliyotiga oid tushunmovchiliklar bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiga qonunlar bo'yicha tushuntirishlar berish uchun murojaat qilishi mumkin.

Qonun ijodkorligi faoliyatida prokurorlarning ishtirok etishi ularning o'z vazifalari, ya'ni huquqni muhofaza qilish funksiyasi va qonun ustuvorligini ta'minlash vazifasini amalga oshirish bilan bir vaqtning o'zida bajariladi. Quyidan tartib yuqorigacha barcha

ijro hokimiyati organlari tomonidan qonunosti hujjatlari qabul qilinishidagi qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha nazoratni amalga oshirish hamda qonun chiqaruvchi Oliy organda – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida ishtirok etishi va bu majlislarda o'z fikr-mulohazalarini bildirishi, qonunlar talqini bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumida ishtirok etishi va qonunlar talqini bo'yicha o'z fikr va nuqtai nazarini ifoda etishi qonun ijodkorligi faoliyatining ko'rinishidir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Qaysi qonun hujjatlarida fuqaro, jamoatchilik, mehnat va o'quv jamoalari orasida huquq targ'ibotini amalga oshirishda prokuratura organlari qaysi tilda amalga oshirishi mumkinligi belgilangan?

2. Qonunda yoki qonunosti hujjatida qonun ijodkorligi hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish faoliyatida prokuratura organlarining ishtirok etishini nima sababdan asosiy yo'nalishi etib belgilangan?

3. Prokuratura organlarining jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda qonun ijodkorligida ishtirok etishi qanday ahamiyatga ega?

4. «Qonunchilik targ'iboti bo'limi to'g'risida»gi nizom mazmunini va asosiy yo'nalishlarini tushuntiring.

1-kazus

Qonunchilik targ'iboti bo'limi tomonidan qonuniylik va jinoyatchilik ahvoli, bu boradagi profilaktik tadbirlar va qonunlar targ'iboti haqidagi ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqqan holda ishni tashkillashtirish borasida Bosh prokuraturaning yarim yilga tuziladigan ish rejalariga takliflar beriladi va bo'limning ish rejasi tuziladi. Ish rejasiga kiritilgan tadbirlar ijrosi belgilangan muddatlarda ta'minlanishi lozim.

Ushbu reja tasdiqlangandan so'ng qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkinmi? Rejadan tashqari tadbirlar ham amalga oshirilishi mumkinmi?

2-kazus

Prokuratura organlari nazorat faoliyatini amalga oshirish chog'ida yoki sud protsessi jarayonida huquqiy targ'ibot ishlarini amalga oshirishi mumkinmi?

Qanday tartibda amalga oshirishni tushuntirib va asoslab bering.

XV bob. PROKURATURA ORGANLARINING XALQARO HAMKORLIGI. XORIJIY DAVLATLARDA PROKURATURA ORGANLARINING HUQUQIY MAQOMI

1-§. MDH va xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlarining faoliyati va xalqaro hamkorlik

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida prokuratura organlarining tashkil topishi va rivojlanishi, tarixiy tendensiyalari bir-biriga juda o'xshash bo'lib, ularni yagona markazlashgan prokuratura idorasiga tegishli bo'lganligi tufayli qonunlarning tuzilishi, prokuratura idorasining davlat organlari o'rtasida tutgan o'rni va ahamiyati bir-biriga yaqinligi bilan ajralib turadi, masalan, **Rossiya Federatsiyasi Prokuratura** organlari faoliyatining huquqiy asoslari Rossiya Federatsiyasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida belgilangan bo'lib, avvalambor, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi, «Prokuratura to'g'risida»gi Federal qonuni, boshqa federal qonunlar va xalqaro shartnomalardan iborat.

Rossiya Federatsiyasining 129-moddasida ko'rsatilishicha, Rossiya Federatsiyasi prokuraturasi quyidan yuqoriga bo'ysunish tartibida Rossiya Federatsiyasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashgan tizimidan tashkil topgan. Rossiya Federatsiyasi Bosh prokurori Rossiya Federatsiyasi Prezidentining taqdimnomasiga asosan Federatsiya Kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod qilinadi. Rossiya Federatsiyasi subyektlarining prokurorlari Rossiya Federatsiyasi Bosh prokurori tomonidan subyektlar bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va ozod qilinadilar. Boshqa prokurorlar Rossiya Federatsiyasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod qilinadilar. Rossiya Federatsiyasi prokuraturasining tashkil etish va faoliyat tartibi, vakolatlari federal qonunlar bilan belgilanadi.

Rossiya Federatsiyasining prokuraturasi Rossiya Federatsiyasi nomidan Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi va qonunlarining

aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat faoliyatini amalga oshiradigan yagona markazlashgan federal tizimni tashkil etadi.

Rossiya prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari qonunda asosiy funksiyalari deb nomlanadi. Asosiy funksiyalar Rossiya Federatsiyasining "Prokuratura to'g'risida"gi Federal Qonunining 1-moddasida belgilangan. 2-moddasida xalqaro hamkorlik, 4-moddasida prokuratura faoliyatining va tashkil etilishining tamoyillari, 5-moddasida prokuror nazorati faoliyatini amalga oshirishga aralashishga yo'l qo'yilmasligi, 6-moddada prokuror talablarini bajarilishining majburiyligi, 8-moddada jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyati, 9-modda huquq ijodkorligi faoliyatidagi ishtiroki, 10-moddasida prokuratura idoralarida ariza, shikoyat va boshqa murojaatlarning ko'rib chiqilishi va hal qilinishi belgilab qo'yilgan. Qonunning boshqa keyingi moddalarida belgilangan qonun talablari ham O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun talablariga o'xshab ketadi.

Rossiya Federatsiyasi prokuratura idoralarining jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatidagi vakolatlari, sudlarda prokuror vakolatini ta'minlash, umumiy nazorat faoliyati va boshqa faoliyati prokuror tomonidan o'z vakolatlarini qo'llashda foydalanadigan prokuror nazorati hujjatlari O'zbekiston Respublikasi prokuratura idoralari vakolatlari va prokuror nazorat hujjatlari va ularning qo'llash asoslariga o'xshashdir. Faqatgina prokurorning jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan vakolatlarida farq mavjud bo'lib, ayrim tergov harakatlari va fuqarolarning huquqlarini cheklash (sanksiya berish) vakolati Rossiya Federatsiyasida sudlarga berilgan. Shunday bo'lsa-da, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar dastlab hujjatlarni prokurorga olib borib, uning qonuniy roziligini olishlari lozim bo'ladi¹.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi davlatlarning prokuratura organlari faoliyatlari, ularning tashkil topishi va faoliyat prinsiplari O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining

¹ Madaliyev O.M. Prokuror nazorati. Darslik. Maxsus qism. – Toshkent: Ilm Ziyoi, – 2012. – B. 422.

tashkil topish va faoliyat prinsiplariga o'xshashdir. Qozog'istonda prokuratura Qozog'iston Respublikasi Prezidentiga hisobdor bo'lgan, respublika hududida qonunlar, Qozog'iston Respublikasi prezidentining farmonlari va boshqa normativ hujjatlar aniq va bir xilda qo'llanilishi ustidan «Oliy nazorat»ni amalga oshiruvchi davlat organi. Qozog'iston Bosh prokurorini Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Parlament Senatining roziligi bilan tayinlaydi. Bosh prokuror Prezident oldida hisobdordir.

Belorussiyada Respublika prokuraturasi davlat nomidan qonunlar ijrosi ustidan oliy nazoratni amalga oshiruvchi mustaqil organ hisoblanadi.

Litva Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, prokuratura Litva Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi mustaqil organidir («Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasi). Ishlar bo'yicha tergov olib borish va prokuror nazoratini amalga oshirish chog'ida prokuratura ishiga davlat hokimiyati va boshqaruv organlari va mansabdor shaxslari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va harakatlari, radio va televideniye xodimlarining aralashishi Qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi («Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasi).

Qirg'iziston Respublikasi Bosh prokuraturasi respublika Prezidenti oldida hisobdor bo'lib, Hukumatga qonuniylikning, ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qonunlarga rioya etilishi, jamoat tartibi va milliy xavfsizlikni saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilishni ta'minlash vazifalari bajarilishining holati haqida axborot beradi («Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 8-moddasi). Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyasida prokuratura ijro etuvchi hokimiyat tizimiga kiritilgan. (Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi).

Estoniyada prokuratura ijro etuvchi davlat hokimiyatining adliya vaziri boshqaruvi sohasiga mustaqil xizmat maqomiga kiruvchi muassasasi hisoblanadi. «Prokuratura to'g'risida»gi Nizom, uning tuzilishi va shtatlar ro'yxatini adliya vaziri tasdiqlaydi. Shunga qaramay, prokuratura dastlabki tergov

organlari tomonidan amalga oshiriluvchi jinoyat ishlari bo'yicha sudgacha ish yuritishning qonuniyligini, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazolarni ijro etishning qonuniyligini, tibbiy va tarbiyaviy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanishining qonuniyligini, politsiya faoliyatining qonuniyligini nazorat qiladi¹.

Xorijiy davlatlarning prokuratura organlarining farqlari, albatta, mavjud bo'lib, ular asosan o'sha davlatlarning Konstitutsiyaviy tuzilishi, qonunlar bilan ularga berilgan huquqiy maqom va davlat hokimiyati bilan o'zaro bog'liqlik darajasi va faoliyat shakli va yo'nalishlarini shu qonunlar mazmunidan kelib chiqqanligiga bevosita bog'liqdir.

Jahon prokuratura tizimlarining xilma-xilligiga qaramay, ularning barchasi davlat, jamiyat va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. BMTning 8-kongressida qabul qilingan prokuratura magistrantlariga taalluqli jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomalada bo'lish to'g'risidagi Rahbariy tamoyillarda ko'rsatilishicha, prokurorlar odil sudlovni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ularga tatbiq etiladigan qoidalar va protseduralar ularning inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatlarini rag'batlantirishga qaratilgan. Deyarli barcha davlatlar qonunchiligida va amaliyotida obyektivlik, xolislik va mustaqillik tamoyillariga asoslanadi. Prokuratura har qanday tashqi ta'sir, shu jumladan siyosiy hokimiyat ta'siridan mustaqildir. Shuningdek, prokuralarning umumiy tamoyili – uning harakatchanligidadir. Uning harakatchanligi qonunlarda prokuratura idoralariga berilgan vakolatlar doirasining kengligi bilan belgilanadi. Prokuralarning asosiy vazifasi jamiyatni jinoyatchilikdan himoya qilish. Bu masalani hal etishda prokuratura jinoyatchilikka qarshi kurashning aniq qonunga va uning huquqiy maqomiga zid bo'lmagan choralarni o'zi aniqlaydi.

Shuni ta'kidlash zarurki, hech qanday yagona andozalar bo'lishi mumkin emas. Bu prokuratura faoliyati va uni tashkil etishning rang-barang modellari mavjudligini anglatadi.

¹ Xalimov A.X. Prokuralarning davlat hokimiyati mexanizmi tizimidagi o'rni. – T.: TDYI, 2006. – B. 54–55.

Prokuratura institutining maqomi va vakolatlari mamlakat, uning tarixi va huquqiy madaniyatiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Prokuraturani rivojlantirish Yevropa Kengashi (Vena, 1993) prokuraturani bir mamlakatda boshqa mamlakat prokuraturasi andozasi bo'yicha tashkil etishda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaslik mumkin emas, degan xulosaga kelingani bejiz emas. Prokuratura maqomi, tuzilishi, funksiyalari va ish shakllarini o'zgartirish uyg'un tarzda amalga oshirilishi, ya'ni bunda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, shuningdek, inson huquq va erkinliklari hamda fuqarolik jamiyatini samarali himoya qilish uchun haqiqiy kafolatlarni yaratish bosh maqsad bo'lib qolishi lozim¹.

Odatda, barcha davlatlarda prokuratura quyi organlarining yuqori organlariga bo'ysunishi tamoyiliga asoslanib tashkil etiladi. Lekin bundan istisnolar ham mavjud (masalan: AQSHdagi attorney xizmati)².

Prokuratura o'z faoliyati xususiyatidan kelib chiqqan holda ko'plab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi. Xorijiy mamlakatlarda prokuratura va politsiyalarning o'zaro hamkorligi masalasiga alohida e'tibor beriladi. Prokuratura va politsiya hamkorligining 3 ta ko'rinishini ko'rsatish mumkin: **birinchidan, prokuratura va politsiya organlarining tashkiliy birligi** bilan ifodalanadi.

Bunda quyidagi variantlar mavjud:

- politsiya organlari prokuraturaning strukturaviy bo'g'ini hisoblanadi;
- politsiya faoliyatining barcha yo'nalishlari prokuratura nazorati ostida;
- prokuratura politsiya kadrlari bilan ish olib borish uchun mas'ul;
- politsiya faoliyatini belgilaydi;

¹ Xalimov A.X. Prokuraturaning davlat hokimiyati mexanizmi tizimidagi o'rni. – T.: TDYI, 2006. – B. 52–53.

² Madaliyev O.M. Prokuror nazorati: Darslik. Maxsus qism. – Toshkent: Ilm Ziyoi, 2012-yil. – B. 422–424.

➤ uning jinoyatchilik bilan kurash bo'yicha siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Hamkorlikning 2-ko'rinishi prokuratura politsiya harakatini umumiy jinoiy siyosat bo'yicha ham muayyan jinoiy ish bo'yicha ham boshqarib turishi. Prokuror tegov ishlarini politsiyaning qaysi bo'limi, qaysi politsiyachi olib borishini aniqlaydi. Shuningdek, prokuror muayyan jinoiy ish bo'yicha tergov ishlarini olib borishda jalb qilinishi lozim bo'lgan kuch va vositalarni aniqlaydi.

Prokuratura va politsiya o'rtasida ziddiyat paydo bo'lganda politsiyachi prokuror harakatlari ustidan yuqori turuvchi prokuratura organlariga yoki o'zining rahbariyatiga murojaat qilishga haqli.

Hamkorlikning 3-ko'rinishi, bu prokuratura politsiya faoliyatining qonuniyligini nazorat qiladi. Nazorat funksiyasini amalga oshirishda prokuratura politsiyadan jinoyatchilik holati, muayyan jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslar to'g'risida axborotni talab qilib oladi. Ba'zida prokuratura politsiyaning yuqori lavozimdagi xodimlarining faoliyati ustidan intizomiy nazorat olib borish huquqiga ega. Oxirgi vaqtlarda prokuratura faoliyatining politsiya faoliyati bilan yaqinlashishi kuzatilmoqda, chunki bu organlar hal qiladigan masalalar umumiydir. Prokuratura politsiya faoliyatini, uning qonunga rioya etishini, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha asosiy normativ aktlarni qo'llashni nazorat qiluvchi yagona organ bo'lib kelmoqda va bo'lib qoladi¹.

Turli mamlakatlarda prokuratura vakolat doirasi hajmi farqlanadi. Shu bilan birga prokuror hamma joyda yo bir o'zi yoki boshqa organ bilan hamkorlikda (tergovchi sudya) amalga oshiradigan asosiy va ajralmas funksiyalari ham bor. Bularga jinoiy qidiruv to'g'risida qaror qabul qilish; sudda ayblovni ta'minlash, sud qarorlari ustidan protest keltirish. Aksariyat mamlakatlarda prokuratura – huquqni muhofaza qiluvchi organlar manfaatlari va jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslar huquqlari

¹ Madaliyev O.M. Prokuror nazorati: Darslik. Maxsus qism. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2012. – B. 425.

o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi organdir. Gap shundaki, jinoiy yustitsiya tizimida qarama-qarshilik mavjud: bir tomondan jamiyatni muhofaza qilish uchun shaxs erkinligi buzilsa, ikkinchi tomondan – shaxs erkinligi o'sha jamiyat nomidan kafolatlanadi. Ushbu vaziyatda faqat prokuror bu ikki guruh manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni tiklash imkoniyatiga egadir.

Prokuror faoliyatining umumiy jihati jinoiy siyosatni ishlab chiqish jarayonida qatnashish, huquqiy me'yorlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar berish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatiga tanqidiy yondashishlardan iborat.

Prokurorlar jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatishda, ularga nisbatan davlat siyosatini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, AQSHda AQSH bosh attorney (generalniy attorney) tashabbusi bilan jabrlanuvchilar huquqini himoya qilish bo'yicha Federal dastur qabul qilingan. Shu kabi dasturlar boshqa shtatlarda ham qabul qilingan bo'lib, mamlakatdagi jinoyatchilikning sifat va miqdori tavsifiga ijobiy ta'sir qildi.

Deyarli barcha mamlakatlarda prokuratura jinoiy va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqishda qatnashish orqali fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi. Shuning yordamida inson huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyaning 6-moddasi amal qilishi ta'minlanadi. Unda ko'rsatilishicha, har bir shaxs uning fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilashda yoki unga e'lon qilingan har qanday jinoiy ayblovni ko'rib chiqishda ishning oqilona muddat ichida mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqiga ega. Shuningdek, prokuror ayblanuvchining boshqa huquqlarini ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega, masalan: unga e'lon qilingan ayblovning xususiyati va asosi to'g'risida darhol va to'liq unga tushunarli bo'lgan tilda xabardor qilinishi; o'z himoyasiga tayyorlanish uchun yetarli vaqt va imkoniyatlarga ega bo'lishi; unga qarshi guvohlik beruvchi shaxslarga savollar berish hamda u talab qilgan guvohlarga savollar berish, shuningdek o'z guvohlarini chaqirish, unga qarshi guvohlik beruvchi guvohlarni chaqirishdek huquqlar.

Prokurorning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bilan o'zaro munosabatlari ham qiziqish

uyg'otadi. Bu sohada jahon tajribasini umumlashtirish mamlakatlarni **3 guruhga** bo'lib o'rganishga olib keladi:

1) prokurorlarning ijroiya hokimiyati bilan yaqin aloqada bo'lgan mamlakatlar;

2) prokurorlar qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan yaqin aloqada bo'lgan mamlakatlar;

3) prokurorlarning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bilan doimiy aloqalari bo'lmagan mamlakatlar.

Lekin **qoida bo'yicha ko'p mamlakatlar uchun prokuratura qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyatlar bilan aloqada aralash ko'rinishi xosdir.**

Bunday munosabatlarning 8 ta turini ajratish mumkin:

- prokuror-ijroiya hokimiyatining ajralmas qismi;
- ijro hokimiyati prokuraturaga boshchilik qiladi;
- ijro hokimiyati prokurorlarni ta'minlaydi;
- ijro hokimiyati prokurorlarga intizomiy choralar tayinlaydi;

- ijro hokimiyati prokuratura faoliyatini nazorat qiladi;
- ijro hokimiyati prokuraturaga muayyan jinoiy yoki fuqarolik ishlari bilan bog'liq bo'lmagan umumiy masalalar bo'yicha buyruqlar beradi;

- ijro hokimiyati prokuraturaga muayyan ishlar bo'yicha buyruq berishga haqli;

- ijro hokimiyati prokuratura byudjetini boshqaradi.

Prokuratura davlat hokimiyatining turli organlarining hamkorligini ta'minlash orqali butun dunyo mamlakatlarida tobora uyushib ketayotgan jinoyatchilik bilan, xususan, korrupsiya bilan kurashishda asosiy rol o'ynamog'i lozim. Bu faoliyat samarali bo'lishi bilan birga inson huquqlarini hurmat qilishga asoslanishi, odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni kafolatlashi lozim¹.

¹ Madaliyev O.M. Prokuror nazorati: Darslik. Maxsus qism. – Toshkent: Ilm Ziyoi, 2012. – B. 425.

2-§. Xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlari

«Prokuratura organlarining davlat va jamiyat hayotidagi rolini muhokama qilganda birinchi navbatda milliy huquqiy tizimdan kelib chiqish zarur. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, jahonda prokuratura organlarining xalqaro standarti yo'q. Chunki har bir davlat bu o'rinda o'ziga xos yo'nalishga ega. Misol uchun, AQSH, Estoniya, Qozog'iston kabi davlatlarda prokuratura davlatning ijroiya hokimiyati tarkibiga kirsak, Ispaniya, Bolgariya, Latviya, Gruziya kabi davlatlarda sud hokimiyati tarkibiga kiradi. Fransiya, Italiya, Ruminiya kabi davlatlarda esa prokuratura sud va ijroiya hokimiyati o'rtasidagi o'rinni egallaydi¹.

Bugungi kunga kelib davlat organlari tizimi ichida prokuraturaning o'rnidan kelib chiqqan holda davlatlarni to'rtta guruhga bo'lish mumkin.

1. **Prokuratura adliya vazirligi tarkibiga kiradigan davlatlar** (*AQSH, Polsha, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Daniya, Ruminiya, Isroil, Yaponiya, Estoniya, Suriya*). Ularda adliya vaziri bir vaqtning o'zida bosh prokuror ham bo'lishi mumkin.

2. **Prokuratura sud tizimiga kiradigan davlatlar** (*Ispaniya, Kolumbiya, Bolgariya, Latviya*).

3. **Prokuratura alohida davlat hokimiyati hisoblanadigan, ya'ni ijroiya va sud hokimiyati tarkibiga kirmaydigan davlatlar** (*Vetnam, Xitoy, Koreya xalq Demokratik Respublikasi, Kuba va Laos*).

4. **Prokuratura yoki unga o'xshash institutlar yo'q davlatlar** (*Buyuk Britaniyada prokuratura instituti umuman yo'q. Davlat ayblovi Davlat ayblovi xizmati degan organ tomonidan qo'llab-quvvatlanadi*)².

Ta'kidlash joizki, hamma davlatlarda ham prokuratura konstitutsiyaviy institut hisoblanmaydi. Masalan, AQSH konstitutsiyasida faqatgina Bosh prokuror lavozimi mavjudligi va uni lavozimga tayinlash tartibi haqida so'z yuritiladi. Bu turdagi davlatlarga prokuratura ijro etuvchi yoki sud hokimiyati tarkibiga kiruvchi davlatlar kiradi. Bu yerda prokuraturaning faoliyati

qonunlar bilan tartibga solinadi (AQSHning 1870-yildagi «Adliya vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi Qonuni, Italiyaning 1930-yildagi JPK, Fransiyaning 1958-yildagi JPK).

Yaponiyada prokuraturaning faoliyati va vakolatlari 1944-yilgi «Prokuratura to'g'risida»gi dekret bilan belgilanadi. Germaniyada esa 1877-yilgi «Sud tuzilmalari to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi³.

MDH hamda Lotin Amerikasi davlatlarida prokuratura institutining huquqiy asoslari va asosiy vazifalari konstitutsiyada belgilangan. Ularda prokuratura institutiga alohida boblar bag'ishlangan. Lekin ba'zi davlatlarda prokuratura totalitar tuzumning mahsuli deb qaralib, unga konstitutsiyada o'rin berilmagan (Polsha) yoki juda kam o'rin berilgan (Litva, Sloveniya, Slovakiya). Hatto, Rossiya konstitutsiyasida prokuratura institutiga bittagina modda (129-modda) bag'ishlanib, unda prokuraturaning funksiyasi haqida so'z yuritilmay, faqat maqomi va tashkiliy asoslari haqida gapiriladi.

Qozog'istonda prokuratura faoliyati Prezidentning qonun kuchiga ega bo'lgan «Prokuratura to'g'risida»gi Farmoni asosida tartibga solinadi⁴. Tojikistonda esa «Prokuratura to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun mavjud.

Deyarli barcha davlatlarda prokuratura organlari mustaqil hisoblanib, prokurorlar faqatgina qonunga buysungan holda ish yuritadilar. Shu bilan birga ular o'z faoliyati davrida siyosiy partiya va harakatlarga a'zolikni to'xtatib qo'yadilar hamda asosiy ishdan tashqari biron-bir faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin emas. Ular ilmiy, o'qituvchilik va ijodiy faoliyat bilan faqat asosiy ishdan bo'sh vaqtda shug'ullanishlari mumkin.

Prokurorlarning siyosatga aralashishi taqiqlanadi. Lekin AQSHda boshqacha holat mavjud. U yerda prokurorlik ko'p hollarda shaxsning davlat hokimiyatidagi yuqori lavozimlarga erishishi uchun asos bo'ladi. AQSHning ba'zi shtatlarida esa prokurorlarga asosiy ishdan tashqari xususiy yuridik amaliyot bilan shug'ullanishga ham ruxsat etilgan.

Prokuratura tizimi markazlashtirilgan yoki markazlashtirilmaganligi ko'p hollarda davlatning ma'muriy-hududiy

tuzilishiga bog'liqdir. Agar davlat ma'muriy tuzilishiga ko'ra federativ bo'lsa, unda prokuratura tizimi to'liq markazlashtirilmagan bo'ladi. Misol uchun AQSH. Xorijiy davlatlarda prokurorlarni lavozimga tayinlash (saylash) jarayoni turlichadir.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga ko'ra Prezident mamlakat Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini lavozimga tayinlaydi va keyinchalik Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi⁷. Belarus, Germaniya, Qozog'iston, Ozarbayjon⁸, Albaniya kabi davlatlarda ham Bosh prokuror shu tartibda saylanadi. Slovakiyada esa Bosh prokuror parlamentning taklifiga binoan Prezident tomonidan tayinlanadi.

Rossiya va Gruziyada Bosh prokuror davlat rahbarining taklifiga binoan parlament yoki uning yuqori palatasi tomonidan tayinlanadi. Bolgariyada esa prezident tomonidan Oliy sud kengashining taklifi bilan lavozimga tayinlanadi. Agar Prezident bir marta Oliy sud kengashi taklif qilgan nomzodni ma'qullamasa va ushbu nomzod takroran taklif qilinsa, Prezident bu safar uni Bosh prokuror lavozimiga tayinlashga majburdir.

Italiya prokuraturasi

Italiya – prokuratura organlari va ijro hokimiyati organlarining aniq ajratilganligining misolidir. Italiyadagi prokuratura organlarining maqomi xususida olimlar o'rtasida yakdil fikr mavjud emas. Ayrim olimlar fikricha, Italiyadagi prokuratura organlari konstitutsiyaviy institut hisoblanadi.

Ayrim olimlar esa bu fikrni inkor qilib, xatoni, Italiya Konstitutsiyasida prokuratura faoliyatiga bag'ishlangan maxsus normalar mavjud emas degan fikr bildirganlar.

Italiya Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi 112-moddasi binoan prokuratura organlari jinoiy ta'qib faoliyatini amalga oshirishlari lozim.

Italiya prokuraturasining vakolatlari 1941-yilda qabul qilingan «Sud tuzilishi to'g'risida»gi qonun va protsessual qonunchilikda kengroq ko'rsatilgan.

Italiyada prokuratura sud tizimiga kirsada, bu tizimda u sudlardan farqli bo'lgan funksiyalarga ega. Har bir prokuror sud korpusining a'zosidir. Prokurorlar sudyalarning Oliy Kengashi

tomonidan tayinlanadi. Ular bir umrga tayinlanib, sudya ham bo'lishi mumkin va, aksincha, sudyalar prokuror lavozimida ishlashi mumkin.

Fransiya prokuraturasi

Fransiyada prokuratura faoliyati JPKning 31–48-moddalari bilan tartibga solinadi. Tashkiliy jihatdan prokuratura Adliya Vazirligi tarkibiga kiradi. Fransiyada prokuratura tizimi tashkiliy jihatdan sud tizimiga o'xshaydi. Yuqori mansabdor shaxs bo'lib kassatsion sud qoshidagi Bosh prokuror hisoblanadi. Respublika prokurorlari deb kichik va katta (quyi va yuqori) instansiya tribunali qoshidagi rayon prokurorlari ataladi. Ular apellyatsion sud qoshidagi Bosh prokurorlarga bo'ysunadi. Bundan tashqari bosh prokurorlar va Respublika prokurorlarining o'rinbosarlari lavozimlari ham mavjud.

Barcha prokurorlar **Fransiya** Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan chetlatiladi. Adliya Vaziri tavsiya berishda muhim ahamiyatga ega. **Fransiyada prokurorga** jinoyatchilik bilan kurash sohasida siyosatni aniqlash vakolati berilgan.

JPKning 34, 39-moddalariga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atish, dastlabki tergovni nazorat qilish, sudda ayblovni quvvatlashga haqli.

Bosh prokurorlar apellyatsion sudlar vakolat doirasiga kiradigan hududlarda jinoyat qonunchiligini qo'llash ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bosh prokurorga apellyatsion sud vakolat doirasiga kiradigan rayonidagi prokuraturaning barcha mansabdor shaxslari bo'ysunadi. Bosh prokuror mansabdor shaxslar va sud politsiyasi agentlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradilar. U politsiyaga odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha ko'rsatmalar berishga haqli.

Respublika prokurori sud politsiyasining mansabdor shaxsining barcha huquq va vakolatlariga ega bo'ladi hamda jinoyatni ochishga aloqador bo'lgan politsiya xizmatlariga rahbarlik qiladi. Jinoyat ishi kim tomonidan qo'zg'atilganligidan qat'i nazar, uni davom ettirish va sudda ayblovni quvvatlash huquqi prokuraturaga tegishlidir.

Prokuror sudda ijro hokimiyatining vakili sifatida ishtirok etishiga qaramasdan, u to'la mustaqildir, xususan sudga nisbatan va sudyalardan hamda hakamlardan farqli ravishda rad etilmaydi.

Germaniya Federativ Respublikasi prokuraturasi

Prokuratura faoliyati «Sud tizimi to'g'risida»gi Federativ Qonun, JPK, «Prokurorning tashkiliy strukturasi to'g'risida»gi Nizom va prokuraturaning ichki tartibi qoidalari bilan tartibga solinadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida GFR prokuraturasi o'z o'rnini sekinlik bilan (qiyinchilik) egalladi. Bu holat prokuratura sud va politsiya o'rtasidagi doimiy kelishmovchiliklar bilan amalga oshirildi. Tashkiliy jihatdan prokuratura sud tizimining bir qismi hisoblanadi. Umumiy sudlovli har bir sudda o'z prokuraturasi mavjud. Eng quyi sudlarda ijtimoiy xavflilik darajasi unga yuqori bo'lmagan jinoyatlarni ko'ruvchi sudlarda prokuraturalar tashkil etilmaydi. Ularning vazifalarini bajarish yer sudi qoshidagi prokuraturaga yuklatilgan.

GFRda 114 ta yer sudi bo'lib, ular ishlarni birinchi instansiya hamda apellyatsiya instansiyasida ko'rib chiqadi.

Har bir yer sudi qoshida o'z prokuraturasi bor.

Har 24 ta yuqori yer sudining qoshida (bu sudlar birinchi instansiya hamda quyi sudlar qarorlari ustidan shikoyatlarni kassatsion instansiyada ko'rib chiqadi) yer adliya vazirligiga bo'ysunuvchi **bosh prokuratura bor.**

Oliy federal sudi qoshida Federal adliya vazirligiga bo'ysunadigan Federal bosh prokuratura bor.

Federal bosh prokuror yerlar prokurorlariga ko'rsatmalar berishga haqli emas.

GFR prokuratura organlarida jami 4500 prokurorlar ishlaydi. Hokimiyatlar bo'linishi tizimida prokuratura organlari sudning emas ijro hokimiyatining tarkibiy qismidir. Prokuratura ijro hokimiyati tizimidagi ma'muriy boshqarmalarga kiradi, bu boshqarma esa adliya tizimiga.

Prokuraturaga adliya organlari faoliyatini ta'minlash vazifasi yuklatilgan bo'lib, bu vazifani esa ular sud bilan hamkorlikda va teng huquqlarda bajaradi.

Prokurorlar, ularning maqomidan qat'i nazar, davlat chinovniklari hisoblanadi, ularning rahbariyat bilan munosabatlari ommaviy-huquqiy xarakterga ega.

Tergovni olib borishda prokuratura ko'p hollarda politsiyaga tayanadi. Uning xodimlari qonunda «prokuraturaning yordamchi xodimlari», «prokuror yordamchilari» deb nomlanib, uning ko'rsatmalarini bajarishi shart.¹

3-§. Prokuratura organlarining xalqaro hamkorligi

O'zbekiston Respublikasi «Prokuraturasi to'g'risida»gi Qonunning 52-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq chet el davlatlarining tegishli organlari bilan prokuror nazorati, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamda boshqa masalalar bo'yicha hamkorlik qilishi belgilab qo'yilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi «Ijtimoiy – iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to'g'risida»gi PF-5019-son Farmoniga asosan Bosh prokuratura tizimida Xalqaro-huquqiy boshqarma tashkil etildi.

Mazkur Farmon asosida mamlakatda davlat boshqaruvini takomillashtirish hamda demokratlashtirish, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish, hududlarni kompleks rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining samarali ro'yobga chiqarilishi – mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlarini so'zsiz ijro etish uchun prokuratura organlarining

¹ Madaliyev O.M. Prokuror nazorati: Darslik. Maxsus qism. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2012. – B. 425.

kuch va imkoniyatlarini to'liq safarbar qilishni taqozo etmoqda.

Prokuratura organlarining qonunchilik ijrosini ta'minlash borasidagi mas'uliyatini yanada oshirish hamda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini so'zsiz amalga oshirish maqsadida:

1. Jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash hamda demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarishga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonunlarning so'zsiz ijro etilishi ustidan samarali nazoratni amalga oshirish orqali «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» prokuratura organlarining ustuvor vazifasi etib belgilandi.

birinchidan, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini so'zsiz bajarishni, amalga oshirilayotgan islohotlarga to'siq bo'luvchi omillar va tizimli kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etishni;

ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni;

uchinchidan, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqot o'rnatishni, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida hal qilishni, aholining huquqiy madaniyatini oshirishni, jamiyatda qonun buzilishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishni;

to'rtinchidan, profilaktika tadbirlarining, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi tadbirlarning ta'sirchanligini, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etishni;

beshinchidan, kam ta'minlangan oilalarni manzilli ijtimoiy himoya qilishni, yangi ish o'rinlari yaratish dasturlarini amalga oshirishni, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni o'z vaqtida to'lashni;

oltinchidan, malakali tibbiy yordam ko'rsatishni, aholiga arzon dori vositalari yetkazishni, ta'lim jarayonining sifati va ta'lim muassasalarida o'quvchilar davomatini hamda ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishni;

yettinchidan, fuqarolarga arzon uy-joy ajratishni, uy-joy sotib olish uchun, birinchi navbatda, yosh oilalar, yetim bolalarga kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratishni, sifatli kommunal xizmat ko'rsatish va hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirishni;

sakkizinchidan, tabiiy resurslar, yer maydonlaridan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlashga asosiy e'tibor qaratilishi belgilab berildi..

Diplomatik aloqalar o'rnatilgan va shartnomalar tuzilgan davlatlar bilan jinoyat sodir etgan shaxslarni ushlab berish, jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida o'zaro hamkorlik ishlarini ham O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi orqali amalga oshiriladi. O'zaro shartnomalar mavjud bo'lmagan davlatlar bilan huquqiy aloqalar xalqaro konvensiyalar, xalqaro huquqiy normalar talablari asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tizimida Xalqaro-huquqiy boshqarma qayta tashkil etildi.

Prokurorlar Xalqaro Assotsiatsiyasi

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qonunchilik va xalqaro shartnomalarga mos ravishda prokuror nazorati, jinoyatchilik bilan kurash va boshqa masalalar bo'yicha hamkorliklarni amalga oshirmoqda. O'zaro hamkorlikdagi harakatlar yo'nalishlariga xorijiy mamlakat hududidagi O'zbekiston fuqarolarining, xorijiy fuqarolarning yurtimizdagi huquq va erkinligi masalalari, jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish, jinoiy javobgarlikka tortish va hukmni ijro etish uchun shaxslarni ekstradiksiya qilish, jinoiy ish qo'zg'ash uchun ishlar va materiallarni yo'naltirish, shuningdek, jazoga hukm etilganlarni jazoni o'tashda davom etishi uchun va ruhiy xastalikdan aziyat chekuvchi shaxslarni majburiy davolashga o'tkazishlar borasidagi hamkorliklar amalga oshirishi mumkin bo'ladi.

O'zaro aloqalar samaradorligini oshirish va tajribalar almashish uchun xorijiy davlatlarning bosh prokuraturalari, moliyaviy razvedka bo'linmalari va boshqa vakolatli organlari bilan 25 ta mahkamalararo kelishuvlar imzolangan va hamkorlik dasturlari amalga oshirilmogda. Uning faoliyatini tashkil etish va

muvoqlashtirish Xalqaro huquqiy boshqarmasi va uning hududiy prokuraturalardagi bo'linmalari zimmasiga yuklatilgandir.

Xalqaro hamkorlik borasida ko'p tomonlama formatda SHHTga a'zo davlatlar yig'ilishida, MDH mamlakatlari bosh prokurorlarining Muvoqlashtiruvchi kengashida ishtirok etishini, Xalqaro prokurorlar assotsiatsiyasi, Xalqaro anti-korrupsiya organlari, Pullarni yuvishga qarshi moliyaviy kurash choralarini ishlab chiquvchi guruh, jinoiy daromadlarni legallashtirish va moliyaviy terrorizmga qarshi kurashuvchi Yevroosiyo guruhi, Moliyaviy razvedka bo'linmalari xalqaro tashkiloti («Egmond»guruhi) va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda harakat qilishini ta'kidlash joiz. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT), BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (BMT NJB), BMTning bolalar jamg'armasi (YUNISEF), BMTning Taraqqiyot dasturi (BMT TD), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHHT), Umumjahon banki va boshqalar bilan qo'shma loyihalar amalga oshirilayotganligini aytib o'tishimiz mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Prokurorlar Xalqaro Assotsiatsiyasiga a'zo bo'lishi kutilmoqda

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida prokuratura organlarining tashkil topishi va rivojlanishi, tarixiy tendensiyalari bir-biriga o'xshashini yoritib bering.

2. Rossiya Federatsiyasi Prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslarini yoritib bering.

3. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi davlatlarning prokuratura organlari faoliyatlari, ularning tashkil topishi va faoliyat prinsiplari O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining tashkil topish va faoliyat prinsiplariga o'xshash tomonlarini ko'rsatib bering.

4. O'zbekiston Respublikasi «Prokuraturasi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamda boshqa masalalar bo'yicha hamkorlik qilishi masalalarini yoritib bering.

1-kazus

Qirg'iziston Respublikasi fuqarosi A. O'zbekiston Respublikasi hududida odam savdosi bilan bog'liq jinoyatni sodir etib, shu kunning o'zida chegaradan o'tdi hamda Qozog'iston hududida yashirindi. Interpolning O'zbekistondagi Milliy markaziy byurosi ko'rgan tezkor-qidiruv choralari natijasida A. Qozog'iston shaharlarining birida yashirilib yurganligi aniqlandi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Qozog'istonning vakolatli organiga rasman murojaat qilib, A.ni ekstraditsiya qilishni so'radi.

Mazkur holatdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining boshqa mamlakatlarning vakolatli organlari, shuningdek milliy huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik shakllarini ochib bering

2-kazus

Tuman prokurori qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida 2020-yilning 10-oktabr kuni maktab direktoriga taqdimnomada kiritadi hamda ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida unga yozma ravishda ma'lum qilinishini so'raydi.

Maktab direktori yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rilayotganligi sababli, prokurorning taqdimnomasini 2020-yilning 15-oktabr kuni ko'rib chiqadi va o'sha kuni 2020-yilning 10-noyabr kuniga qadar maktabda qonun buzilishiga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini tuzadi hamda 2020-yilning 15-noyabr kuni ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida prokurorga yozma ma'lum qiladi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Rahbariy adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasi. www.gazeta.uz/uz/2016/12/07/speech.

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent.: O'zbekiston, 2021.

2. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Prokuratura to'g'risida»gi 257–II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9–10-son, 168-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 39-modda // (2022-yil 10-dekabr gacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.

4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // (2022-yil 15-noyabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.

5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi // (2022-yil 20-sentabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.

6. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // (2021-yil 1-noyabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.

7. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks // (2022-yil 10-oktabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.

8. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi O'RQ–457-sonli Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018-y., 03/18/457/0525-son.

9. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabr dagi «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi 562–II-sonli Qonuni //

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-y., 1–2-son, 12-modda.

10. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'RQ–445-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 977-modda.

Maxsus adabiyotlar

11. Madaliyev O.M. Prokuror nazorati. Darslik. Maxsus qism. – Toshkent.: Ilm Ziyo, 2012.

12. Xalimov A.X. Prokuraturaning davlat hokimiyati mexanizmi tizimidagi o'rni. – T.: TDYI. 2006.

13. Po'latov B.X. Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan prokuror nazorati (O'quv qo'llanma). – Toshkent: Huquq va burch, 2007.

14. Egamberdiyev E. Fuqarolik jarayoni huquqida da'vo muammolari. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent.: 2007.

15. Po'latov B. Davlat ayblovchisining sud muhokamasiga tayyorgarlik ko'rish dasturi. – T.: 2002.

16. Shorahmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. – T.: Adolat. 2001.

17. Mamasiddiqov M., Karimov M., Fuqarolik protsessida prokuror ishtiroki. O'quv-amaliy qo'llanma. – T.: AQHMI, 2008.

18. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq // Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.

19. Rustamboyev M.X., Ahmedov D.Q., Xidirov S.M., Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Darslik. T.: 2005.

20. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashr. – T.: TDYI nashriyoti, 2009.

21. Madaliyev O., Ergashev A. «Prokuror nazorati» fanidan o'quv uslubiy qo'llanma (lotin alifbosida). – T.: TDYI, 2010.

22. Po'latov B.X. Prokuror nazorati. – T: O'zbekiston, 2009.

23. Nabiyev O. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari kasbiy madaniyatini yuksaltirish masalalari // O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi. – T.: – 2012. (12)-son. Mir poligrafii, 2012.

24. Yakubov R.X. Jinoyat protsessi. Oliy oquv yurtlari uchun darslik. To'ldirilgan 4-nashr / Ilmiy muharrir V.N. Galuzo. – M.: TEIS, 2003.

25. Rustamboyev M. Huquqiy davlatlarda prokuratura // Qonun himoyasida, 2003-yil, 1(85)-son.

26. Ro'zmetov O. Aybsizlik prezumpsiyasi – odil sudlovning asosiy prinsipi // Qonun himoyasida, 2003-yil, 9(93)-son.

27. Madaliyev O. Prokurorning ayblovidan voz kechishi // Qonun himoyasida, 2002-yil, 9–10-son.

28. Nazarov G'.I. Prokurorning huquqlari // Qonun himoyasida, 2000-yil, 3-son.

29. Shorahmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. – T.: Adolat. – 2001.

30. Usmonov S. Davlat tilida ish yuritish amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T: Fan nashriyoti. – 2008.

31. Галузо В.Н. Система правоохранительных органов России. Учебник для вузов. – М.: 2000.

32. Рахлин В.И. Сидарук М.М. Правоохранительная функция прокуратуры. – С. Петербург.: 2000.

33. Lison al-Arab, 3-kitob, Bayrut.: 1997.

34. Ibn Taymiya. Al-Xisbatu fil islam. Qohira, 1935.

35. Матушевский Р.Г., Пятаков В.А. Прокуратура и прокурорский надзор. – М.: Приор-издат, 2005.

36. Галузо В.Н. Прокурорский надзор. – М.: 2004.

37. Петелин Б.Я. О криминалистической теории установления вины // Государство и право, 2011, № 5.

38. Кириллова Н.П. Участие государственного обвинителя в судебном следствии. Конспект лекции. – СПб.: 2002.

39. Комлев Б. Исключение доказательств, полученных в других государствах, из перечня доказывания. Законность, 2010, № 3.

40. Василев В.Л. Психологическая культура прокурорско-следственной деятельности. Учебное пособие. – СПб., 2009.
41. Викут М.А., Зайцев И.М. Гражданский процесс России. Учебник. Юрист. 1999.
42. Давлетов А.Ж. Прокурорский надзор. Учебник. Нукус.
43. Теория и практика прокурорского надзора: Лекции / Под ред. Кареева Ш. – М.: Экспресс, – 2003.
44. Ласкина, Н. В. Прокурорский надзор: Учебник. – М.: Юстиц информ, 2012.
45. Алексеев С.Л., Вотчель Н.Р. Прокурорский надзор: Учебное пособие / Под редакцией доктора юридических наук, профессора Ф.Н. Багаутдинова. – Казань.: Информационно-технологический центр АСО, 2014.
46. Прокурорский надзор. Общая часть: учебник для академического бакалавриата / О.С. Капинус [и др.]; под общ. ред. О.С. Капинус. – 3-е изд. – Москва: Издательство Юрайт, 2018.
47. Винокуров, А. Ю., Винокуров, Ю. Е. Прокурорский надзор: учебник для вузов. 4-е изд., перераб. и доп. – Москва.: Издательство Юрайт, 2018.
48. Прокурорский надзор: учебник и практикум для прикладного бакалавриата / М.П. Поляков, А.В. Федулов, С.В. Власова, М.В. Лапатников; под общ. ред. М.П. Полякова. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва.: Издательство Юрайт, 2018.

Qaydlar uchun:

Qaydlar uchun:

1. ...
2. ...
3. ...
4. ...
5. ...
6. ...
7. ...
8. ...
9. ...
10. ...
11. ...
12. ...
13. ...
14. ...
15. ...
16. ...
17. ...
18. ...
19. ...
20. ...
21. ...
22. ...
23. ...
24. ...
25. ...
26. ...
27. ...
28. ...
29. ...
30. ...
31. ...
32. ...
33. ...
34. ...
35. ...
36. ...
37. ...
38. ...
39. ...
40. ...
41. ...
42. ...
43. ...
44. ...
45. ...
46. ...
47. ...
48. ...
49. ...
50. ...
51. ...
52. ...
53. ...
54. ...
55. ...
56. ...
57. ...
58. ...
59. ...
60. ...
61. ...
62. ...
63. ...
64. ...
65. ...
66. ...
67. ...
68. ...
69. ...
70. ...
71. ...
72. ...
73. ...
74. ...
75. ...
76. ...
77. ...
78. ...
79. ...
80. ...
81. ...
82. ...
83. ...
84. ...
85. ...
86. ...
87. ...
88. ...
89. ...
90. ...
91. ...
92. ...
93. ...
94. ...
95. ...
96. ...
97. ...
98. ...
99. ...
100. ...

PROKUROR NAZORATI

Darslik

«Yuridik adabiyotlar publish» MCHJ.

Nashr. lis. AA № 0042, 27.01.2020.

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Muqimiy ko'chasi, 100/25.

Telefonlar: +99899 554-70-70,

+99893 554-63-70.

Rasmiy veb-sayt: www.kodeks24.uz

Elektron manzil: info@kodeks24.uz

Bosishga ruxsat etildi 24.01.2023-y.

Qog'oz bichimi 60x90 1/16.

«Antiqua» garniturası.

Ofset usulida chop etildi.

Bosma tabog'i 14,5.

Nashriyot hisob tabog'i 13,0.

Adadi 1000 nusxa. 003-buyurtma.

«MasterBooks» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Xushtepa ko'chasi, 22-a.



<https://t.me/yuridikadabiyotlar>



**Yuridik
Adabiyotlar
Publish**



MasterBooks

ISBN 978-9943-8522-3-4



**Yuridik
Adabiyotlar
Publish**